ISSN: 2181-3035



TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 8

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

OPEN ACCESS

15.08.2022

@TALQINVATADQIQOTLAR

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisod fanlari
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Arxitektura
- Qishloq xo‘jaligi
- Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- San’at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport

(+99890-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

8-son 1-qism
15.08.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas’ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Bazarov Odiljon
Filologiya fanlari doktori, Qo‘qon davlat pedagogika instituti
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti
tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Tojiyeva Gulnora Akramxonovna
Xalq ta’limi a’lochisi
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Akbarov Qobuljon Yakubovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, tarix fanlari nomzodi
G‘ofurovTo‘lqinjon Zafarjon o‘g‘li
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, matematika fani o‘qituvchisi
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa’dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАРДА TORCH ИНФЕКЦИЯЛАРИ ПЕРСИСТЕНЦИЯСИ БИЛАН БРОНХИАЛ АСТМА КАСАЛЛИГИНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИ

М.С.Амирова
Республика шошилинч тиббий ёрдам илмий маркази
Самарқанд филиали
https://doi.org/10.5281/zenodo.7294978

Аннотация: Ушбу тадқиқот ишида болалар ва ўсмирларда TORCH инфекциялари персистенцияси билан бронхиал астма касаллигининг клиник кечиши тўғрисидаги илмий тадқиқот иши олиб борилган.
Калит сўзлар: бронхиал астма, болалар, ўсмирлар, TORCH инфекцияси.

Мавзунинг долзарблиги: Бронх-ўпка тизими патологияси структурасида бронхиал астма (БА) касаллиги болалар ва ўсмирлар орасида кенг тарқалган.(1,2.3) Олимларнинг қайд қилишича, 80% ҳолларда болаларда БА эрта ёшда ва аксарият ҳолларда ҳаётининг биринчи йилида шаклланади, бунда БА касаллиги ўз вақтида аниқланмайди ва беморлар даволанмайди, чунки улар узоқ вақт давомида «обструктив синдромли ўткир респиратор вирусли инфекция» ёки «рецидивловчи обструктив бронхит» ниқоби остида яширинган бўладилар.Олимлар ва амалиётчи шифокорларнинг фикрича 75-80% болаларда мустақил соғайиш кузатилган, қолган ҳолатларда эса касаллик сурункали бронх-ўпка касаллиги ёки бронхиал астмага айланиши қайд этилган (Геппе Н.А., Колосова Н.Г., Малахов А.Б., 2019). Бугунги кунга келиб, БА энг кенг тарқалган сурункали аллергик респиратор касаллик бўлиб, унинг дебюти кўпинча нафақат болаликда, балки ўсмирлик даврида ҳам содир бўлади.(3,5,8,9) Бронхиал астмада патологик жараённинг сурункали тус олиши беморларнинг ҳаёт сифатининг ёмонлашуви, уларнинг фаоллиги пасайиши, ногиронлик ва ўлимга олиб келади.Кўпгина олимлар томонидан БА ташхисоти бўйича тадқиқотлар натижалари зиддиятлидир. Бронхиал астма диагностикаси ва даволаш, замонавий ингаляцион яллиғланишга қарши ва бронходилататор препаратлардан фойдаланган ҳолда уни даволашга ягона ёндашувлар бўйича халқаро консенсус тавсиялари амалиётга жорий этилганига қарамасдан, касалликни назорат қилишни амалга ошириш ҳар доим ҳам иложи бўлмайди. Кўпинча касалликнинг юзага чиқиши, унинг кейинги кечиши ва баъзан касаллик оқибатларини белгилайдиган сабаблар орасида бронхиал астма касаллиги патогенезида инфекцияга катта аҳамият берилади. Инфекциялар айниқса, эрта ёшдаги болаларда касалликнинг ривожланиши учун туртки

механизми, ҳам бронхиал астма касаллиги қўзишининг триггер механизми бўлиши мумкин. Аксарият ҳолатларда бронхиал астма касаллигининг қўзишига нафас йўлларининг юқумли вирусли касалликлари, хусусан, герпес вируслари (Эпштейн-Барр вируслари, герпес I, герпес II, цитомегаловирус, уларнинг ассоциацияси), Chlamydophila pneumonia томонидан чақирилган хламидия инфекцияси, ва Mycoplasma pneumoniae томонидан чақирилган микоплазмали инфекциялар олиб келади.(6,7,8,9)

Тадқиқот мақсади: TORCH инфекциялари персистенцияси бўлган болаларда бронхиал астма касаллиги клиник кечиш хусусиятларини аниқлаш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари: Республика шошилинч тиббий ёрдам Самарқанд филиалига шошилинч холатда бронхиал астма қўзиш даврида мурожат қилган 10 ёшдан 18 ёшгача бўлган 14 нафар бола комплекс текширувдан ўтказилди.Бронхиал астма касаллиги диагностикаси ва оғирлик даражаси тасдиқланган мезонлар – Ўзбекистон Соғлиқни сақлаш вазирлигининг буйруғи, ХКТ-10 ва GINA халқаро тавсияларига мувофиқ белгиланади.Барча мурожат қилган ўсмирларда бронхиал астма касаллигининг кечишига ҳужайра ичи қўзғатувчиларининг таъсир даражасини аниқлаш учун қон зардобидаги M ва G синфидаги иммуноглобулинлар даражаси, шунингдек оғиз бўшлиғи шиллиқ қаватидан олинган шиллиқ суртмасида I–II тип оддий герпес вируси, цитомегаловирус, Эпштейн-Барр вируслари ДНК си аниқланилди.Мурожат қилган 14 нафар болалардан 11 нафарида 78.6%да бронхиал астма TORCH инфекциясии билан аниқланди.

Хулоса: TORCH инфекциялари билан ассоцирланган бронхиал астма билан оғриган болаларда, турли ёшдагиболалар ва ўсмирларда бронхиал астма ремиссияси, касалликнинг клиник кечиши хусусиятларини ва иммунологик статуси ҳолатини аниқлаш учун тадқиқот ўтказиш зарурлигини кўрсатди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Астафьева Н. Г. и др. Клинические фенотипы бронхиальной астмы у подростков:

трудности диагностики и терапии // Медицинский научно-практический журнал Лечащий врач. – 2015. – Т. 4. - № 8. – С. 20.

2. Батожаргалова Б. Ц. и др. Ассоциация полиморфизмов генов NO-синтаз и аргиназы, клинико-лабораторных и функциональных показателей с уровнем оксида азота в выдыхаемом воздухе у детей, больных бронхиальной астмой //Российский вестник перинатологии и педиатрии. – 2019. – Т. 64. – №. 5. – С. 55-68.

3. Булгакова, В. А. Клинико-иммунологические взаимосвязи персистирующей вирусной инфекции и атопической бронхиальной астмы у детей / В. А. Булгакова // Детские инфекции. – 2012. – Т. 11. – № 4. – С. 9-13.

4. Ганиев А. Г., Хайдарова Л. Р. Основные показатели качества жизни подростков с бронхиальной астмой //Биология и интегративная медицина. – 2019. – №. 4 (32). – С. 59-65.

5. Ганиев А. Г., Юнусов Д. М. Оценка качества жизни подростков с бронхиальной астмой //Re-health journal. – 2019. – №. 1. – С. 49-54.

6. Ганузин В.М. Врачебная профессиональная консультация подростков с бронхиальной астмой //Вопросы школьной и университетской медицины и здоровья. – 2019. – №. 2. – С. 39-42.

7. Ганузин В.М., Черная Н. Л., Маскова Г. С. Особенности врачебной профессиональной консультации подростков с бронхиальной астмой клинические наблюдения //Доктор. Ру. – 2020. – Т. 19. – №. 3. – С. 57-60.

8. Добрынина Е. А. и др. Современные стратегии терапии персистирующей бронхиальной астмы у подростков //Педиатрическая фармакология. – 2017. – Т. 14. – №. 5. – С. 386-391.

9. Долженко, К. Ю. Применение бронхолитиков миотропного действия в стационарном лечении аллергической бронхиальной астмы у подростков // Большая студенческая конференция : Сб. статей Междунар. научно-практич. конфер. В 2-х частях, Пенза, 05 мая 2022 года. –2022. – С. 200-203.

SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARI VA ULARNING TARBIVIY AHAMIYATI

Malohatoy Mo‘minjonovna Karimova
Andijon davlat universiteti, Pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295007

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniyat uchun har doim dolzarb va ahamiyatli bo‘lgan masala ya’ni, tarbiya masalasi - uning inson hayoti, jamiyatdagi o‘rni, oila, do‘stlar davrasi, jamoatchilikda tutadigan alohida o‘rni haqida so‘z boradi. Aynan mana shu tarbiyani shakllanishida esa Qur’oni Karimdan keyin muqaddas hisoblangan, hadis-u sharif va dunyo tan olgan buyuk mutafakkirlarimiz, ajoyib an’analarimiz, shu an’analarimizni dunyoning mashxur kishilari tamonidan millatimizga hurmat bilan aytgan e’tiroflari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Insoniyat, Sharq mutafakkirlari namoyondalari, Internet avlodlari, Google, Facebook farzandalari, Mavorounnahr, Yevropa.

Odamzod bir necha yillik rivojlanish tarixini bosib o‘tkan bo‘lsa, hech shubhasiz aytish mumkinki,aynan ongli ta’lim –tarbiya paydo bo‘lgachkina inson sifatida shakllana boshlagan.

Insoniyat to‘plagan tajribalarini an’ana va urf odatlarini o‘zidan keyingi avlodalarga meros qoldirib, o‘z davomchilarga mayyan davr talablari darajasida ta’lim tarbiya berib kelgan.

Hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy o‘zligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona bo‘lgan turli hurujlar (internet avlodi,google bolalari,facebook farzandlari, ommaviy madaniyat)yoshlarimiz ongini va qalbinni egallashga qaratilgan g‘arazli intilishlar barchamizni hushyor, ogoh bo‘lishga da’-vat etadi.

Inson qalbiga yo‘l avvalo ta’lim –tarbiyadan boshlanadi.Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa kasblarning ichida eng sharaflisi o‘qituvchilik va murabbiylikdir.Insoniyatnning ko‘p ming yillik tajribasi – dunyodagi zo‘ravon va tajavvuzkor kuchlar qaysi bir xalq va mamlakatni o‘ziga tobe qilib, bo‘ysundur-moqchi,uning boyliklarini egallamoqchi bo‘lsa avvalo uni qurolsizlantirishga ya’ni eng buyuk boyligi bo‘lmish milliy qadriyatlari, tarixi va ma’naviyatidan judo qilishga urinadi.

Shu sababli hozir yoshlarimizning ma’naviy olamini turli ma’naviy mafkuRaviy tajavvuzlardan asrash, kelajakka qo‘yilgan juda katta salmoqli qadam desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ota bobolarimiz farzandlar tarbiyasini hayot va momot masalasi deyishgan, Buning uchun kurashgan,jonlarini fido qilishgan.

Bugungi yoshlar :

- Mustaqil fikrga ega bo‘lishlari
- Horijiy tillarni bilishlari
- Dunyoning taraqqiyot qonunlarini bilishlari
- Mablag‘ni dabdaga emas, o‘qish va o‘rganishga sarflashi
- Chiroyli zamonaviy kiyinishi
- Taraqqiyotga intilishi kerakligini
- Mustaqil fikrga ega bo‘lishlari
- Xorijiy tillarni bilishi
- Dunyoni taraqqiyot qonunlarini o‘rganishi
- Mablag‘ni dabdabaga emas, o‘qish va o‘rganishga sarflashi
- Chiroyli, zamonaviy kiyinishi
- Taraqqiyotga intilishi kerakligini hayot taqazo etmoqda deb o‘ylayman.

Allohning o‘zi bizga buyurgan – komil inson bo‘lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi oliyjanob fazilatlarning ma’no - mazmunini nafaqat, chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo‘lish, ularga amal qilib yashash odamzotning ma’naviy boyligidir.

Sharq mutafakkirlarining ajoyib namoyondalari sifatida quyidagi ajdodlarimizni sanab o‘taman.

Imom Ismoil al-Buxoriy (809-871)

Abu iso Muhammad at-Termiziy (824-894)

Abu Mansur Motrudiy (870-944)

Abu Nasr Farobiy (873-950)

Abu Rayxon Beruniy (973-1048)

Abu Ali Ibn Sino (980-1037)

Abul Qosim Maxmud az-Zamahshariy (1075-1144)

Aziziddin Nasafiy (1240-1300) lar Sharq pedagogikasining asoschilaridir. Germaniyalik Xerler: “Sharq-Yevropaning muallimidir”, degan Sharqona odob 1000 yillar mobaynida islomiy tarbiya qoidalari asosida tarkib topib, takomillashib borgan. Qur’oni Karim oyatlari, mazmuni, Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) hadislari, ulug‘ allomalarning kitoblari, tarbiyamizning manbai bo‘lib hizmat qilgan.

Ispaniyalik bir faylasuf olim, butun umrini jahon xalqlarining urf-odatlari, axloq-odobini o‘rganishga, tadqiq qilishga bag‘ishlangan ekan. Ittifoqo, o‘sha olim bizni yurtimizga tashrif buyurib Toshkent, Samarqand, Buhoroga boribdi. Yurtiga qaytib borgach: “Hozirgacha o‘rgangan, tadqiq qilgan barcha ishlarimni 15 yoshlik

o‘zbek qizalog‘ining o‘rnidan turib qo‘lini ko‘ksiga qo‘yganicha choy uzatishidagi odobiga, nazokatiga almashtirishga rozi edim”,- degan ekan

Islom tufayli Mavorounnahr mashhur bo‘ldi va dunyo faniga, taraqqiyotiga 3500 dan ziyod allomalarni berdi. Ularning 1500 nafarini ilmiy asarlari O‘zbekiston Respublikasi Sharqshunoslik instituti ilmiy fondida, qolgan 2000 tasi Misr, Parij, London, Istambul, Sank-Peterburg shaharlari saqlanmoqda. Bu tarixiy faktlarni o‘ziyoq dilimda ajoyib g‘urur hissini tuydiradi.

Bugungi kundagi imkoniyatlar, oxirgi 30 yilda yaratilgan asarlar Sharqning ikkinchi renessansi boshlanayotganidan darakdir. O‘z yillik mablag‘ini yarmidan ko‘pini ta’limga, ijtimoiy sohaga sarflayotgan mamlakat yuksalishga haqlidir deb o‘ylayman.

Yoshlarimiz o‘z allomalarini merosini chuqur o‘rgansin, ular bilan faxrlansin, tagli-tugli boy tarixi, o‘zini yo‘qotmagan xalq farzandi bo‘lsinlar deya orzu qilaman.

9- va 15 asrlar orasida Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan ulkan taraqqiyot ulkan G‘arb adabiyotida musulmon uyg‘onish davri (renessansi)deb ataladi. Bu tamaddunning asosiy yuki Mavorounnahr zimmasida bo‘lib va ilm-fanning yuksalishi Samarqand, Buhoro, Termiz, Xorazm va ko‘xna Shosh (Toshkent) ning ilmiy ruhiyati va salohiyati hamda allomalari tufayli yuzaga kelgan edi. Albatta, Islom dini yurtimizda ikkinchi vatanini topdi, chunki u Arabiston yarim orolida ibodat ko‘rinishida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ulkan ta’limot yoki fan maqomini Mavorounnahrda qo‘lga kiritdi deb g‘urur bilan ayta olamiz.

G‘arbning insofli kishilaridan biri bo‘lgan Olmon shoiri Volfrang Gyote:

“Men dunyo tarixini o‘qib shunday hulosaga keldim; dunyo podshohlari to‘plagan jami saltanatu-saroylar Muhammad (s.a.v)ning yirtiq – yamoq yaktaklariga ham arzimas ekan…”. Biz Yevropa millatlari madaniy imkonimiz yuqori bo‘lishiga qaramay, Muhammad (s.a.v) so‘nggi pog‘onasiga chiqa olgan zinaning birinchi pog‘onasidamiz, xolos. Hech shubha yo‘qki, hech bir kimsa, u zotdan yuqoriroqqa o‘ta olmaydi”.

“Tojdor hech bir imperotor yirtiq hirqasini o‘z qo‘li bilan yamab kiygan Muhammad (s.a.v) qadar hurmat ko‘rmagan”dek e’tirof etgan.

Ingliz mutaffakkiri va yozuvchisi Bernard Shou: “Agar Muhammad (s.a.v) dek bir dam hozirgi dunyoni boshqarganda edi, bu dunyoning mushkulotlarini hal qilishga muvoffaq bo‘lar edi, bu esa o‘z navbatida, hozirgi navbatida, hozirgi dunyoda yetishmayotgan xotirjamlik va baxtni olib kelgan bo‘lar edi [Xidoyat,2001y,6-son 14-bet] deb tushuntiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.“Odoblar xazinasi-1”.Toshkent Hilol-nashr 2020.

2.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.“Odoblar xazinasi-2”.Toshkent Hilol-nashr 2020.

3.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.“Odoblar xazinasi-3”.Toshkent Hilol-nashr 2020.”

4.Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf.“Odoblar xazinasi-4”.Toshkent Hilol-nashr 2020.

5.Hidoyat jurnali. 6- son, 14- bet. 2001- yil.

EKOLOGIK KOMPITENSIYA VA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH HAMDA EKOLOGIK TA’LIMNING DOLZARBLIGI

Sh.Sh Matirzaev
Berdaq nomidagi Qorqalpoq davlat universiteti huzaridagi
Amudaryo muxandislik texnikumi direktor o‘rinbosari
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295069

Annotatsiya: Butun dunyoda ekologik vaziyatning tobora yomonlashib borayotganiga jiddiy tashvish bu masalada qo‘shni davlatlar va jahon jamoatchiligi bilan birgalikda Orol dengizi ekologik fojiasi ta’sirini yumshatishga qaratilgan sa’y-harakatlar. Yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta’minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo‘lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olishva ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish masalalari va ta’lim muassasalarida nazariy bilimlarini amaliy ko‘nikmalar mustaxkamlash jarayonida biogeotsenozga extiyotkorlik bilan yondashishi to‘g‘risida.

Tayanch so‘zlar: ekologik madaniyat, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat, ekologik xavf-xatar, antrapogen o‘zgarishlar, Ekologik ta’lim konsepsiyasi va tabiatdan foydalanish.

Yurtboshimiz Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e’lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish, ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash taklifini bildirganlari bejiz emas. Prezidentimiz olib borayotgan siyosatning izchil va mantiqiy davomi bo‘lib, so‘nggi to‘rt yilda dengiz tubining qurigan qismida bir yarim million gektarga yaqin erlarda o‘rmon va butazorlar tashkil etilgan. Sobiq ittifoq davrida ilgari ko‘chmanchi chorvachilik va sug‘oriladigan dehqonchilik mavjud bo‘lgan Orolbuyi, jadal sug‘orishga asoslangan, ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish o‘lkasiga aylandi.

Ayniqsa, mustaqillikgacha bo‘lgan chorak asr mobaynida sug‘orish va sanoatni rivojlantirish uchun qaytarilmas suv iste`molining o‘sishi, shuningdek qator yillardagi qurg‘oqchilik Orol dengiziga daryo suvlari quyilishining asta-sekin kamayishiga, xatto butunlay to‘xtab qolishiga olib keldi. Paxta va boshqa ekin maydonlarini sug‘orish uchun suvdan betartib foydalanish, keyingi yillarda, Orol dengiziga Amudaryo va Sirdaryo suvlari kelib quyilishining keskin qisqarishiga olib keldi. Dengiz sathi 16 metrdan ziyod pasaydi. Suv maydoni 1960-yillar

boshlaridagiga nisbatan uch barobarga qisqarib, suv hajmi 60% kamaydi.1911-1960 yillar davomida Orolga har yili o‘rtacha 52 kub km suv quyilib kelgan va uning sathi muntazam ravishda 53 m mutloq balandlikda, akvatoriyasi 66 ming kv.km, suv hajmi 1061 kub km ga teng edi, suvning o‘rtacha sho‘rlik darajasi har litr suvda 9,5-10 g atrofida bo‘lib, dengizning o‘rtacha chuqurligi 16 m ni tashkil qilgan. Ta`kidlanganidek, Orol sathi 1961 yildan pasaya boshladi. 1961-1970 yillar mobaynida pasayish o‘rtacha 21, 1971-1980 yillarda 68, 1981-1985 yillarda 80 sm.ni tashkil qildi. Ayrim yillarda suv sathining pasayishi hatto 1 m ga etdi. 1960-1993 yillarda dengiz suv rejimining o‘zgarishi 2-jadval ma`lumotlarida keltirilganidek bo‘lgan. Dengiz suvining sho‘rlik darajasi barqaror ortib bormoqda. Hozirda (2010 y) bu miqdor har litr suvda 45-47 g ni tashkil qiladi. Suvning faqat bug‘lanishga sarf bo‘lishi, daryolar orqali kelayotgan suv miqdorining nihoyatda kamligi Orol suvida tuz miqdorining muntazam ko‘payishiga sabab bo‘lmoqda.

Ekologik muammolarning tobora global ahamiyat kasb etib borayotganligi inobatga olinib, so‘nggi yillarda muhim ustuvor vazifalar bilan bir qatorda atrof muhit muhofazasi, ekologik madaniyat, ekologik ta’lim-tarbiya, ekologik ma’rifat masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Ekologik ta’limning dolzarbligi mamlakatimiz tabiati, ekotizimlari, atrof muhitni beqarorlik va izdan chiqishdan asrash, aholining ekologik madaniyatini oshirish, ushbu o‘ta jiddiy, hayotiy masalalarga aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlar hissa qo‘shishi zarurligi bilan belgilandi.

Ammo ekologik ta’limni amalga oshirish jarayonining tizimli tahlili ekologik ta’limni tashkil etishda bu boradagi islohotlarni to‘liq ro‘yobga chiqarishga to‘sqinlik qiluvchi jiddiy muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotganligini ko‘rsatmoqda:

Professional ta’lim muassasalarida O‘zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni 4-moddasida nazarda tutilgan ekologiya o‘quvining majburiyligiga oid talablar etarli darajada bajarilmayapti.

Amaldagi davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlari mazmunan ekologik bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar bilan zarur darajada boyitilmagan.

Ekologik ta’lim yo‘nalishida ilg‘or milliy va xorijiy tajribani o‘rganish, ular asosida ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishning aniq parametrlari ishlab chiqilmagan.

Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida amalda bo‘lgan ta’lim dasturlari bugungi kundagi global ekologik muammolarni bartaraf etish, mavjud (Orolbo‘yi) ekologik xavf-xatar darajasini kamaytirish, tabiiy muhitni qayta tiklashga qaratilgan umummilliy tadbirlar mohiyati bilan muvofiqlashtirilmagan.

Ekologiyaning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi ekotizimlar xavfsizligiga erishish uchun ekologik ta’lim, tarbiya va

amaliyot birligini ta’minlash.Ushbu maqsadga erishmoq uchun milliy miqyosda quyidagi ekologik tusdagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

Ekologiyaning umume’tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; uning tarixi, hozirgi holati va kelajak istiqbollarini turli ekotizimlar doirasida uzviy bog‘lash.

Ekologik konsepsiya va harakatlar dasturini ishlab chiqish.

Taktik va strategik ekologik rivojlanish rejalarini qabul qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi «O‘zbekiston Respublikasining Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 434-sonli qarori qabul qilindi. Qarorda O‘zbekiston Respublikasining Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi, Konsepsiyani amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasi tasdiqlanishi mumkin.

Quyidagilar konsepsiyaning asosiy vazifalari etib belgilanadi.

"Ta’lim to‘g‘risida" va "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy prinsiplarini (tamoyillarini) belgilash, ularni izchillik bilan bosqichma-bosqich ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va buning asosida ekologik ta’limning samaradorligini oshirish.

Ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga doir faoliyatdan kelib chiqib, takomillashtirish.

Ta’lim oluvchilarning e’tiborini umumbashariy ekologik muammolarga qaratish orqali ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolishga bo‘lgan mas’uliyatini kuchaytirish.

Ta’lim oluvchilarga ekologik ta’lim va tarbiya berishning va bu boradagi ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ekologik ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish.

Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlat boshqaruvi organlari va ta’lim sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan.

O‘zbekiston Respublikasining ekologik ta’lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasiga ko‘ra, o‘sib kelayotgan yosh avlodda ekologik bilim, ong, madaniyat va tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish hamda ekologik ta’lim-tarbiya jarayonini tizimli va samarali tashkil etish, ekologiya sohasidagi ilm-fanni jahonning ilg‘or innovatsion texnologiyalarini jalb etgan holda yanada takomillashtirish O‘zbekiston Respublikasining ekologik ta’lim konsepsiyasining asosiy maqsadidir.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

"Ta’lim to‘g‘risida" va "Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirishning asosiy prinsiplarini (tamoyillarini) belgilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq qilish va buning asosida ekologik ta’limning samaradorligini yangi bosqichiga olib chiqish.

Aholini ekologik jihatdan tarbiyalash va unga ekologik ta’lim berish, ekologik bilimlarni targ‘ib qilish, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazishni.

Ta’lim dasturlarini mavjud ekologik muammolar va ularni bartaraf etish, maishiy chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirishga doir faoliyatdan kelib chiqib muvofiqlashtirish.

Ta’lim oluvchilarning e’tiborini ekologik muammolarga qaratish orqali ona tabiatning qayta tiklanmas manbalarini saqlab qolishga bo‘lgan mas’uliyatini kuchaytirish.

Ta’lim oluvchilarga ekologik ta’lim va tarbiya berishning va bu boradagi ma’rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish.

Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ekologik ta’limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko‘rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini ta’minlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish.

Konsepsiya ekologik ta’lim va tarbiyaning yagona tizimda turuvchi ajralmas vositalar majmuasi.

Koinotdagi yagona hayot mavjud bo‘lgan er sayyorasi haqidagi tasavvurlar.

O‘z o‘lkasi va vatanining ekologik tizimlari, ularning paydo bo‘lishi, evolyusion rivojlanishi, antropogen o‘zgarishi, makon va maydon bo‘yicha tarqalish qonuniyatlari.

Atrofdagi olam, tabiat va insonlarni o‘zaro uzviy bog‘langanlik haqidagi ilmiy-nazariy dunyoqarashlar hamda mamlakatimizning tabiiy boyliklari, ularning holati, kelajak istiqbollari, milliy, mintaqaviy va global miqyosdagi tabiat va jamiyat munosabatlari, tabiatni asrab-avaylash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish, ona zaminning boylik-laridan oqilona foydalanish haqidagi bilimlarni shakllantiradi.

Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish, hudud aholisi salomatligini muhofaza qilish, ularning turmush darajasini yanada yaxshilash, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik barqarorligini ta’minlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham harakat va uning deputatlar guruhi faollik ko‘rsatmoqda.

2018 yil 7-8 iyun kunlari “Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikdagi harakatlar: yangicha yondashuvlar, innovatsion echimlar va investitsiyalar” mavzuida xalqarokonferensiya o‘tkazildi va Toshkent rezolyusiyasi

qabul qilindi, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatini yaxshilashga yo‘naltirilgan loyihalar to‘plami ma’qullandi.

Oldimizda esa hali vazifalar ko‘p. Ekologik ta’lim-tarbiyani rivojlantirishga qaratilgan “Ekologik ta’lim konsepsiyasi”ning qabul qilinishi orqali chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni yanada kuchaytirishni nazarda tutuvchi “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi, suv zaxiralarini muhofaza qilish, suv iste’moli, suvlarning davlat hisobotini yuritish, suv xo‘jaligi inshootlariga zarar etkazganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslar mas’uliyatini oshirish.

Bundan tashqari, Orol muammosining salbiy ta’sirlarini bartaraf etish, hudud aholisining yashash sharoitini yanada yaxshilash, bu boradagi mavjud kamchiliklarni xalqaro hamjamiyat va hamkor davlatlar moliyaviy ko‘magini jalb etgan holda hal etish istiqboldagi faoliyatimizda muhim yo‘nalishlar hisoblanadi.

Xulosa.

O‘quvchilarga har qanday ishni sifatli bajarishning ahamiyati va u mas’ul bo‘lgan masalada vakolatning ahamiyati, tabiatga, resurslarga, odamlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishning asosiy prinsipi sifatida etkazish.

Ijtimoiy ahamiyatga ega (ekologik) faoliyatda ishtirok etish quvonchini his qilish imkoniyatini berish (iste’mol qilishdan ko‘ra, orqaga qaytish quvonchi) O‘quvchilarda ekologik kompitensiya va kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish, aniq maqsadlarga erishish uchun jamoada ishlash, qishloq bolalarining dunyoqarashini kengaytirish, ularning ijtimoiy faolligini oshirish.

Ko‘rinib turibdiki, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda muximdir. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan bor bilim va mahoratimizni ishga solishni, yanayam aniqroq aytadigan bo‘lsak, Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida yonib yashashni talab etadi. Ana shunda xalqimizning bizga bildirgan ishonchini ma’lum darajada oqlagan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 30.10.2019 yildagi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5863-son Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi 434-son “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi”

3. N. D. Andreeva Teoriya i metodika obucheniya ekologii: uchebnik dlya aka-demicheskogo bakalavriata. / N.D. Andreeva, V.P. Solomin, T.V. Vasileva. – Re-jim dostupa: www.biblio-online.ru/book/F28FD397-56DE-4853-B921-09BB6CB171DD

4. Etnopedagogicheskie osnovы ekologicheskoy kulturы, uchebnoe posobie dlya vыsshix uchebnыx zavedeniy. http://libweb.ksu.ru/ebooks /02 IEG/02 128 A5m000535128.pdf.

5. Maksimova, I. M. Ekologicheskoe vospitanie studentov pedagogicheskix vuzov na osnove sistemno-deyatelnostnogo podxoda Tekst. : dis.. kand. ped. nauk : 13.00.01 / Maksimova Inna Mixaylovna. Kazan, 2000.

6. B. N. Mirkin Populyarniy ekologicheskiy slovar Tekst. / B. N. Mirkin, JI. G. Naumov; pod red. A. M. Gilyarova. M. : Ustoychiviy mir, 1999

7. Uzbekskaya model obrazovaniya – zalog dostijeniya seley ustoychivogo razvitiya. [Elektronnыy resurs]. – Rejim dostupa: http://www.uzbekistan.de/ru/nachrichten/nachrichten (data obrasheniya 05.03.2018).

8. Ekologicheskoe obrazovanie i vospitanie. Obrazovanie v selyax ustoychivogo razvitiya. [Elektronniy resurs]. – Rejim dostupa: http://uznature.uz/node/680 (data obrasheniya 20.02.2018).

O‘RTA ASRLARDA MADRASALAR FAOLIYATI VA ULARDA O‘QITILGAN FANLAR

Muxammadali Qahramon o‘g‘li Nabiyev
Qo‘qon shahar Madrasai Mir Katta ilmiy hodimi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295075

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘rta asrlarda faoliyat ko‘rsatgan madrasalar, ularning turlari va ularda o‘qitilgan fanlar haqida atroflicha ma’lumotlar beriladi. Shu bilan birga Amir Temur va Temuriylar davrida barpo etilgan madrasalar, mudarris, tolibi ilmlarning o‘qish jarayoni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Madrasa, Samarqand, Buxoro, G‘ijduvon, Mirzo Ulug‘bek, adno, avsat, a’lo, vaqf.

Kirish.

Madrasalarning ma’naviyatdagi ahamiyatini, odamlarning bu o‘quv dargohiga bo‘lgan munosabatini ushbu to‘rtlikdan oshirib ochib beradigan ta’rif bo‘lmasa kerak. “Madrasa” atamasi ham arab tilidan kelib chiqqan bo‘lib, uning o‘zak qismi “darasa” – o‘rganmoq, o‘qimoq, dars olmoq degan ma’noni anglatadi, binobarin madrasa – o‘qish joyi, ilm o‘rganish joyi deganidir. Madrasa musulmonlarning o‘rta va oliy o‘quv yurtidir. O‘tmishda madrasalarimizda ulamolar, maktabdorlar, davlat xizmatchilari, xattotlar tayyorlangan. Hozir Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan madrasalarda esa diniy xizmatchilar tayyorlanadi. Islomning ilk davrida, VII-IX asrlarda Islom dini ulamolari masjidlarida va boshqa jamoat joylarida musulmonlarga ilohiyot masalalarini sharhlab berib turganlar. Din taraqqiy etgan sari ilohiyot masalalarini odamlarga o‘rgatadigan, ilohiyotchilarni tayyorlashga xizmat qiladigan alohida o‘quv muassasiga ehtiyoj tug‘iladi va shu tariqa madrasalar paydo bo‘la boshladi. Birinchi rasmiy madrasa XI asrning ikkinchi yarmida Bag‘dodda Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulk tomonidan, Markaziy Osiyoda esa huddi shu davrda Qoraxoniylar hukmdori Tamg‘och Bug‘roxon Ibrohim tomonlaridan Samarqandda qurdirilgan.

Asosiy qism.

Madrasalar, shuningdek, yo‘nalishi bo‘yicha ikki xil bo‘lgan:

1. Umumiy diniy ta‘lim madrasalari.
2. Maxsus ta’lim madrasalari.

Bularda Islom dinining alohida bir jihatlarini kengaytirilgan dastur asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Daloyilxona shular jumlasiga kiradi. Bu o‘quv muassasida ilohiyot, falsafa, islom qoidalarining inkor etib bo‘lmas dalillari o‘qitiladi, shuningdek “Daloil ul-hayrot” (Yaxshi amallarga hujjat) kitobi asosida Muhammad

Mustafo (sollallohu alayhi va sallam) ga atab o‘qiladigan salavotlar, mavludxonlik o‘rgatiladi. Madrasa muassislari madrasani ta’minlash uchun maxsus mulk – vaqflar ajratganlar va bu mulkni boshqaruvchi mutavvalini tayinlaganlar. Madrasaga maktabni bitirgan, xat-savodli yoshlar qabul qilingan. Talabalar yoshi 12 yoshdan 40 yoshgacha bo‘lgan. Tolibi ilmlar kunduzgi va sirtqi bo‘limlarga bo‘lingan. Kunduzgi bo‘limda yotoqxonaga haqdor bo‘lgan, hujrada yotib o‘qiydigan talabalar va uyidan qatnab o‘qiydigan talabalar; sirtqi bo‘limda esa, turli kasb-kor bilan shug‘ullanadigan, mudarris bilan kelishilgan vaqtlarda kelib tahsil olib ketadigan kishilar o‘qiganlar. Madrasa talabalarining katta qismi hujralarda istiqomat qilganlar. Hujra uchun tag-joy (ijara puli) olinmagan. Ba’zi hujralar madrasa tolibi ilmidan bo‘lmagan kishilar – ijodkorlar, allomalar, xattotlarga ijaraga berilgan yoki muassasa ixtiyori bilan ijara haqisiz berilgan. Bitta hujrada ikkitadan to‘rttagacha tolibi ilm istiqomat qilgan. Hujra sathiga g‘isht yotqizilgan, bir burchakka obrez qilingan. O‘choq ham obrez yaqiniga qurilgan. Ba’zi hujralarga odam bo‘yidan balandroq qilib “soxta shift” yoki “sartokcha” deb ataladigan, shiftga o‘xshash qurilma qurilgan. Mazkur sartokcha omborcha vazifasini o‘tagan va uning ustida ortiqcha ko‘rpa-to‘shak, uy-ro‘zg‘or buyumlari, oziq-ovqat zaxiralari saqlangan. Sartokcha ustidagi harorat yer sathidagi haroratdan yuqoriroq bo‘lgani uchun ba’zan, qish paytlarida tolibi ilmlar uning ustiga joy to‘shab ham yotganlar.

Mashg‘ulotlar, asosan, sentyabr oyidan mart oyigacha davom etgan, hamda yilning qaysi faslida kelishidan qat’iy nazar Ramazon oyida dam berilgan. Vaqf mulklaridan keladigan daromad hisobidan talabalarga nafaqa berilsa-da, tabiiyki, kifoya qilmagan. Shu boisdan, tolibi ilamlarning bir qismi ta’til oylarida ishlashgan. Haftaning dushanba, seshanba, shanba, yakshanba kunlari tahsil kunlari hisoblangan. Chorshanba va payshanba kuni o‘tilgan darslar takrorlangan va mustahkamlangan. Juma esa dam olish kuni hisoblangan. Darslar bomdod namozidan keyin boshlangan, o‘rtada nonushta qilinib, peshin namozigacha, tushlikdan so‘ng asr namozi paytigacha davom ettirilgan. Madrasada o‘quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilgan va keyinchalik takomillashib borgan. Ta’lim 3 bosqichda: boshlang‘ich (adno), o‘rta (avsat) va yuqori (a’lo) guruhlarida olib borilgan. Adno bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qish boshlanguncha davom etgan, avsat bosqichi “Aqoid” kitobini o‘qishdan boshlab, “Sharhi mullo” kitobini o‘rganguncha davom etgan, undan keyingi kitoblar a’lo bosqichida davom ettirilgan. Madrasalar talabalar iqtidoriga qarab, 7-12 yil davom etgan. Arab va fors tilidagi kitoblar talabalarga mudarrislar tomonidan sharhlab berilgan. Madrasa o‘quv kursi, odatda, “Avvali ilm” deb nomlangan fors tilidagi o‘quv qo‘llanmasini o‘zlashtirishdan boshlangan. Keyin arab tili grammatikasi arab tili morfologiyasi – “Sarf” va sintaksisi – “Nahv”, “Bidon”, “Qofiya” darsliklar asosida o‘qitilgan. Arab tili grammatikasi so‘ng o‘quv kursi ikki bo‘limga: umumta’lim kursi – “Mushkulot” va fiqh kursi “Masala”

bo‘limlariga ajratilgan. Madrasalarda fiqh kursining “Faroiz” – meros huquqi bilan birga matematika fani ham majburiy o‘quv kursiga kiritilgan. Madrasalarda talabalarning qiziqishlari va madrasalarning mavjudligiga qarab, falakiyot, handasa, tibbiyot, kimyo, jug‘rofiya, tarix, adabiyot, aruz ilmi, me’morchilik asoslari, xattotlik, ahloq, notiqlik kabi fanlar o‘qitilgan. Madrasa binolari musulmon olamida me’morchilik inshooti sifatida X-XI asrlarda vujudga kelgan. Ilk madrasalar bir qavatli, o‘rtasi hovli va uning atrofi hujralardan iborat bo‘lgan. Ba’zan gumbazli go‘rxona qurilib, unga madrasaga homiylik qilgan kishi dafn qilingan. XIV-XV asrlardan boshlab hashamatli madrasa binolarini qurish avj oldi. Ularning aksariyati ikki, ba’zan uch qavatli bo‘lib, odatda, katta va go‘zal peshtoqli, atrofi hujralar bilan o‘ralgan hovlisi, darsxona, kutubxona, masjidi bo‘lgan. Keyinroq katta madrasalar yoniga yoki hovlisiga minora qurish rasm bo‘lgan. Madrasa binolarining tashqi va ichki qismi turfa rang koshin va ganchkori bilan bezatilgan, Qur’ondan oyatlar va hadislar yozilgan.[1]

Amir Temur (1336-1405) – Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni birlashtirib, yagona markazlashgan davlatga asos soldi, uning davrida mamlakat har tomonlama rivojlandi. Ayniqsa, nabirasi Ulug‘bek (1409-1449) ilm-fanga har qachongidan ko‘proq e’tibor qaratadi. Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasi uch yil davomida (1417-1420) Registon maydoni kunbotar tominda barpo etilgan. Madrasa ikki qavatli, 54 ta hujradan iborat bo‘lgan, har bir hujra qaznoq (omborxona), yotoqxona va darsxonadan iborat bo‘lgan. Hujralarda jami 100-110 nafar tolibi ilmlar yashagan va tahsil olgan. Bino loyihasi Mirzo Ulug‘bek otasi Shohruh Mirzoning saroy me’mori Qavomiddin She’roziy bo‘lgan. Shamsiddin Muhammad Havofiy yetakchi mudarris bo‘lgan. Madrasa ochilgan kun birinchi darsni Shamsiddin Muhammad Havofiy o‘tgan. Unda 90 nafar tolibi ilmlar qatnashgan va uning ma’nosiga faqat Mirzon Ulug‘bek va Qozizoda Rumiy tushingan. Astronomiyadan darsni Qozizoda Rumiy o‘tgan. O‘qish 15-16 yil davom etgan va uni bitirganlarga – sanad (shahodotnoma) berilgan. Madrasa kirish peshtoqi ichki ravoq kitobasi tepa qismida kufiy xatida “Buyulik Allohga xos”, “Kuch-qudrat Allohnikidir” kalimalari yozilgan. Pastida suls xatida “Tavhid” kalimasi bitilgan.[2] Buxoro shahrida ham madrasa qurilgan bo‘lib, 1417-yilda ishga tushgan. Ulug‘bek Qurdirgan Z ko‘rinishidagi eng qadimiysi. Bosh tarzida mahobatli peshtoq, 2 qanotida 2 qavatli hujralar va burchaklarda guldastalar joylashgan. Guldastalar tepasi qubbali qilib ishlangan. Ravoqli peshtoqdan miyonsaroy orqali hovliga o‘tiladi. Hovli (26x25 m) atrofini 2 qavatli hujralar qatori va peshtoqli ayvon egallagan. Madrasa (53x41,6 m) uncha katta emas, hujralari mo‘jaz, o‘zaro mutanosib, ichki va tashqi tuzilishi o‘ziga xos. Eshik tabaqalariga arab

[1] Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy – Xo‘qandi Latif Manoqibi. – T:Movarounnahr.2018. 52-54 bb.
[2] Abdulahad Muhammadjonov – Temur va Temuriylar saltanati. – T:Qomuslar.1994. Toshkent. 115-116 bb.

tilida “Bilim olish har bir musulmon erkak va ayol uchun farzdir”, degan ibora o‘yib yozilgan.

G‘ijduvondagi madrasa 1432-33-yili pishiq g‘ishtdan ikki qavatli qilib qurilgan. Ikkinchi nomi “Fayziya”. Darsxona, masjid, kutubxona va 20 ta hujradan iborat bo‘lgan. Keyinchalik u vayron bo‘lgan va hozirgi ta’mirlangan holatida bir qavatli. Madrasa o‘z davrida tolibi ilmlar uchun oliy va o‘rta-maxsus bilim yurti hisoblangan.[3]

Madrasalarda tartib-intizomga alohida e’tibor berilgan. Nizomni buzgan talabaga 3 marta ogohlantirish berilgan, agar yana qoidani buzsa madrasadan haydalgan. Madrasaning ichki hayotiga oid masalalar mutavvali, mudarrislardan iborat hay’at kengashi hal qilgan. Madrasaning moliyaviy masalasi vaqf mulklaridan qoplangan, Alisher Navoiyning “Ixlosiya” madrasasi vaqf maoshi quyidagicha taqsimlangan:

- sadr mutavvaliga ajratilgan yillik 3 ming tilla va ovqatlig‘ uchun 30 yuk g‘alla.
- har bir mudarrisga yiliga 1200 tilla va 24 yuk bug‘doy yoki arpa.

Talabalarga to‘lanadigan nafaqa:

- a’loga 24 tilla va 5 yuk miqdorida don.
- avsatga 16 tilla va 4 yuk miqdorida g‘alla.
- adnoga 3 yuk miqdorida don. [4]

Xulosa.

Shuni aytib o‘tish lozimki, islom olamida madrasalarning islom madaniyatida tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyos. Zaminimizdan yetishib chiqqan ko‘plab buyul allomalat aynan madrasalarda ilm olishgan. Madrasalarda o‘qigan talabalar faqat o‘qish jarayoni bilangina cheklanib qolmasdan, bo‘sh vaqtlarida esa hunar bilan ham shug‘ullanganlar. Amir Temur va Temuriylar davrida, jumladan Mirzo Ulug‘bek sa’yi-harakatlari tufayli madrasalar faoliyati yangi bosqichga chiqdi, tolibi ilmlarning ahvoli yaxshilandi. Bu esa yangi iste’dodlarning o‘sib chiqishiga zamin yaratdi. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Xonadamir shular jumlasidandir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Muhammad Yahyoxon Xo‘qandiy – Xo‘qandi Latif Manoqibi. – T:Movarounnahr.2018

2. Abdulahad Muhammadjonov – Temur va Temuriylar saltanati. – T:Qomuslar.1994.

3. www.wikipedia.uz.

4. I Jabborov. – Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. – T: O‘zbekiston 1999.

[3] www.wikipedia.uz – sayti ma’lumotlari asosida.

[4] I Jabborov. – Antik madaniyat va ma’naviyat xazinasi. – T: O‘zbekiston 1999. 201-203 bb.

ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARIDA AYOLLAR RUHIY OLAMI TASVIRI

Lobar Rajabboyeva
Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi 19-son maktabi
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295095

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asr adabiyotining taniqli vakilasi Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalaridagi ayollarning ruhiy olami tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: ruhiyat, motiv, detal obrazlar, badiiy-estetik kompozitsiya, qahramon.

XX asr oxiri va XXI asr boshida o‘ziga xos yo‘nalishda qalam tebratayotgan adibalardan biri Zulfiya Qurolboy qizidir. Yozuvchining asarlari yangicha talqin va mazmunda bo‘lganligi uchun ko‘plab adabiyotshunos va tanqidchilar adiba haqida fikr-mulohazalar bildiradilar. Xususan, taniqli munaqqid Umarali Normatov “Qalbdagi benazir ziyo” maqolasida adibaning roman va hikoyalarini tahlil qiladi. Qozoqboy Yo‘ldoshev o‘zining “Kichik janrdagi katta yutuqlar” maqolasida[5] Zulfiya Qurolboy qizi asarlari haqida fikr bildiradi. Saodat Komilovaning “Ko‘ngil mayllari nag‘malari” maqolasida, adabiyotshunos A.Eshqobilovning Zulfiya Qurolboy qiziga bitilgan “Hikoyangizni o‘qib” nomli ochiq xatida muallif asarlari talqin va tahlil qilinadi. Adiba o‘z asarlarida hayot ma’nosi, umr mazmuni, insonlarning o‘y-kechinmalari xususida mulohaza yuritadi. Ijodkor inson obrazini yaratar ekan, tasavvur va badiiy tavsif uchun unga turli tomondan razm soladi. Xususan, yozuvchini insondagi hamma narsa –uning tashqi va ichki dunyosi, odat va fikrlari, yashash va xizmat joyi, atrofidagi odamlar va tabiat olami bilan o‘zaro munosabatlari – barcha-barchasi qiziqtiradi. Adiba ijodida, ayniqsa, ayol obrazini tasvirlashda ayricha munosabat ko‘zga tashlanadi. Ayollarga xos bo‘lgan sadoqat, muhabbat, nafrat, rashk, makr sodda, ammo jonli va samimiy tarzda tasvirlanadi. Uning “Ayol”, “Kelin”, “Rashk”, “Momo Havo” kabi hikoyalarida turli tip va xarakterdagi ayollarning kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari tasvirlanadi.

“Ayol” hikoyasi A.Qahhorning “Ming bir jon” asariga hamohangroq. Har ikkala asarda ham bemor ayollar hayot uchun, yashash uchun, oilasi uchun tirik qolishga harakat qiladi. Buning uchun ular jismonan va ruhan kurashadilar. Adabiyotshunos A.Eshqobilovning Zulfiya Qurolboy qiziga yozgan “Hikoyangizni o‘qib” noml ochiq xatida munaqqid “Ayol” hikoyasi haqida quyidagicha fikr-mulohazalarni bildiradi:

[5]. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – Tosh.,Yangi asr avlodi. 2006. – B.130-131.

“Sizning “Ayol” hikoyangiz neoromantizm usulida yaratilgan. Ehtimol, kimdir bu fikrga qo‘shilmas, biroq asarda chindan realizmdan ko‘ra ko‘proq romantizm ruhi ustunlik qiladi. Bosh qahramonning hayotda shunday bo‘lishi mumkinligi ehtimoldan ko‘ra, muallif uni shu taxlit harakat qilishini ko‘proq xohlaydi. Bu esa romantizmning birinchi alomatidir. Aynan muallifning tasvirlanayotgan voqelikka bo‘lgan munosabati uning badiiy metodini aniqlashda asosiy kalitdir… Og‘ir xasta, umrining so‘nggi kunlari, soatlarini yashayotgan Nazokat bu hayotni Ayol sifatida tark etishni istaydi, ya’ni u umrining so‘nggi damlarida, o‘ta “xunuklashgan” onlarda, dastlab hamshiradan eri Shavkatni oldiga kirgizmaslikni so‘raydi, keyin so‘nggi pullarini unga tutqazib bunga erishadi ham, oxirida esa vrachdan oyoqlari va butun a’zoyi badanini shishirib kelayotgan suyuqlikni olib tashlashni iltimos qiladi. Yoshi ulug‘, hayotda ko‘p narsa ko‘rgan va anglab ulgurgan vrach bemorning holatini yaxshi bilib, ko‘rib turadi va shu sababli unga “bu muolajalar qilinganligini, endigisi faqat juda qattiq og‘riq berishi” mumkinligini aytadi. Bu bilan vrach o‘lim ostonasida turgan inson joniga ortiqcha ozor berishini istamaydi. Lekin Ayol umrining oxirgi daqiqalarini o‘z hayotiy falsafasiga monand yashaydi, qanday bo‘lmasin oxirgi nafasigacha o‘z qiyofasi, tashqi surati go‘zalligini saqlab qolishni xohlaydi va bunga erishadi. Tanlangan mavzuga bunday qiziqarli tus berilishi asarning badiiy-estetik qiymatini belgilaydi. Nazokatning bu tutgan yo‘li - badiiy “yo‘l” – sujet dinamikasi, diqqatimizni tortdi va muallifning katta iste’dod sohibasi ekanligiga e’tiborimizni qaratadi”.[6]

Asar mavzusi yangiligi va unda mahorat bilan qo‘llangan detallar, motivlar talaygina va o‘zgacha; ifoda uslubidan yuksak nozikta’b did va badiiy-estetik layoqat ufurib turadi.

“Ayol” hikoyasining kompozitsiyasida ikki motiv muhim badiiy-estetik va funksional-kompozitsion vazifa bajaradi; bular quyosh va uzuk motivlaridir. Hikoya ekspozitsiyasi “Derazalari oppoq xona. Deraza oynasidan to‘kilayotgan nur ayolning yuzida jilva qiladi, va… barmoqlaridagi uzukning olmos ko‘zchalarida aks etdi”[7] kabi jumlalardan boshlanib, uning hayotida hali intiho emasligini, hali ayol ko‘zlarini yumib, quyosh nurlarini simirishi” va “Seni qanchalik yaxshi ko‘raman, quyosh!..” deya olishi kabi holatlarni kuzatamiz. Quyosh esa go‘yo bunga javoban “nurlarini mo‘l-ko‘l to‘kdi. Ayol oftob nurlariga butkul g‘arq bo‘ldi…”Bu yerda muallif so‘zni asar mavzusi va badiiy mantig‘iga mos ravishda mahorat bilan ishlatadi. Ayolning hokisorligi, beminnatligi-yu betamaligi quyoshga mengzalyapti. Quyosh nuri poklik, yorug‘lik timsolidir. Zulfiya Qurolboy qizi esa shu timsol va uning in’ikosi o‘rtasidagi uzviylikni tasvirlashni maqsad qilgan. “Deraza oynasidan to‘kilayotgan oppoq nur uzukning olmos ko‘zchalarida aks etdi. Ayol ko‘zlarini ochdi. Shula endi

[6]. Eshqobilov A. Hikoyangizni o'qib// “Yoshlik” jurnali, 2014-yil, 11-son.
[7]. Z.Qurolboy qizi. “Ayol” hikoyalar to‘plami. – Tosh.,G‘.G‘.nom.nash. 2019. – B.3.

uning qorachiqlarida akslandi.” Aytilgandek, ushbu tasvirdan boshlangan asar tezisi aynan yechimda uning antitezasi bilan yakun topadi. Sujet dinamikasidagi quyosh motivining qo‘llanilishida muallif mahoratini ko‘rishimiz mumkin. Chunki ekspozitsiyada keltirilgan oftob badiiy qahramonning Ayolligida, ya’ni uning mohiyatan ulug‘vorligidan darak beruvchi qiyos, timsol sifatida tasvirlansa, adabiyotning mumtoz nazariyasiga muvofiq matnning keying tadrijida quyosh - tabiat qahramonning holatiga, tabiatiga uyg‘un holatda tus oladi, o‘zgarib turadi va oqibatda xarakter ochilishiga va g‘oya ifodasiga xizmat qiladi.

Adibaning “Kelin” va “Rashk” hikoyalari mavzu va qahramonlar ruhiyati nuqtayi nazaridan bir-biriga o‘xshab ketadi. Asar qahramonlari Xoldor va Xosiyat, ularning umr yo‘ldoshlari Fayzimurod va Sherali oilasiga xiyonat qiladi. Bu ikki ayol xiyonatni turlicha qabul qilishadi. “Kelin” dagi Xoldor erining haftalab uyga kelmasligini, cho‘ntagidan begona uy manzili chiqqanini ko‘rib-bilib ham “miq” etmay yuraveradigan, sodda, mehnatkash, kamsuqum, to‘pori juvon hamma narsani faqat qaynona-qaynotasiga xizmat qilish, 4 bolasiga qarash deb tushunadi. Balkim, muallif Xoldor obrazi orqali o‘zbek ayollariga xos bo‘lgan sadoqat, mehr, fidokorlik tushunchalarini hikoya qahramoniga singdirgan holda ko‘rsatayotgandir, lekin ayol har qanday holatda ham ayollini unutmasligi kerak. Bu o‘rinda “Ayol” hikoyasidagi Nazokatni Xoldorga namuna qilamiz. Nazokat og‘ir xastalikda ham ayolligini unutgisi, eriga “xunuk” ko‘ringisi kelmaydi. Xoldor esa vaqti yo‘qligi va hafsalasizligi uchun buni qilmaydi. Xoldor o‘zini oilasi uchun qurbon qiladi, lekin baribir eri Fayzimurod ham, uning ota-onasi Tursunboy chol va Muslim momo ham Oygulni Xoldorga solishtirib, begona ayolni o‘z kelinlaridan ma’qulroq ko‘rishadi. Bu esa Xoldorning ruhiy jihatdan toptalishiga sabab bo‘ladi.

“Rashk” hikoyasidagi Xosiyat ham haqiqiy o‘zbek ayoli. Uyi, oilasi, bolalari uchun ertadan kechgacha tinim bilmay xizmat qiladi. Yoshligidan suluv bo‘lgan ayol o‘zini unutib qo‘yadi va natijada eri unga xiyonat qiladi. Erining o‘ziga qaramasligi haqidagi tanqidlari dastlab ayolni sergaklantirmaydi, shubhalantirmaydi. Hamma narsani boricha qabul qilib yuraveradi. Bu loqaydlik esa xiyonat yuz berishiga sabab bo‘ladi. Jafokash, mehnatsevar, sadoqatli ayolidan erini “shantaj” qilib muzqaymoqxona ochtirgan ayolning Sherali tomonidan tanlanishi va u bilan ketib qolishi Xosiyatga qattiq ta’sir qiladi. Xosiyat Xoldordan farqli tarzda bundan eziladi, yig‘laydi, o‘zining begona ayol tomonidan “to‘pori” deb oyoqosti qilinishini hazm qilolmaydi. Qalbi alam va nafratga to‘lgan ayol hovlidagi qopag‘on itni qo‘yib yuboradi: “Jazavaga tushib hurayotgan it “oshiq-ma’shuqlar” tomon yugurib ketdi. Bir lahza o‘tar-o‘tmas ayol kishining jon holatda qichqirgani eshitildi”[8].

Asarda it detali ham yozuvchi tomonidan mohirlik bilan qo‘llanilgan, ayol ichidagi alamini itni “bexosdan” yechib yuborishi bilan bosmoqchi, shu bilan

[8]. Z.Qurolboy qizi. “Ayol” hikoyalar to‘plami. – Tosh.,G‘.G‘.nom.nash. 2019. – B.292.

noroziligini bildirmoqchi bo‘ladi. Demak, Xosiyat eri, oilasi uchun kurashmoqda. Ikki ayol ham bir xil vaziyatda, lekin ularning bunga munosabatlari va o‘zini tutishlari turlicha.

Xoldor sodda, oilasidagilarning unga nisbatan qilgan ishlari nafsoniyatiga tegmaydi, eri xiyonatini bilsa ham taqdiriga ko‘nib yashab ketaveradi.

Xosiyat esa o‘zligini anglagan, tanqidlarni to‘g‘ri qabul qiladigan, g‘ururi poymol etilishiga, aldanishiga yo‘l qo‘ymaydigan ayol. Muallif bu ikki obrazni tasvirlash orqali kim haq-u kim nohaq ekanligini o‘ylashni yana kitobxonga havola etadi.

Ijodkorning yana bir hikoyasi “Momo Havo” bo‘lib, bu asardagi Nafosat obrazi yuqoridagi qahramonlarimizdan farq qiladi. Asarda Nafosat o‘z makr-hiylasini, yovuzligini mohirlik bilan niqoblaydi. Asarda Akbar o‘z mahbubasiga “Momo Havoyim” deb murojaat qiladi. U Akbarning fojiasidan o‘z manfaati yo‘lida foydalanadi. Mol-dunyoga bo‘lgan hirs, Akbar uyiga egalik qilish uni shu darajada tubanlashtiradiki, bu uni Akbarni zaharlab o‘ldirish, nogiron qizidan esa o‘z maqsadi yo‘lida foydalanishga undaydi. Asar boshida farishta misol ko‘ringan, Akbarni yashashga ruhlantirgan “munis” ayolni hikoya so‘nggida barcha yovuzliklarni o‘zida mujassam etgan yovuzlik timsoli sifatida ko‘ramiz: “Nafosat jilmaydi. Lekin bu tabassum sira avvalgisiga o‘xshamasdi. Ayol nigohlarida o‘zgarish yuz bergan, yuziga o‘ta mohirlik bilan yopishtirilgan samimiyat o‘pirilib tushgan edi”[9]…

Mana shu so‘nggi satrlardanoq adiba Nafosatning jirkanch yuzini ochib tashlaydi. Asardagi bu ayolning Akbar va uning hayotiga ta’siri orqali yozuvchi ayolning ichki psixologizmini va portretini tasvirlaydi.

Zulfiya Qurolboy qizi hikoyalaridagi portret, peyzaj, interyerlar asar g‘oyasini ochishga xizmat qiladi. “Rashk” va “Kelin” hikoyalaridagi atir-upa va tappi, “Momo Havo” dagi uy detali, “Rashk” da yana it detali, “Ayol” dagi uzuk va quyosh motivining qo‘llanilishi qahramonlarning ichki olamini, ruhiyatini ochishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – Tosh.,Yangi asr avlodi. 2006. – B.130-131.
2. Z.Qurolboy qizi. “Ayol” hikoyalar to‘plami. – Toshkent. 2019.
3. Eshqobilov A. Hikoyangizni o'qib// “Yoshlik” jurnali, 2014-yil, 11-son.

[9]. Z.Qurolboy qizi. “Ayol” hikoyalar to‘plami. – Tosh.,G‘.G‘.nom.nash. 2019. – B.229.

HUQUQ FANINI O‘QITISHDA ILMIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Zarina Po‘latova
Nurota tumani 6-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295105

Annotatsiya: Yurtimizda amalga oshirilgan islohotlar tufayli barcha, jumladan, ijtimoiy - iqtisodiy sohalarda, shuningdek, ta'lim tizimida ham keskin o'zgarishlar yuz bermoqda. Ozbekistonda ilm-fan. texnika va texnologiyasining so'nggi yutuqlariga asoslangan mukammal ta'lim tizimini barpo etish dolzarb ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Huquqiy ong va madaniyat, demokratiya, fuqarolik jamiyati, Avesto, madaniy boyliklar, Qur’onu Karim

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019 yil 9 yanvarda “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qaroriga ko‘ra, bugungi kunda ta lim tizimida huquq fanini tegishli darajada tashkil qilinishi, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda, mashgulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyalariga tayangan holda, o‘t kazilishi lozimligi, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlanishi zarurligidan kelib chiqib, huquq fanlarini maqsadli, samarali va kafolatlangan natijali oqitish davr talabidir. Sharqda taraqqiy etgan qarashlar to‘g‘risidagi huquqiy ilmiy ta’limotlarni o‘rganishda falsafa, huquqshunoslik, sharqshunoslik, tarix, filologiya, pedagogika sohasida ish olib borgan H.Boboev, A.Jo‘zjoniy, V.Zohidov, A.Zunnunov, M.Inomova, Z.Muqimov, S.Nishonova, A.Saidov, H.Samatova, M.Xayrullaev, O.Eshonov, SH.O‘razaev, K.Hoshimov kabi olimlar alohida o‘rin egallaydilar..

Birinchi davr – huquqiy ta’limning qadimgi davri – davlat va huquq paydo bo‘lishidan to islom huquqi o‘rnatilguniga qadar (mil.av. VI-V asrdan milodning VII asrigacha) bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Ushbu davrda zardushtiylikning muqaddas kitobi – “Avesto”, shuningdek, odat huquqi, So‘g‘d huquqi kabi manbalarda bayon etilgan ta’lim-tarbiyada qo‘llanilgan usul va vositalar natijasida bolalar ona zamin va uning tabiati, tabiat hodisalari, odamlarning kundalik hayot tarzi, hayvonot va jonsiz olam haqida tasavvurga ega bo‘lgan. Ularning nazarida tashqi dunyo kengayib borayotgandek bo‘lib, fikrlash qobiliyati va tafakkurlari rivojlanib bordi. Masalan, zardushtiylik ta’limotining “Avesto” kitobida inson hayoti va odamlarning ijtimoiy-huquqiy munosabatlari ma’lum qonun-qoidalarga asoslangani haqida ma’lumotlar mavjud. Unda yer, suv, havo muqaddas deb e’lon qilinib, ularni asrash barcha narsadan ustun bo‘lgan. Atrof muhitni iflos qilgan va uni asrash qoidalarini buzganlar

jazolanib, huquqiy ta’lim-tarbiyaga asos solingan. Oila va jamoada berilgan so‘zdan yoki qasamdan voz kechish, odamlar o‘rtasida tuzilgan ahdnomani buzish katta gunoh hisoblangan. “Avesto”da ko‘p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan. Shuningdek, “Avesto”da “yaxshilik ta’limini va sadoqatni amalga oshirib..., yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinlar”, deb ta’kidlangan. Zardushtlik ta’limotida 15 yosh balog‘at yoshi sanalgan. 15 yoshga yetganlarga Zardusht qonunlari, axloqiy va ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal yo‘riqlari o‘rgatilib, ular adolatlilik, halollik ruhida tarbiyalanganlar.

Ikkinchi davr – islom huquqi o‘rnatilganidan to Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinguniga qadar (milodning VII asridan XIX oxirlarigacha) bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyoga islom kirib kelishi bilan bu an’anaviy sifatlar mustahkamlanib, boyitilgan. Islomning asosiy manbai bo‘lmish “Qur’oni Karim” da axloq-odob, kishilarning tengligi, birodarligi, jamiyatga xizmat qilish, ota-onaga hurmat kabi masalalar ravshan aks ettirilgan. Islomning ikkinchi muqaddas manbai-“Sunna” (payg‘ambarning so‘zlari, amallari va tasdiqlari)da insonning ma’naviy kamolot mezoni, dunyoqarashining kengligi, bilimlarni qay darajada egallanganligi ko‘rsatilgan. Shaxs bo‘lib yetishishda muhim omil – bilim egallash, deb qayd etilgan. Islom ta’limotida birovning haqiga hiyonat qilish, halol mehnat bilan topgan molini, mablag‘ini zo‘rlik va aldov yo‘li bilan olish, o‘g‘rilik qilish – og‘ir gunoh, qabih odat, deb ta’kidlangan. SHuning uchun ham huquqiy ta’lim berishda Qur’oni Karim, hadis va boshqa manbalardagi ko‘rsatmalardan foydalanish, ularni hozirgi zamon talablariga bog‘lash zarur. Masalan, “Moida” surasidagi 3-oyatda: “Ey mo‘minlar, Ollohning o‘zi uchun haq yo‘lni tutuvchi, adolat bilan shahodat - guvohlik berguvchi bo‘lingiz. Biron qavmni yomon ko‘rishingiz sizlarni adolat qilmaslikka tortmasin!...” – deb, buyuriladi. Demak, shaxsiy adovat orqali adolatsizlikka yo‘l qo‘ymaslik ta’kidlangan. Shuningdek, “Niso” surasida mulk huquqi, meros huquqi, omonat, to‘g‘ri guvohlik berish xususida, “Baqara” surasida esa ayollik huquqlari, qarz berish to‘g‘risida huquqiy ta’limotlar berilgan. Hadislarda ham ilm haqida, bilim olish haqida hikmatlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). «Xalq so‘zi» gazetasining 2016-yil 15-sentyabrdagi 182 (6617)-soni.

2. Mirziyoyev Sh.M. ―Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz mavzusidagi O‘zbekiston

Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: — O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. —Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – T.: —O‘zbekiston, 2017.

NOTARIUSLAR FAOLIYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR

Dostonbek Rustamovich Naimov
Buxoro viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295110

Annotatsiya: Maqolada sud-huquq sohasidagi islohotlar, notarius faoliyatini litsenziyalash, notariusni hisobga qo‘yish va uni hisobdan chiqarish, notarial tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to’g’risidagi islohotlar aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Notarius, notarial harakatlar, xususiy notariuslar, notarial palatasi.

Annotation: The article reflects reforms in the field of judicial law, licensing of notary activities, registration and deregistration of notaries, measures to fundamentally reform the notary system.

Key words: Notary, notarial acts, private notaries, notary chamber.

Аннотация: В статье отражены реформы в области судебного права, лицензирования нотариальной деятельности, регистрации и снятия с учета нотариусов, меры по коренному реформированию нотариальной системы.

Ключевые слова: Нотариус, нотариальные действия, частные нотариусы, нотариальная палата.

Mamlakatimizda «Inson manfaatlari barcha narsadan ustun» degan ulug’vor g’oya hayotdan mustahkam o’rin egallab, xalqimizning qonunlarga, sud-huquq sohasidagi islohotlarga hurmatini oshirmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yil 9 sentyabrda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasida notarial tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to’g’risida»gi farmoniga ko’ra, mazkur yil boshidan boshlab bosqichma-bosqich xususiy notariuslar tashkil etish hamda barcha notariuslar shu davrdan tashkil etiladigan O’zbekiston Respublikasining Notarial palatasiga a’zo bo’lishi ham kutilmagan yangiliklardan bo’ldi.

Eng katta yangilik mazkur sohada mol-mulklar bilan bog’liq bitimlarni tasdiqlashda bir qator talablar bekor qilinganidir.

Jumladan, mazkur yilning 1 yanvaridan e’tiboran qurilishi tugallanmagan uy-joylarni sotishda hokimliklarning ruxsati, vasiylikdagi shaxs nomidan turar joyni ijaraga (arendaga) berishda vasiylik va homiylik organining roziligi talab etilmasligining o’zi ortiqcha sarsonlikni bartaraf etdi. Ikkinchi qulaylik bu mazkur farmon bilan 2019 yil 1 oktyabridan buyon yaqin qarindoshlar o’rtasida notarial tasdiqlangan avtoishonchnomaning bekor qilinganidir.

2020 yil 1 yanvardan boshlab korxonani ijaraga, tekin foydalanishga berish, birlamchi bozorda mol-mulkni lizingga berish va garov (ipoteka) shartnomalarini majburiy notarial tasdiqlash tartibi bekor qilinishi jismoniy va yuridik shaxslar uchun yaratilgan qulayliklardan biri bo’ldi.

Endi sun’iy navbatlarni oldini olishda elektron notarial, xususiy notarial institutlarining ham o’rni beqiyos ekanligini pandemiyaga qarshi kurash karantin davri ham isbotlamoqda.

Respublika hududida notarial tasdiqlangan arizalar, ijara shartnomalari va ishonchnomalar notariusga taqdim etilmasdan turib, ularni noyob raqam orqali tekshirish mumkinligining o’zi ham yangilikdir.

Sarson-sargardonlikning oldini olishda esa, notariusga murojaat etishda elektron navbat olish va hujjatlarni oldindan tayyorlab qo’yish xizmati joriy etilgani ham yutuqdir.

Mana, yurtimizda yana xususiy notariuslar faoliyati yo’lga qo’yildi. Bunda Prezidentimiz tomonidan 2020 yil 14 yanvar kuni «Notariat tizimi tubdan isloh qilinishi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritish to’g’risida»gi Qonun huquqiy asos bo’ldi. Qonun bilan O’zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, «Garov to’g’risida»gi, «Notariat to’g’risida»gi, «Lizing to’g’risida»gi, «Amalga oshirilishi uchun litsenziyalar talab qilinadigan faoliyat turlarining ro’yxati to’g’risida»gi va boshqa qonunlariga o’zgartish va qo’shimchalar kiritildi. Ayniqsa, ular orasida «Notariat to’g’risida»gi Qonunga kiritilgan o’zgartish va qo’shimchalar alohida e’tiborga sazovordir.

Jumladan, O’zbekiston Respublikasida notarial harakatlar qonun hujjatlariga muvofiq davlat notarial idoralari notariuslari bilan bir qatorda xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notariuslar tomonidan amalga oshirilishi ham belgilangani fuqarolarimiz uchun qulaylik yaratildi.

Mazkur Qonunga kiritilgan o’zgartirishlarga muvofiq, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, adliya organlarining ishi notarial faoliyati bilan bog’liq bo’lmagan boshqaruv xodimi yoki advokat sifatida kamida uch yil ishlagan shaxslar, agar ularning vakolatlari tugatilgan paytdan e’tiboran besh yil o’tmagan bo’lsa, olti oy muddat stajirovka o’tagan holda soddalashtirilgan tartibda notarius bo’lishi yoki notarius yordamchi va stajyordan tashqari notarial faoliyatni tashkil etish bilan bog’liq boshqa xodimlarga ega bo’lishi mumkinligi hamda notarius bo’lishning eng yuqori yosh chegarasi 65 yosh etib belgilab qo’yilgani ham notarius faoliyatining qonuniy mustahkamlanganligi notariuslar uchun muhim yangiliklardir.

Ayni paytda, fuqarolarimiz uchun xususiy notarial faoliyatni amalga oshirish litsenziyalanadigan faoliyat turi hisoblanadi.

Litsenziya Oliy malaka komissiyasining notariuslik vakolatlarini berish bo’yicha malaka imtihoni yakunlari yuzasidan chiqariladigan qaroriga asosan Qoraqalpog’iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari tomonidan O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda beriladi.

Eng asosiysi, endilikda notariuslar tomonidan quyidagi yangi notarial harakatlar — mediator vazifasini bajarish, dalillarni ta’minlash, mualliflik va turdosh huquq ob’ekti taqdim etilgan vaqtni tasdiqlash, elektron hujjatning qog’oz shaklidagi hujjat bilan bir xil yuridik kuchga ega ekanini tasdiqlash kabi harakatlarining amalga oshirilishi fuqarolar va ayniqsa, iqtisodimizni rivojlantirishda muhim hissa qo’shayotgan tadbirkorlarimizga qulaylik yaratilgan imkoniyatdir.

Xulosa qilib aytganda, xususiy amaliyot bilan shug’ullanuvchi notariuslar faoliyatining huquqiy asoslari yaratilgani va berilgan imkoniyat mamlakatimiz notarial tizimining yangiligi va o’ziga xos jihatlarini namoyon etmoqda.

Shuningdek, yangi O’zbekistonda barcha soha o’zgarmoqda,yangilanmoqda, shu bilan birga notarial institutini takomillashtirishdagi yangi islohotlar ham xalq manfaatiga xizmat qilayotgani xususiy notariuslarning ham muhimligini tasdiqlamoqda. Darhaqiqat, davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek: «o’zimizni ayamasdan oldinga intilsak, albatta, hayotimiz va jamiyatimiz o’zgaradi».

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida notariat tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 9-sentabrdagi PF-5816-son Farmoni

2. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 14.01.2020 yildagi O‘RQ-602-son

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 16.03.2020 yildagi 156-son

TASVIRIY SAN’AT FANIDA O‘YINLARNING AHAMIYATI

Farida Shavkatulloyevna Zayniyeva
Buxoro viloyati Vobkent tumani 3-umumta’lim maktabi tasviriy san’at va Chizmachilik fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295116

Annotatsiya: Maqolada bolalar o‘yining mavzulari va tasviriy san’at fanida o‘yinlarning ahamiyati,kelib chiqish tarixi bolalar o‘yinlarning psixalogiyasi o‘yinlarning bolalar hayotida ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘yinchoqlar, Bo‘g‘irsoq o‘yini, figuralar o‘yini qo‘g‘irchoq Barbi, kuzurchik, oxshog‘u.

Insoniyat paydo bo‘libdi kitasviriy san’at ham uzviy ribojlanib kelgan.Azaliy ma’naviy qadriyatlarimiz tizimida alohida o‘ringa ega bo‘lgan bolalar o‘yin folklori namunalari qadimiyligi,an’anaviyligi,o‘ziga xos badiiy-estetik ta’ sirchanligi,ta’limiy mazmundorligi jixatidan yosh avlad tarbiyasini to‘g‘ri tashkil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.Xalqimizning tarixiy dunyoqarashiva ijtimoiy turmush tarzidan kelib chiqib,yosh avlodni har tamonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalash maqsadida yaratilgan o‘yinlari bolalarni har tomonlama yetuklikka chorlash bilan birga kattalarning turmish tarziga xos voqeyliklar bilanyosh avlodni tanishtirib ularga turmush qonuniyatlarini o‘rgatib borishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.O‘yin bolalarda turmushga munosabatni tarbiyalaydi. Shuning uchun ham O‘yinlar go‘yo hayot darsligi sifatida namoyon bo‘ladi. Bolalar o‘yin vositasida hayotni taniy boshlaydilar.Shu jihatdan o‘yinlar etnografik mohiyat kasb etadi va tarbiyaviy ko‘p vazifaviyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa,o‘yinchoqlar vositasida tashkil topadigan o‘yinlarko‘rgazmaliligi,ta’sirchan va qiziqarliligi bilan bu jihatdan ajralib turadi. O‘yinchoqlarni o‘ynash va ulardan ta’lim – tarbiya jarayonida foydalanish, o‘yinchoqlarning etnopedagogik mohiyatini baholashga urinish aslida ancha ilgari boshlangan. Jumladanbunga V.Bogdanov, I.Boguslavskaya. G.Vinagradov, R.S.Dankovskaya kabi olimlar yaratgan tadqiqotlarni misol keltirish mumkin. O‘zbek bolalar o‘yinlariga milliy qadriyat tarzida qarab,unga xos xususiyatlarni o‘rganishda G‘.Jahongirov, O.Safarov,A.Nosirova I. Abdurahmonov,Sh.Galiyev kabi o‘zbek olimlarining xizmati katta bo‘lgan. Bog‘cha yoshidagi bolalarga o‘yinchoqlarni ko‘rsatgan holda rasmini chizish buyiriladi. Misol uchun qiz bolalar sevib o‘ynaydiganBARBI qo‘g‘irchog‘, o‘g‘il bolalar sevib o‘ynaydigan LEGO dan turli xil mashina turlarini yasab chizdiriladi. Haykaltarosh ustalarning H. Raximova. Jo‘raqulovlarning mayda pilastika haykallarini namuna sifatida ko‘rsatib plastilin yoki loydan tayyorlash texnologiyasi ko‘rsatiladi. Bolalar zo‘r qiziqish bilan

tayyorlashadi o‘yinchoqlari soni ko‘payganidan xursand bo‘lishadi. Bolalarning fazoviy tasavvurlari kengayadi.Bolalar o‘yinlari qizlar va yigitlarda turmushga munosabatni tarbiyalaydi.Suning uchun o‘yinlar go‘yo hayot darsligi sifatida nomoyon bo‘ladi. Bolalar o‘yin vositasida hayotni taniy boshlaydilar o‘yinlar va o‘yinchoqlar bola faoliyatining shakillanishida dastlabki vositalardir.Bolalar o‘yinlarini o‘yinchoqlarsiz tasavvur etish qiyin. O‘yinchoqlarning qadimiyligini Mahmud Qoshg‘ariyning‘’Devonu lug‘otit turk ‘’asarida keltirilgan ma’lumotlar orqali ham bilib olish mumkin. Unda qo‘g‘irchoqning qadimgi turkey xalqlar orasida daoxshohu,kuzurchik,koborchukdeb yurituilgani ma’lum. Alisher Navoiy davri adabiyotlarida esa bu o‘yinchoq turi ‘’lo‘bat’’,’’lo‘batak’’shaklida uchraydi.Qizlar qo‘g‘irchog‘i turli joylarda turlicha nomlar bilan atab kelinadi :lutfak,liftag, luftuk,luxkak, vazok, puchak, argush,lo‘bat,zocha,zochakcha kabi nomlar shular jumlasidandir. Qizlar o‘yin faoliyatiga oid harakatni piretmid boshqaradigan o‘yinlarning kattagina qismi esa qo‘g‘irchoqlar vositasida o‘ynaladi qo‘g‘irchoqlar inson aqlu zakovati,qo‘l mehnati natijasida estetik jihatdan ranglardan sayqal berib ishlangan madaniy predmetlardir.Shungingdek qo‘g‘irchoqlariga turli kiyimlar tikib uni chiroyli bezashlari kelajakda tikuvchilik kasbiga tayyorlaydi.Eestetik jihatdan kiyinish madaniyatini shakillantiradi ayniqsa milliy o‘yinchoqlarimiz o‘zimizning milliy matolarimiz :atlas,adrasdan tililgan kiyimlar orqali yanada jozibali ko‘rinadi. Natijada qiz bolalarning estetik didlari milliylik nbilan boyib boradi. Yuqoridagi fikrlarimizga yevropacha qo‘g‘irchoqlar ya’ni BARBIlar bundan mustasno. Chunki bunday qo‘g‘irchoqlarning o‘rnak oladigan tomoni yo;q. Ma’lumotlarga qaraganda BARBI tungi kulblarda yuradigan bebosh voyaga yetgan qiz bo‘lgan. Keling qo‘g‘irchoq BARBIni ko‘z oldimizga keltiramiz:sochlari yoyilgan,bo‘yangn kalta kiyingan,mag‘rur,voyaga yetgan qiz. Endi o‘zimizning milliy qo‘g‘irchoq Zumradni ko‘z o‘ngimizga keltiramiz :sochlari o‘rilgan,do‘pisi bilan milliy kiyingan mehnatkash, toza ozoda kamtar qiz. Endi bolalarga qalam va liat beriladi,kim qanday qo‘g‘irchoqni yaxshi ko‘rganini chizish buyiriladi. Albatta bolajonlar o‘zimizni Zumradni chizishadi,chunki uning egnida o;zbek matosi bo‘lgan adrasdan to‘n kiydirilgan.Psixologyada bizga ma’lumki, insonda xarakter yoshlikdan shakillanib boradi.Biz yuqorida solishtirgan qo‘g‘irchoqlarning xzrakteri bolalarga ham ko‘chadi.Qo‘g‘irchoq o‘yinida qizaloqlaryayot sahnasini yaratar ekanlar,u yoki bu voqelikning kechishini ko‘rsatib berib unga nisbatan o‘z munosabatlarini namoyon etadilar. Asosan, bunda qizaloqlarning ayrim marosimlar urf odatlar haqidagi bilimlari namoyon bo‘ladi.O‘yinlar orqali tasviriy san’at,texnologiya fanlarni chambarchas bog‘ladik,musiqa fanini ham o‘rgatib ketamiz.Qo‘g‘irchoq o‘yinida ba’zan qizaloqlar o‘yin mazmunniga mos keladigan xalq qo‘shiqlaridan namunalar ham kuylashadi. Masalan ular bola-bola o‘yinini o‘ynash jarayonida bola chaqaloq ko‘rinishida yo‘rgaklangan qo‘g‘irchoqlariga “alla”Kuylab ona obrazini ifoda

etadilar. Bunda qizaloqlar onalar nitqiga xos bolani erkalatuvchi va ovutuvchi so‘zlardan,onalar repertuariga oid suyish qo‘shiqlari hamda beshik qo‘shiqlaridan foydalanadilar.Agar qizaloqlar “xola-xola”,”mehmon –mehmon”,”uycha-uycha”o‘yinlarni o‘nasalar bunda o‘z qo‘g‘irchoqlari vositasida biror bir marosimning o‘tkazilish tarzini yoki insonlar o‘rtasida kechadigan qarindoshchilik yoki qo‘shnichilik munosabatlarini ko‘rsatib

Derazani ochdim man,
Toza havo kirsin deb.
Ko‘rpachalar yozdim man’
Mehmonjonlar kelsin deb.

Kabi qo‘shiqlarni kuylashadi. Bu hol ko‘pinch 5-12 qizaloqlar o‘ybashadi.O‘qil bolalar ko‘proq qurish –yasash o‘yinlarini yasashadi. Har qanday o‘yinni o‘ynagandao‘yinchoqlar rangiga e’tibor berish kerak. Xulosa qilib aytgan da o‘g‘ilmi, qizmi qanday farzand bo‘lishidan qat’iy nazar ularni rivojlanishida ta’sir qiladigan har bir vositaga e’tiborli bo‘lishimiz kerak. Chunki bolalar taqlitchan bo‘lishadi.Bolalarga o‘yinlar chinakam hayotni o‘zlashtirish sari yo‘llaydi,yashashga daxldor malaka va ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bolajonlarimiz milliy o‘yinchoqlar, milliy o‘yinlar o‘ynashsa, milliyligimiz yanada mustahkamlanib, asrlar davomida saqlanib keyingi avlodlarga ham yetib boradi. Kelajak avlodga yetib borishi uchun biz kattalarning zimmasiga katta mas’uliyat yuklatilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jahongirov G‘ O‘zbek bolalar folklori T.: O‘qituvchi, 1975
2. Safarov O. O‘zbek bolalar poetic folklori.T.:O‘qituvchi, 1985
3. Galiyev Sh. O‘zbek bolalar o‘yin folklori.T.:Fan,1998
4. Taviriy san’at va fan.

“YADRO ENERGETIKASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Asror Ramazanov
O‘zMU Fizika fakulteti, Fotonika kafedrasi dotsent
Anvar Narzulloyev
O‘zMU Fizika fakulteti, Fotonika kafedrasi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295124

Annotatsiya: Bugunki kunda Oliy o‘quv yurtlarida yadro energetikasining zamonaviy muammolari mavzusini o‘qitishda ta`lim berishning interfaol usullarini qo‘llanilishiga doir masalalar tahlil qilinadi. Ma`ruza, amaliy va seminar mashg‘ulotlarida talabalarning interfaol o‘quv faoliyati haqida umumiy ma`lumot berilgan. Xususan, talabalarning o‘quv faoliyati talaba – o‘qituvchi” ilmiy-tadqiqot munosibati kabi fundamental konseptual yondashish tamoyillariga asoslangan. Oliy ta`limda bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta`limda qo‘llash natijasida bu sohada yaxshi mutaxassis va yetuk kadrlar tayyorlashga erishiladi.

Kalit so‘zlar: yadro energetikasi, davlat ta`lim standarti; kasbiy vakolat; fundamental fanlar metodologiyasi, seminar, amaliy, interfaol.

Kirish. Hozirgi zamon ta`lim tizimining asosiy tendensiyalaridan biri axborotlashtirilishidir, asosan o‘quv – ta`lim jarayonlariga uni tuzish va optimallashtirishga undovchi turlicha axborot vositalari uslublarini joriy etish bilan bog‘liq. Oliy ta`limning axborot maydoni umuman muassasalar va texnika universiteti xususan, samaradorlik va sharoitlarni ta`minlash uchun mo‘ljallangan uning barcha tuzilmalarining o‘zaro ta`sirining va o‘quv jarayoni sifatini oshirishdir. Biroq, faqat multimediya o‘quv vositalarini joriy etish materialni o‘zlashtirishni talabalarning motivatsiyasini oshirish bilangina, ularning mustaqilligini faollashtirish mumkin emas, balki bo‘lajak mutaxassisning ko‘p qirrali vakolatlarini aniq tarzda to‘g‘ri shakllantirishdan iborat.

Natijalar va ularni muhokama qilish. A.A. Verbitskiyning fikriga ko‘ra, talabaning faoliyatdagi o‘rni va mashg‘uloti pozitsiyasi, qanchalik xilma – xil bo‘lsa, kelajakdagi mutaxassis ya`ni shaxs rivojlanadi, chuqurroq fikrlashga harakat qiladi. O‘quv jarayonida interfaol usullarni o‘rganish, avvalambor, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifati bilan bog‘liq[1].

O‘qitishning interfaol usullarini jalb qilish, talabalarning faol o‘quv va bilim, ko‘nikma va malaka faoliyatini shakllantiradi. G.M. Gazizovaning fikriga ko‘ra, ushbu usullardan, xususan tabiiy fanlarini o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega bu

talabalarning faolligini ta`minlaydi (o‘quv jarayonida qatnashish faollashidir); tajribaga asoslangan; ehtiyojlar va shaxsiy rag‘batlantirishga tayanadi, talabalarga hurmatni namoyish etadi; do‘stona munosabatlarni yaratadi[2].

Yadro energetikasining zamonaviy muammolari mavzusini o‘qitishning eng keng tarqalgan usullari:

**1. Muammoli ma`ruza.** Boshida o‘qituvchi va o‘quv materialini taqtim etish jarayonida muammoli vaziyatlarni yuzaga keltiradi va ularni tahlil qilishga talabalarni jalb qiladi. Muammoli vaziyatlarda mavjud bo‘lgan qarama – qarshiliklarni yechgan holda, talabalar o‘qituvchi yangi vazifalar sifatida ma`lum qilishi kerak bo‘lgan xulosalarga mustaqil ravishda kelishlari mumkin. Muammoli ma`ruzalar bo‘lajak mutaxassislar tomonidan Yadro energetikasining zamonaviy muammolari mavzusining printsiplari va qonunlarini ijodiy o‘zlashtirishni ta`minlash; talabalarni o‘quv va bilim faoliyatini kuchaytirish, ularning mustaqil auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlari bilimlarni o‘zlashtirish va ularni qo‘llashni mashq qilish.

Yadro energetikasining zamonaviy muammolari mavzusida ma`ruza o‘qiyotganda talabalarga “Yadro enrgiyasi”, “Yadro reaktorlari”, “Yadro reaksiyasi” mavzulari bo‘yicha muammoli amaliy darslar o‘qiladi.



1-rasm. Yadro elektr stansiyalari.

2. Rejalashtirilgan xatolar bilan ma`ruza (ma`ruza – provokasiya)

Ma`ruza mavzusi e`lon qilingandan so‘ng o‘qituvchi unda nima qilinishini xabar qiladi, har xil turdagi ma`lum miqdordagi xatolar ya`ni ular informatsion, uslubiy, xulq atvorli va boshqalar. Ma`ruza oxirida talabalar xatolarni nomlashlari kerak. Ushbu ma`ruza tomonidan ishlab chiqilgan talabalarning kasbiy vaziyatlarini tezkor tahlil qilish, so‘zlashish ko‘nikmalarini rivojlantirish to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ma`lumotlarni ajratish uchun mutaxassislarning roli bilan ma`ruzada rejalashtirilgan xatolar nafaqat funksiyani rag‘batlantirish, shuningdek boshqarish kerak. Oldindan talabalarning mavzuga tayyorgarlik darajasini baholash mumkin va u o‘z navbatida materialda ularning yo‘nalish darajasi tekshiriladi. Xatoliklar sistemasi yordamida o‘qituvchi kamchiliklar, ularni muhokama qilish paytida ularni tahlil qilgan holda, talabalar bilan o‘quv materialining tuzilishi va uni o‘zlashtirishning qiyinchiliklari haqida tasavvurga ega bo‘ladi.

Misol uchun Yadro energetikasi – energetikaning atom energiyasi (yadro energiyasi) dan elektr va issiqlik energiyasi olish maqsadida foydalanish bo‘limi hamda fan va texnikaning yadro energiyasini elektr va issiqlik energiyasiga aylantirish usullari va vositalarini nazariy jihatdan ishlab chiqish hamda ularni amalda tatbiq qilish masalalari bilan shug‘ullanuvchi sohasi. Yadro energetikasining texnik asosini atom elektr stansiyasi (AES) tashkil qiladi. Energiya manbai esa atom reaktori (yadro reaktori) hisoblanadi. Parchalanish yadro reaksiyalarida uran va plutoniy yadrolarining bo‘linishi natijasida issiqlik energiyasi ajraladi, keyin bu energiya xuddi oddiy issiqlik elektr stansiyaradagidek elektr energiyasiga aylantiriladi. Organik yoqilg‘i (ko‘mir,gaz,neft,torf) zahiralari kamayib qolgan taqdirda insoniyatni energiya bilan ta`minlashda yadro yo‘qilg‘isidan foydalanish hozircha eng ishonchli yo‘l hisoblanadi. Shuning uchun ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Shvetsiya, Rossiya, Hindiston, Pokiston va boshqalar)da issiqlik va gidroenergetika manbalaridan boshqa energiya manbalaridan, shu jumladan, birinchi navbatda, yadro energiyasidan foydalanishning yuqori samarali usullarini o‘zlashtirishga doir ishlar jadal ravishda olib borilmoqda. O‘zbekistonda Yadro energetikasiga doir ilmiy tekshirish ishlari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti ish olib boriladi.

Yadro energetikasiga doir eng tashvishli muammo – bu AES larni ishlatish jarayonida xavfsizlikni ta`minlash hamda ajraladigan suyuq va qattiq radioaktiv chiqindilarni zararlantirish muammosi. AES larda bunday chiqindilardan tashqari radioaktiv izotoplarning uchuvchi birikmalari ajraladi, radioaktiv aerozollar ham hosil bo‘lishi mumkin. Radioaktiv gazlar va aerozollarning ma`lum qismi yaxshilab maxsus ishlov berilganidan so‘ng atmosferaga chiqarib yuboriladi, suyuq va qattiq radioaktiv chiqindilar esa maxsus omborlar (“qabristonlar”) ga to‘planadi. Biroq,

Yadro energetikasini taraqqiy ettirishning eng asosiy muammosi ko‘p miqdordagi zararli chiqindilarni ko‘mib tashlashning tejamli va ishonchli usullarini ishlab chiqishdan iborat. Bu borada ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlarda 20-asrning 70-yillaridan beri ilmiy tekshirish va tajriba sanoat ishlari olib borildi hamda ba`zi usullari ishlab chiqildi va amalda joriy qilindi (chiqindilarni yerga chuqur ko‘mib, qalin beton to‘siq – sarkofag bilan o‘rash, konteynlarda okean tubiga tashlash va b). Lekin hozirgacha eng ishonchli, xavfsiz va tejamli usullari ishlab chiqilganicha yo‘q.

Xulosa. Ko‘rib chiqilgan interfaol o‘qitish usullari, avvalambor, amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish konsepsiyasini amalga oshirishga, mutaxassislarni ta`lim dasturida belgilangan kasblarni shakllantirishga imkon beradi. O‘qitishning interfaol shakli va usullarini ta`lim jarayoniga tatbiq etish, o‘qitish motivatsiyasi ko‘tariladi, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish modeli amalga oshiriladi. Interfaol tarzda o‘qitish, o‘zaro fikr almashinuvi bilan bog‘liq bilimni rivojlantiradi, jamoat ishlarini faollashtiradi va bu bo‘lajak mutaxassislarning kasbga oid qiziqishlarini shakllantirishda zaruriy tashkil etuvchi bo‘lib hisoblanadi. Interfaol o‘qitish uslublarini qo‘llanilishi interfaol format talablarni ko‘zda tutilgan fanlar bo‘yicha tayyorlash davrida muddati uzaytirilgan bir qator tadqiqot loyihalarida talabalarning uzviy bog‘langan va mustaqil o‘quv faolligini birlashtirish imkonini beradi.

Adabiyotlar:

1. Verbiskiy, A.A. Aktivnoe obuchenie v vыsshey shkole: kontekstnыy podxod / A.A Verbiskiy. – M.: Prosveщenie, 2001. – 538 s.
2. Gazizova, G.M. Ispolzovanie metodov interaktivnogo obucheniya kak faktor uspeshnogo ovladeniya studentami professionalnыmi kompeten-siyami / G.M. Gazizova // Trudы MELI. – 2008. – № 7. – S. 8.
3. Ioffe, A.N. Aktivnaya metodika – zalog uspexa / A.N. Ioffe // Grajdanskoe obrazovanie. Material mejdunarodnogo proekta. – SPb.: RGPU im. A.I. Gersena, 2000. – 382 s.
4. Asmolov V.G. i dr. Atomnaya energetika: Otsenki proshlogo nastoyashegob ojidanii budushego. M.:IzdAt,2004
5. Korovin Yu.A., Murogov V.M. Sovremennыe problemы yadernoy energetiki. Uchebnoe posobie, Obninsk, 2006, 216 str.
6. Masalkov, I.K. Strategiya keys-stadi: metodologiya issledovaniya prepodavaniya: uchebnik dlya vuzov / I.K. Masalkov, M.V. Semina. – M.: Akademicheskiy proekt; Alma Mater, 2011. – 443

COLEOPTERA ТУРКУМИ ВАКИЛЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА КУРАШ ЧОРАЛАРИ

Жаҳонгир Абдурахмонович Хайдаров
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий – тадқиқот институти
Фарғона филиали директори
Нозимжон Низомжон ўғли Розиқжонов
стажёр тадқиқотчи
Баҳром Акрамович Эшонқулов
стажёр тадқиқотчи
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295136

Аннотация: Қўнғизлар — ҳашаротлар туркуми. 140 оиласи, 300 мингдан ортиқ тури маълум. Қўнғизнинг тана узунлиги 0,25–180 мм. Тўла ўзгариш билан ривожланади. Овальсимон тухумлари силлиқ қобиқ билан ўралган. Қўнғизнинг кўпчилиги қишлоқ хўжалиги экинлари, дарахт ва озиқ-овқат маҳсулотларининг зараркунандаси. Етук ҳашаротлар ҳамда улар личинкаларининг шикастлаш характерига қараб, қўнғиз барг кемирувчилар (баргхўрлар, узун-тумшуклар ва бошқалар), пўстлоқ ости ёки ёғочда ривожланувчи поя-тана кемирувчилар (тилла қўнғизлар, пўстлоқхўрлар, узун мўйлов қўнғизлар ва бошқалар), тупроқдаги илдиз кемирувчилар (асосан, май қўнғизи личинкалари, қора қўнғиз қирсилдоқ), мева ва уруғ зараркунандалари (най ўровчилар, уруғхўрлар, донхўрлар ва бошқалар), ғалла маҳсулотлари зараркунандаларига бўлинади. Суғорма деҳқончилик минтақасида фойдали қўнғиз (хонқизи қўнғизлари, сассиқ қўнғизлар) ҳам яшайди. Гўнгхўр, ўлимтикхўр қўнғиз каби турлари чиринди ва ўлимтиклар билан озиқланиб, табиатда санитар вазифасини ўтайди.

Калит сўзлар: ҳашорот, зараркунанда, личинка, тухум, имаго, ўсимта, барг, деҳқончилик.

Ўзбекистон қишлоқ - хўжалигининг асосий вазифаларидан бири аҳолини сифатли ва экологик тоза қишлоқ хўжалик маҳсулотлари билан таъминлашдир.

Ҳосилдорликни оширишнинг асосий омилларидан бири – бу серҳосил, турли касаллик, ҳашаротлар, экстримал шароитга чидамли навлар уруғларини танлаб экиш ва экинларни юқори технология асосида парваришлаш билан биргаликда зарарли фитофагларга қарши ўз вақтида кураш олиб бориш ҳам етиштирилаётган ҳосилни сақлаб қолиш имконини беради. Агар зараркунандаларга қарши чоралар вақтида олиб борилмаса, ҳосилнинг анча

қисми нобуд бўлади. Айрим пайтларда эса ҳосил бутунлай йўқолади (Мамаев,1981).

Қарсилдоқ қўнғизлар (симқуртлар). Марказий Осиёда ғаллагуллиларга бир неча турдаги симқуртлар зиён етказади, аммо сезиларли зиён етказадиганлари қуйидагилар: узун мўйловли қарсилдоқ қўнғиз (*Clon cerambycinus Sem.*) ва лалми экин қарсилдоқ қўнғизи (*Agriotes nadari Buyss.*).

Тарқалиши. Бу ҳар иккала турдаги қарсилдоқ қунғизлар Марказий Осиёдаги мамлакатларда аниқланган.

Ташқи кўриниши. Узун мўйловли қарсилдоқ қўнғизнинг катталиги 9-11 мм. Умуман урғочиси эркагидан каттароқ бўлади ва ташқи тузилишида сезиларли фарқ қилади.

Эркагининг танаси урғочисиникига нисбатан хипчароқ; эркагининг мўйлови тана узунлигига тенг келади, урғочисиники эса анча қисқа. Эркагининг оёқлари ҳам узун бўлади. Қўнғизларнинг танаси кул ранг - қорамтир тусда. Уст қаноти қисқа туклар билан қопланган; эркагида бу туклар узунасига ўтган чизиқлар ҳосил қилади. Личинкасининг бўйи 1,3-1,5 см келади; оч сариқ тусда; усти қаттиқ кутикула билан қопланган бўлиб иккала ёнбошдан туклар тўдаси яққол кўриниб туради; танасидаги сўнгги сегментининг охири икки-га ажралган (В.В. Яхонтов). Лалми экин қарсилдоқ қўнғизи танасининг бўйи 7,5-8 мм келади, асосида ранги қора, лекин сертуклигидан кул ранг бўлиб кўринади. Мўйлови, панжаси ва оёқларининг бўғимлари сариқ рангда бўлади. Мўйлови аррасимон ёки чўткасимон бўлади. Устқанотининг олд тарафи нозик эгатчали бўлиб, зич нуқтачалар билан қопланган.

Личинкасининг катталиги 1,5 см гача, туси оч сариқ рангда сийрак туклари бор. Танасининг охири конуссимон юмалоқ, кичкина қорамтир тишчаси бор.

Қарсилдоқ қўнғизлар етук зот ҳамда личинка шаклида қишлайдилар. Одатда мартнинг биринчи ярмидан ер юзига асосан эркак қўнғизлар чиқа бошлайди. Урғочилари эса ернинг устки қаватида яшайди ва ахён-ахёнда ташқарига чиқади. Қўшимча озиқланган қўнғизлар урчиб тупроққа тухум қўяди. Бир урғочи зот 70 та гача тухум қўйиши мумкин. Шундан сўнг қўнғизлар ўлиб кетади. Тухумлар узоқ вақт ривожланиб 30-40 кун ичида улардан личинкалар чиқади. Дастлаб улар турли хил чириндилар билан озиқланиб ўсимлик шикастланмайди. Лекин пўст ташлаб ёшдан-ёшга ўтиб улғайган сари ўсимлик илдизи ва илдиз орқали поя ичига кириб зарарлай бошлайди. Ҳар иккала хил қарсилдоқ қўнғизининг личинкалари эрта кўкламда, Марказий Осиё шароитида феврал охирларидан апрелгача бўлган муддат ичида ғалла экинларига зарар етказади. Баҳордаги ёғингарчилик тўхташи билан личинкалар тупроқнинг чуқурроқ қаватига қочади ва кузгача уларнинг зарари деярлик сезилмайди. Личинкалар тахминан уч йил озиқланади ва кузга бориб

тупроқнинг устки қатламида ғумбакка айланиб қўнғиз пайдо бўлади. Бу қўнғизлар ташқарига чиқмай қишки уйқуга кетади.

Қарсилдоқ қўнғизларнинг асосан личинкалари шикастлайди. Симқурт кўплаб ривожланган далаларда ғаллагулли ўсимликлар қўрий бошлайди. Бунга сабаб ўсимлик ниҳолларининг илдиз қисми ва поя ўзагининг шикастланишида. Хабарларга кўра, 1928 йили Қамаши туманининг чўл қисмида бу хашарот зараридан 70% гача лалмикор ғалла экинлари қуриб қолган. Муаллифлар назорати бўйича Зоамин туман хўжаликларида 1985 йили ҳар $м^2$ буғдойзорда 2-4 та қарсилдоқ қўнғизи аниқланиб 8-12% ўсимликлар шикастланган эди. Умуман, симқурт шикастлаши эвазига ўсимлик кўчат сони камайиб ҳар гектар ердан олинадиган ҳосил миқдори 2-5 ц га камайиши мумкин.

Чертмакчилар қўнғизлар (*Coleoptera*) тукумининг, чертмакчилар (*Elateridae*) оиласига мансуб. Дунёда чертмакчи қўнғизларнинг 500 дан ортиқ турлари маълум. Шулардан Ўзбекистонда 16 тури учрайди. Улардан: Туркистон чертмакчиси – *Agriotes meticulosus Cond*. ва буртдор қўнғизсимон чертмакчи – *Clon cerambycinus Sem*. кўпроқ ўрганилган.

Қўнғизлари унча катта бўлмай узунлиги 5-8 мм ни ташкил этади. Танаси яссироқ ва ингичка – узун. Туси кўпроқ тўқ-кул рангда. Мўйлови II-бўғимли ипсимон, аррасимон ва тароқсимон бўлиши мумкин. Олд елкасининг орқа томони кўтарилган ва чўзил-ган. Олд кўкрагининг остки қисмида ўсимтаси бўлиб у ўрта кўкрак чуқурчасида жойлашади. Шу тузилиш ёрдамида орқасига ағдарилган қўнғиз товуш чиқариб («чертиб») сакрайди ва ўгирилиб олади. Оёғининг барча панжалари 5 – бўғимлидир. Личинкалари узун шаклга эга бўлиб қаттиқ хитинланган. Шунинг учун уларни симқуртлар деб ҳам юритилади. Уч жуфт бир тенгликда оёғи бор; боши ясси, тепалари ривожланмаган; туси одатда сариқ ёки жигарранг. Катта ёшдаги личинкаларни узунлиги 15-20 мм ни ташкил этади. Тухумини ранги сарғиш бўлиб шаклида симметрия сезилмайди.

Ривожланиш хусусиятларига кўра, чертмакчиларни 2 гуруҳга бўлишади. Биринчисида зарар-кунанданинг етук зоти қишлайди. Улар апрел-май ойларида уйғонади ва қўшимча озиқланишга киришади. Бу даврда қўнғизлар яхши учиб турли майса барглари ва ҳатто дарахт муртаклари ва гул нишоналари билан озиқланади. Ҳашарот-лар урчиганидан сўнг, урғочи зот ернинг қатламига 3-5 тадан тўп-тўп қилиб тухум қўяди (ҳаммаси бўлиб 150-200 дона. Тухумлар 20-30 кун ривожланади. Тухумдан чиққан личинка-лар узоқ (3-4 йил) вақт ҳаёт кечиради ва шу даврда турли ўсимликларга шикаст етказади. Ҳар хил турларда 7 дан 14 мартагача пўст ташлаб ривожланган симқурт кузга яқин 10-12 см чуқурликда ғумбакка айланади. Ғумбак 7-30 кун ривож-лангач ундан қўнғиз

пайдо бўлади ва қишловга кетади. Бир авлоди учун умуман 4-5 йил керак бўлади.

Чўл ва қора чертмакчиларнинг личинкалари қишлайди. Баҳорда ғумбакка айлангач ёзнинг биринчи ярмида етук зот пайдо бўлади. Урчиб туҳум қолдиргач етук зот ўлади. Булар тўрт йилда бир авлод беради. Симқуртлар кўпроқ оғир меха-ник таркибга эга бўлган тупроқларни ёқтиради. Улар намлик ва ҳарорат ўзгаришига жавобан тепага ва ёнига қараб хара-кат қиладилар.

Чертмакчилар тупроқга экилган уруғларни, ўсимликларни, кўчатларни, шунингдек ер ости меваларини шикастлайди. Симқуртлар буғдой, арпа, маккажўхори, тама-ки, ғўза, пиёз, лавлаги, кунгабоқар, картошка, сабзавот ва бошқа экинларга қаттиқ зиён етказиши мумкин. Улар илдиз, поя ва мева ичига кемириб кириб йўл ҳосил қилади. Поя, ёки ўсимлик қуриб қолади. Тошкент шаҳри атрофида жойлашган хўжаликларнинг экинлари одатда чертмакчилар билан қаттиқ шикастланади. 1967 йилдан 2000 йилгача Қибрай, Калинин ва Тошкент туман хўжаликларида (одатда баҳор фаслида) турли ҳил экинларни (карам, помидор, бақлажон, бодринг, картошка) чертмакчи симқуртларидан ҳимоя қилиб беришда муаллифлар қатнашган. Ўзбекистон шароити учун ҳар $м^2$ ерда 2 дона симқурт мавжудлиги - суст зарарланиш; 3-5 таси – ўртача ва 5 тадан ортиғи кучли деб қабул қилинган.

Чертмакчи қуртларга қарши курашиш учун айниқса оғир механик таркибга эга бўлган соз тупроқли ерларга органик ва минерал ўғит солиб, албатта кузги шудгор ўтказиш. Бунда, биринчидан чертмакчиларнинг тухум ва қурти кўплаб механик равишда ва йиртқич жужелицалар ёрдамида қирилиб кетса, иккинчидан, личинкаларни юмшоқ ерда ҳаракат қилиши қийинлашади, учинчидан, бақувват ривожланган ўсимликни шикастга бардошлилиги ошади. Чигит ва сабзавот уруғини экишдан олдин гаучо, гаучо-М, далучо, аваланче каби маҳсус инсектицидлар билан қабул қилинган тавсияномалар асосида упалаш. Тадқиқотлар шуни кўрсатдики, илдиз кемирувчи барча зараркунандаларга қар-ши (шу жумладан симқуртлар) пиретроид группага оид инсектицидлар (цимбуш, кинмикс, децис, фастак, каратэ) истиқболли бўлиб ҳисобланади. Бунинг учун кичик экин майдонларида, ушбу дорилар эритмаларини кўчат остига қуйиб чиқиш (100-200 мл) кифоя бўлади.

Қўнғизлар (*Coleoptera*) туркумининг, қора қўнғизлар (*Tenebrionidae*) оиласига мансуб. Қора қўнғизлар айниқса қуруқ чўл ва саҳролар учун ҳосдир. Умуман 15 мингдан ортиқ турга эга. Ўзбекистон шароитида ўсимликларга *ғўза қора қўнғизи – Opatroides punctulatus Br. бурундор қора қўнғиз – Dailognatha nasute Men.*, шунингдек *чўл секин юрар* қўнғизи – *Blaps halophila F.-W.* ва *қумлоқ секин юрар* қўнғизи – *Opatrum sabulosum L.* – зиён етказиши мумкин (В.В. Яхонтов, 1953). Омбор маҳсулотларига зиён етказиши мумкин бўлган: *ун*

хруҳаги - Tenebrio molitor L. – ва *кичик хруҳак – Tribolium confusum Duv*. шулар жумласидандир (Р.О. Олимжонов, 1977). Ертўлаларда учрайдиган *қўланса қўнғиз* (*Blaps mortisaga L.*) ҳам шу оилага мансуб. Бу оилага кирувчи ҳашаротларни қуйидаги умумий ҳусусиятлар ифодалайди.

Қора қўнғизларнинг танаси катта – кичиклиги ва шакл юзасидан турлича бўлиши мумкин. Танаси одатда сал йилтироқ қора тусда бўлади. Мўйловлари 10-11 бўғимли бўлиб, бирхилда тўғноғичсимон шаклга эга. Олд қанотлари қаттиқ қоплагич ҳосил қилиб олд елкасининг ёнбош четлари учли ингичкалашган. Кўп турларида орқа жуфт қанотлари йўқ. Олдинги ва ўрта оёқ панжалари 5 тадан, орқа жуфтиники эса 4 тадан бўғимга эга. Личинкалари икки шаклда бўлиши мумкин. Айримларининг шакли симқуртларга ўҳшаган бўлсада, танаси нисбатан юмшоқ ва қоринча охирида бир жуфт ўсимтаси бор. Бундай личинкалар намсевар бўлиб, кўпроқ ўрмонзорларда чириндилар билан озиқланади. Иккинчи гуруҳга қуруқсевар личинкалар киради. Уларнинг танаси узун ва силлиқ бўлиб, сохта симқуртлар деб аталади. Бу личинкаларнинг чин симқуртлардан фарқи шун-даки, уларнинг бош қисми яхши ривожланган бўлиб тепа лабга эга, шунингдек олд жуфт оёқлари орқа жуфтларига нисбатан узун ва бақувватдир.

Қора қўнғизларнинг кўп турлари кечаси ҳаракатланади, кундузи эса турли хил пана жойларда берки-ниб ётади. Бу қуруқ жойларни ёқтирадиган ва қурғоқчилик йиллари кўпроқ ривожланадиган ҳашаротлардир. Қўнғиз ва личинкалари қишлаши мумкин. Урғочи қўнғизлар узоқ муддат яшаб, ўз умрида бир неча марта туҳум қўйиши мумкин. Туҳумдан чиққан личинкалар ўз умрида 12 марта-гача пўст ташлаб 1-1,5 йил яшайди. Личинкалар тупроқнинг устки қисмида ривожланиб, узоқ вақт давом этадиган очарчи-лик ва қурғоқчиликка чидаш беради. Бир авлоди 1,5-2 йил давом этади.

Кўпчилик қора қўнғизларнинг личинкалари чертмакчилар сингари зиён келтиради. Ўсимликхўр турлари тупроққа экилган турли ҳил уруғликларни, ҳамда майса ўсимлик илдизини шикастлайди. Лекин, қумлоқ секин юрар қўнғизларнинг етук зотлари баҳорда турли хил ўсимликлар-нинг майсаси билан ҳам озиқланиши мумкин. Қўнғизлари: лавлаги, тамаки, кунгабоқар, ғўза, каноп, сабзавот ва шунга ўхшаган кўпгина ўсимликларга зиён етказиши мумкин.

Қора қўнғиз сохта личинкаларига қарши кураш худди чертмакчиларнинг личинкаларига қарши курашга ўхшайди. Қумлоқ секин юрар қўнғизининг етук зоти ўсимлик ниҳолларига ҳавф туғдирганда эса, унга қарши бирорта кемирувчилар учун тавсия этилган инсектицид пур-каш мумкин. Ғўзанинг мева тугунчалари ҳамда баргларига бошқа бир қатор тунламлар ҳам зарар етказиши мумкин. Булар бегона ўтлар билан боғлиқлигини янада кўпроқ сақлаб қолган турлардир. Буларнинг ҳаёт кечириши тунламларга ҳос бўлиб, бир бирига

яқиндир. Улар маълум шароит яратилга-нида ғўзага ўтиб шикаст етказабошлайди. Бундай тунламлар-га қуйидагилар киради.

Нўхат қўнғизи. Бу қўнғиз нўхат донлари — уруғлари ичидаги моддани кемириб ейиши билан зарар етказади. Масалан, Қамашидаги нўхат экинларида уруғларнинг 5 % дан зиёдроқ қисми нобуд бўлганлиги аниқланди.

Самарқанд атрофида етиштирилган нўхат намуналарида уларнинг 11 % ини нўхат қўнғизи шикастлаганлиги маълум. Қозоғистондан олинган маълумотларда бу зараркунанда айрим участкалардаги нўхат донларининг 20 % дан зиёдроғини шикастлаганлиги кўрсатилади.

Шикастланган донларнинг униш даражаси 75 % гача пасаяди ва нўхат қўнғизининг чиқиндилари билан ифлосланган донлар овқат учун ярамайди.

Марказий Осиёдан ташқари, Қозоғистонда, бутун Европада, Узоқ шимолдан ташқари (бу қўнғизнинг тарқалиш доираси Шимолий кенгликнинг 52° гача ёйилади), Узоқ Шарқда, Шимолий Африкада, Япония ва Ҳиндистонда, Шимолий ва Марказий Америкада нўхат экинларини зарарлаши маълум.

Қўнғизининг узунлиги 4—*5 мм* келади; калласи орқасининг олд қисми тагига томон букилиб туради; танаси деярли тўрт бурчакли. Қанотустликларининг учи юмалоқ бўлади ва қорнининг охиригача бориб етмайди, қанотустликлари қора-қўнғир ва оқ рангли доғлар билан қопланган. Мўйловларининг таги, олдинги ҳамда ўртаги оёқларининг панжа ва болдирлари сариқ рангли. Кўкрагининг олд қисми ёнларида биттадан тишча бор, бу тишчалар баъзан туклар орасида яққол кўриниб турмайди.

Тухуми ялтироқ сариқ рангли, чўзинчоқ, овал шаклда, 0,6 *мм* ча узунликда. Личинкасининг ранги биринчи ёшида қизғиш бўлиб, иккинчи ёшидан бошлаб сарғиш тусга киради; узунлиги 5—6 *мм* га етади, калласи кўкрак қисмига томон эгилиб туради; оёқлари йўқ, улар ўрнида думбоқчалар бўлади; кўкрагининг пастки томони майин тукчалар билан қопланган, бош қисми туксиз; орқасининг олд қисмида иккита хитин ўсиқча бор.

Ғумбагининг узунлиги 5 *мм* ча бўлиб, шакли етук қўнғизникига ўхшайди, ранги сарғиш.

Ҳаёт кечириши. Вояга етган қўнғиз ҳолатида (Россиянинг қора тупроқ бўлмаган зонасида тўртинчи ёшдаги личинкалик ва ғумбаклик стадияларида ҳам) омборлардаги, шунингдек далаларга ва янчиш вақтида ерга тўкилган нўхатлар ичида қишлайди. Кўкламда, ҳарорат камида 20^0C бўлганида

қўнғизлар нўхат уруғларини кемириб тешиб, ташқарига чиқади. Бу қўнғизлар нўхат экинларини қидириб 3 километр масофагача учиб боради. Улар нўхат экинларига гуллаётган даврда тушади. Қўнғизлар нўхат гулларидаги чанг ва гултожи билан озиқланади, агар уларни емаса урчимайди.

Урғочи қўнғиз тухумларини нўхатнинг ёш дуккакларига, ўз танасидан чиқарган ва тез қуриб қоладиган суюқ томчи устига қўяди. Тухум қўйиш даври тахминан 2 ҳафта давом қилади. Битта урғочи қўнғиз ўрта ҳисобда 130 та, кўпи билан 730 тагача тухум қўяди.

Тухумдан чиққан личинкалар дуккаклар ичига кириб, аввало ундаги дуккак палласининг тўқималари билан озиқланади, сўнгра нўхат дони ичига киради. Ҳар бир нўхат донига фақат битта личинка жойлашиб, унинг ичидаги моддаларнинг кўпчилик қисмини ейди, баъзан муртакка тегмайди; шу сабабли бундай нўхатнинг униш хусусияти кўпинча сақланиб қолади.

Личинка ёз охири ёки кузда нўхат дони ичида ғумбакка айланади. Личинканинг кемириши натижасида ҳосил бўлган бўшлиқ, ғумбаклаш олдида нўхатнинг ташқи пўстигача бориб етади; бу пўстнинг четлари личинка томонидан кемирилган бўлади ва личинканинг устида думалоқ; қопқоқча вужудга келади. Ғумбаклик даври тахминан 3 ҳафта давом қилади. Шу кузнинг ўзидаёқ ғумбакдан вояга етган қўнғиз чиқади, лекин у баҳоргача нўхат ичида ёта беради. Нўхат илиқ бинода сақланганидагина қўнғизлар нўхатдан чиқиб бино ичида қишлайди.

Бу зараркунанда йилига бир бўғин беради. Нўхат қўнғизи нўхатдан бошқа ҳеч қандай ўсимликни зарарламайди, шу билан бирга нўхатнинг кеч гуллайдиган навларини камроқ зараралайди, омборлардаги нўхатга зарар етказмайди.

Нўхат қўнғизига қарши курашда нўхат донларини айниқса уруғлик нўхатни углерод сульфид билан дезинсекция қилиш энг яхши натижа беради. Бунинг учун бинонинг ҳар 1 $м^3$ га 100—120 *г* хисобидан углерод сульфид сарфланади. Дезинсекция қилишда нўхат уюми 75—100 *см* дан қалин бўлмаслиги шарт. Нўхат қоплоғлик бўлса, дезинсекция олдидан қоплар ўртасида салгина оралиқ қолдирилиб, тўрт қават қилиб тахланади. Уруғлик нўхатни дезинсекция қилиш учун бинонинг ҳар 1 $м^3$ га 25—35 *г* ҳисобидан хлорпикрин ҳам ишлатилади. Дезинсекция қилинадиган нўхатнинг намлиги 15 % дан ошиқ бўлмаслиги керак.

Кейинги йиллардаги тажрибаларга кўра, нўхатни бу зараркунандадан юқумсизлантириш учун метил бромиддан фойдаланса ҳам бўлади. Бу препарат бинонинг ҳар 1 $м^3$ га 15—35 *г* ҳисобидан сарфланади ва бинодаги ҳароратга қараб дезинсекция 12—48 соат давом қилдирилади. Метил бромид ўрнига

бинонинг ҳар 1 $м^3$ га 400—450 *г* ҳисобидан хлор аралашмаси ишлатилса ҳам бўлади.

Кейинги вақтда уруғлик нўхатни газ ўрнига гексахлоран билан, оз миқдордаги уруғликни эса нафталин билан юқумсизлантириш усули қулланмоқда. Бу ҳолда уруғлик нўхат гексахлоран дустига булғаб олинади, бунинг учун 1 тонна уруғликка 2 кг 12 фоизли гексахлоран дусти сарфланади. Бунда, уруғни дорилаш учун машиналардан фойдаланса ҳам бўлади.

Шу усулда дориланган нўхатлардаги қўнғизлар 15—25 кунда кирилиб бўлади. Нўхат нафталин билан 15 % дан ортиқ нам бўлмаганида дориланади. Уруғлик нўхат ҳарорат камида 20—25°С бўлганида энг ками 7 сутка дориланади. Бир тонна уруғни дорилаш учун 1—2 *кг* нафталин сарфланади. Нафталин билан дориланган нўхат пишиқ қопларда сақланиши керак.

Овқатга ишлатиладиган нўхатни, водород сульфид билан фумигация қилиш иложи бўлмаганида, уни ош тузи намакобига солиб тозалаш мумкин. Намакобнинг концентрацияси нўхатнинг навига қараб белгиланади. Масалан, ўртача катталикдаги нўхат донларини тозалаш учун 16 *л* сувга тахминан 3 *кг* туз қўшилади. Намакоб бетига чиққан нўхатлар йўқ қилинади, соғлом донлар дарҳол сувда ювилиб қуритилади.

Уруғлик нўхатни баъзан аммиакли селитра эритмаси ёки ош тузи намакобида тозалайдилар. Бу ҳолда ўртача катталикдаги донларни тозалаш учун 16 *л* сувга 8 *кг* селитра солинади. Бу йўл билан тозаланган донлар сувда ювилганидан кейин соя жойга юпқа қилиб ёйиб қуритилади.

Воќеан њам аз нав ба њам пайвастани ду халќи њамсоя ва хешу табор, ба њам овардани ќалбњо, тањкими риштаи дўстиву муњаббат, бародарию шавќат миёни ду миллате, ки тўли њазорсолањо дар як сарзамин пањлў ба пањлўи якдигар зиндагї менамоянд, аз як боду њаво нафас мекашанд ва аз як љўву дарё об менўшанд, фарњангу анъанањои ягона доранд, азобу уќубат ва љабру љафои зиёди таърихро паси сар кардаанд, хизмати рустамона ва таърихии сарварони ду љумњурии бародар буд.

Асосгузори сулњу вањдати миллї, Пешвои миллат, Президенти Љумњурии Тољикистон муњтарам Эмомалї Рањмон њангоми мулоќоти дўстона бо Президенти Љумњурии Ўзбекистон муњтарам Шавкат Мирзиёев чунин иброз намуданд: “Мардумони моро суннатњои бисёрасраи дўстї, њамсоягии нек ва эњтироми љонибайн муттањид месозанд. Њамкорї бо Љумњурии Ўзбекистон яке аз афзалиятњои асосии сиёсати хориљии Љумњурии Тољикистон мањсуб меёбад. Тасмимоти имрўзаи мо бар заминаи музокироти суратгиранда аз бисёр љињат хислати таърихї дошта, такконбахш мебошанд. Онњо барои марњала ба марњала боло бурдани муносибатњои Тољикистону Ўзбекистон ба сатњи сифатан нав асосу заминаи боэътимодро фароњам меоваранд” [1, 402].

Сафари расмии Президенти Љумњурии Ўзбекистон, муњтарам Шавкат Мирзиёев барои рушду тањкими робитањои иќтисодї, тиљоратї, фарњангї, илмї, адабї, иртиботи наќлиётї, истифодаи самараноки захирањои обу энергетика, амният ва мудофиа, мубориза бар зидди терроризм, экстремизм,

ифротгароии динї ва таъмини сулњу субот дар минтаќаи Осиёи Марказї заминаи устувор гузошт. Яке аз дастовардњои муњими ин мулоќот дар он буд, ки ќариб њамаи масъалањои бањснок вобаста ба сарњад њаллу фасли худро ёфтанд ва ин ба љонибњо имконият дод, ки шартномањои дахлдорро марбут ба масъалаи мазкур ба имзо расонанд.

Президенти Љумњурии Тољикистон, Пешвои миллат муњтарам Эмомалї Рањмон аз ташаббусу ибтикороти Президенти Љумњурии Ўзбекистон Шавкат Мирзиёев љињати эљоди фазои озоду созандаи њамкории байнидавлатї дар Осиёи Марказї изњори ќаноатмандї намуда, чунин ќайд намуданд: «Мо иќдомоти Шуморо дар мавриди эљоди фазои дўстї ва њусни њамљаворї дар фазои умумии мо самимона истиќбол гирифтем, зеро онњо бо њадафњои мо комилан созгору њамонњанг мебошанд».

Президенти Љумњурии Тољикистон, Пешвои миллат Эмомалї Рањмон музокироти сатњи олии љонибњоро њамчун оѓози марњалаи нав дар муносибатњои ду кишвар арзёбї намуда, наќши арзандаи Президенти Љумњурии Ўзбекистон Шавкат Мирзиёевро дар эњё ва тањкими ин равобит ва ба маљрои солиму созанда равона намудани он махсус таъкид намуданд.

Президенти Љумњурии Ўзбекистон аз љониби худ ба Президент, Њукумат ва тамоми мардуми Тољикистон барои истиќболи гарму бародарона ва мењмоннавозии самимї нисбати ў ва њайати расмии Љумњурии Ўзбекистон арзи сипос намуда, ќаноатмандии амиќи хешро аз натиљањои музокирот иброз дошт.

Президенти Ўзбекистон Шавкат Мирзиёев тамоюлњои мусбат ва судмандро дар муносибатњои тарафайни ду кишвар, аз љумла афзоиш ёфтани њаљми гардиши мутаќобилаи мол ва фаъол гаштани њамкорињои фарњангиву башарї, ки ба арзишњои маънавии муштарак ва анъанањои ѓании дўстї ва њусни њамљаворї такя менамоянд, баланд арзёбї намуд.

Сафари расмии давлатии Президенти Љумњурии Тољикистон, Пешвои миллат, муњтарам Эмомалї Рањмон ба Љумњурии Ўзбекистон 17-18 августи соли 2018 дар сатњи баланд баргузор гардид. Ин сафар ва мулоќоти сатњи олї дар арафаи љашни 27-солагии Истиќлолияти давлатии ду љумњурии бародар баргузор гардид.

Дар доираи сафар ва мулоќоту музокироти сарварони ду давлат ва њайати расмї 26 санади нави њамкорї ба имзо расиданд, ки онњо муносибатњои Тољикистон ва Ўзбекистонро ба сатњи баланд бардоштанд.

Пас аз мулоќоту музокирот Изњороти муштарак ва Аъднома оид ба шарикии стратегї байни Љумњурии Ўзбекистон ва Љумњурии Тољикистон ва санадњои зерин ба имзо расонида шуд [2, 129].

Бешубња, дар байни санадњои ба имзорасида Созишнома дар бораи њамкории шарикии стратегї маќоми махсусро дорад, ки муносибатњои ду давлатро ба сатњу сифати нав мебардорад. Ин санад њамчун рўйдоди таърихї бо1150згўи љањду талошњои њарду љониб барои тањкими дўстии абадї ва њусни њамљаворї миёни Тољикистону Ўзбекистон мебошад.

Ҳамин тариқ, матонат, иродаи ќавии сарварони ду давлат ва орзуву омоли мардумони ду љумњурии дўсту бародар тамоми мушкилоти мављударо аз миён бардошт ва ин марњалаи нави робитаю њамкорињои Тољикистону Ўзбекистон сањифаи нав дар таърихи дўстии халќњои тољику ўзбек гардид.

Дўстии тољикону ўзбекон ба манфиати њарду ин халќњои њамсоя, рушди устувор, тањкими истиќлолияти воќеии Тољикистон ва Ўзбекистон, сулњу субот, оромї ва амният дар минтаќа хизмат хоњад кард.

Адабиёт:

1. Набиев В.М. Фарҳанг-пайвандгари дӯстии халқҳои тоҷику ӯзбек// Ҳамкории иқтисодӣ-иҷтимоӣ ва фарҳангии Тоҷикистону Ӯзбекистон: таърих ва замони муосир.- Хуҷанд, 2019. -888 с.
2. Ҷӯразода Ҷ.Ҳ., Исомитдинов Ҷ.Б. Аз таърихи ҳамзистии халқҳои тоҷик ва ӯзбек// Тоҷикистон-Ӯзбекистон: дӯстии безавол.- Хуҷанд: Ношир, 2019.-512 с.
3. Фармонова Д. Густариши равобити фарҳангии Тоҷикистон ва Ӯзбекистон дар замони имрӯза// Ҳамкории иқтисодӣ-иҷтимоӣ ва фарҳангии Тоҷикистону Ӯзбекистон: таърих ва замони муосир.- Хуҷанд, 2019. -888 с.
4. Тоҷикистон ва Ӯзбекистон: таърихи нави ҳамкориҳо// Минбари халқ.- 2018.- 14 март.

BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PLANT PANICUM MILIACEUM

Maftuna Abdimuminova Alisher qizi
Student of Termez State University
Mail:abdumuminovam@mail.ru
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295268

Abstract: Cereal crops, including millet, contain all the nutrients that are constantly necessary for human life, including protein, starch, vitamins, carbohydrates, oil, destrin, mineral salts, starch, carbon dioxide and other biologically active substances. A lot of work is being done to increase the area of grain crops and breed species that are adaptable to different environmental conditions in the current complex environment, which is full of economic problems. This article provides information on the biological properties of the millet plant.

Key words: millet, root, moisture, morphological, stem, variety, soil, temperature, grain, sprout, seed, grain, flower, tuber, leaf, fruit, vitamin

Introduction: *Panicum miliaceum* L is one of the most common grain crops in Uzbekistan. Cereal made from its grain is famous for its taste and richness. Bread made from millet is small in size and hardens quickly. Millet waste (from processing) is a good feed for cattle. The grain is fed whole or milled to poultry and pigs. Tariq's starch turns into sugar more quickly than that of rice. When millet groats are cooked in milk, its nutritional and biological properties increase. In Uzbekistan, millet is grown as a main and repeated crop. It is of great importance in growing two grain crops in one year. In particular, the low planting rate, quick ripening, and short-day plant increase its value. It can also be used in the repair of thinned grain fields. It gives a high yield in the dry, hot climate of Central Asia.

Among grain crops, it stands out for its tolerance to drought and heat. Resistant to diseases and pests.

History. Millet was cultivated 4-5 thousand years ago. The center of origin and formation is East and Central Asia. Archeological finds have proven that it has been cultivated in the territories of the current Uzbekistan and Kazakhstan since ancient times. In 2004, the cultivated area of millet in world agriculture was 33.8 million ha, the yield was 7.9 s/ha, and the total yield was 27.6 million tons. It is widely cultivated in China, Afghanistan, Turkey and Europe. It is also grown in the eastern states of the USA and in Africa. Millet occupies large areas in Russia, Ukraine and the North Caucasus. Millet yields 25-40 s/ha in irrigated lands and 7-15 s/ha in dryland. When grown in Angiz, the grain yield reaches 20-30 s/h. [1]

Botanical description. There are two distinct types of millet: common millet (*Panicum miliaceum* L.) and common millet (*Setaria italica L.*). A common millet ball is a tuber, a spike-shaped tuber in the host. The guest's Italian millet (*S. italica*) is divided into two subspecies: *S. italica maxima A1* - a tall, well-developed plant with a long growing season and *S. italica mocharium Al.* — is relatively low in height, the vegetation period is divided into short periods. In Italian millet or zona, the length of the furrows reaches 15-30 cm. It is widespread in Uzbekistan, Kazakhstan, and the Caucasus and is grown for grain and green mass. Mogor is mainly grown for grain, sometimes for hay or green fodder. The most common type is common millet. Common millet (*Panicum miliaceum* L.) is an annual crop.

It has 5 subtypes: scattered, scattered, narrow (bent), semi-com or oval and com. The weight of 1000 grains of millet is 5-10 g. Flower flakes make up 15-25% of grain. When the seed turns blue, it forms 1 root and the epicotyl is developed.[1] The height of the stem is 75-100 cm. Stems are formed from the node of formation, and branches form (branches) from the above-ground joints of the stem. It forms 5-20 stalks in one plant. Therefore, even when it is planted in wide rows, the number of stems per 1 m2 does not decrease. The root system is a taproot, 105 cm deep into the soil, 115 cm around. The number of lateral roots reaches 120.[2] The level of development of the root system depends on the variety and the agrotechnics used. Secondary roots are formed from the joint of the plant. The increase in root mass mainly continues from budding to fruiting. When the surface layer of the soil dries out, joint roots are not formed, the plant develops poorly. Millet with only tuberous roots is semi-recumbent. Roots make up 20% of the total biomass during sprouting-shooting, 34% during shoot-shooting, and 30% during shoot-shooting. After fertilizing, the root development slows down, stops at the time of flowering. Aerial roots are formed from the lower joints of the stem. They increase the plant's resistance to drought and dormancy. The assimilation property of the millet root system is less than that of oats and barley. Therefore, it gives a high yield on newly developed lands.

Biological properties. Millet seeds germinate at 8-10 °C and absorb 25% of water by weight to swell. At 8 °C, seeds germinate in 10-15 days, at 15 °C in 4-5 days, at 20-25 °C in 3 days. When the soil temperature is 12-15 °C, the seeds will germinate after 5-7 days. The optimum temperature is 20-30 °C, at a very high temperature of 40 °C the seeds stop germinating. Grass is damaged at -2-3 °C, it dies at 3 °C.The total active temperature during the growth period is 1800-2100 °C. Millet is resistant to high temperatures, 38-40 °C keeps the activity of leaf stomata well. [3] In winter wheat, the cessation of activity of stomata is observed after 15-25 hours at 38-40 °C, and in oats after 4-5 hours. The ripening of the umgla in Rowagi begins from top to bottom, from the edge to the center. Therefore, when the seeds ripen at

the end of the pod, those in the middle are in the phase of wax ripening, and those at the bottom are in the stage of milk ripening. The vegetation period is from 60 to 115 days, depending on the varieties and growing conditions. Millet is a heat-loving plant. In cool and rainy weather, protein in grain reaches 11%, in drought years it reaches 17%.

Moisture requirement. One of the most important features of millet is its low demand for moisture compared to other crops, and its resistance to drought.

Its transpiration coefficient is 200-250.[3] Due to the good drainage system of millet, it is very resistant to heat and soil drought. Especially the curved and rounded dense forms are resistant to drought. This is the resistance of the crop to drought, its resistance to long-term wilting and dehydration of its tissues. In drought, unrooted grasses go into a state of death (anabiosis), but when it rains or is irrigated, they take root again and start growing rapidly. It is very drought tolerant from germination to budding. The most demanding (critical) period is from the tuber phase to fertilization. During this period, the more the plant is supplied with moisture and nutrients, the higher the productivity. It effectively uses the rains of the end of summer and the beginning of autumn. Light requirement is high, if it is planted with furrows from north to south, it increases the yield by 6-10%.Millet is not very demanding on the soil, but has an impact on productivity. The absorption capacity of the root system is higher than that of wheat, but less than that of oats. Millet can be planted in light loamy soils and heavy clay soils. 0 in Uzbekistan, it gives a good yield in the weed-free, organic matter-rich, grassland, and newly opened reserves and wastelands. Optimal soil environment is 6.5-7.5. The most demanding period for fertilizers is 30-45 days after germination (before fertilization). It is especially demanding on nitrogenous fertilizers.[4]

Phases of development. During the vegetation period of millet, the following phases are determined: 1) swelling of seeds, 2) germination, 3) formation of the third leaf. In this case, growth stops, secondary roots begin to develop, 4) budding begins 15-20 days after germination, 5) tuberization - begins 10-12 days after budding, 6) fruiting - 20 days after budding. -starts after 25 days, 7) flowering - starts 2-6 days after fruiting, 8) ripening lasts 15-20 days, growing season from 55 to 115 days.[5]

Common millet is divided into five subtypes: 1) scattered - the axis of the tuber is straight and long, the branches are strongly deviated from the axis, 2) scattered - the axis of the tuber is straight and long, the side branches are not much separated, 3) dense - the axis is long, bent, the side branches are attached to the central axis, 4) oval - the trunk is short, dense, the lower branches are separated, 5) comovate - the trunk is short, straight, dense, without pads. The type of millet sprinkled with manure has low resistance to drought and is not very heat-loving. The grain is relatively small, and the output of groats is low.

Dung millet is heat-loving, drought-resistant, strongly developed (large grain, high grain yield. Subspecies are divided into the following varieties depending on the separation of the grain from the husk, the color of the flower scales, and the presence or absence of anthocyanin pigment in the spikelets. boiinadi:itellinum, flavum, album, densum, etc. Millet is not suitable for chronic planting in one field. [5] This is because it grows slowly in the initial period of development and is therefore contaminated by weeds and is susceptible to fusarium, helminthosporosis, bacteriosis, black rot. it is affected by diseases. It is not recommended to plant millet after corn. The reason is that both crops are heavily damaged by the corn butterfly. Millet gives high yields on newly developed gray and protected lands. Tillage for millet is a regional farming system. The main focus is to eliminate weeds as much as possible, maintain moisture in the soil, level the ground well focused on ash, softening. Millet fields are plowed in autumn. The earlier the fall plowing is done, the greater the yield.

In the conditions of Uzbekistan, the soil is plowed to a depth of 28-30 cm.[5] Usually, if the field is contaminated with weeds, it is worked with cultivators or discs before plowing. If rhizome weeds appear, disking can be repeated. Magnesium, iron, boron, manganese, zinc, molybdenum, and copper are important micronutrients in millet nutrition. They accelerate the activity of enzymes, biochemical processes in the plant, strengthen the synthesis of proteins, carbohydrates, amino acids, and vitamins. Millet is very sensitive to organic and mineral fertilizers. In order to increase the effectiveness of organic and mineral fertilizers, the agrochemical and phytosanitary status of the fields is checked, and appropriate passports are drawn up. When 20 t of rotted manure is applied per hectare, 10 s of additional grain yield was obtained. Millet increases yield dramatically when nitrophoska is applied. The main part of the annual norm of phosphorus and potash fertilizers is given in the fall before plowing the land. The main part of nitrogenous fertilizers is given by cultivation before planting, 15-20 kg/ha in the fields planted in wide rows with the first treatment between the rows. Foliar feeding of millet with nitrogen during grain filling (5-10 kg/ha) increases the protein content of grain.[6]

Conclusion

Cereal crops are of great economic and production importance in the national economy of the Republic of Uzbekistan. Cereal crops play an important role in meeting the food needs of the population, providing livestock with concentrate and coarse fodder, and raw materials for some industries.Increasing grain production is one of the main problems in agriculture, in particular, increasing the production of millet and similar grains, meeting the demand for grain of the country's population, the national economy, and increasing the grain yield of the republic. is important in the network.

References:

1. Atabayeva H., O. Kadirkhojayev. Plant science. Tashkent., "New century generation", 2006.

2. Ataboyeva H. and others. Plant science. Tashkent., "Labor", 2000

3. Oripov R.O., Khalilov N.Kh. Plant science. Tashkent., "National Society of Philosophers of Uzbekistan", 2007.

4. Mustafayev S.M. Botany (anatomy, morphology, systematics). Tashkent. "Uzbekistan", 2002

5. Hamidov A., Nabiyev M., Odilov T. Plant identifier of Uzbekistan. Tashkent., "Teacher", 1987.

6. Murtozayev M.Z., Kushakov A.A, Akhmedova G.M. Plant science. Tashkent. "Science and Technology", 2012.

7.Yakubjonov O., Tursunov S. Plant science. Tashkent., "Science and Development", 2008.

8. Khojayev J. Kh. Physiology of plants. Tashkent, "Labor". 2004.

INSON HUQUQLARI TUSHUNCHASI VA UNING AMALIYOTDA QO‘LLANILAYOTGAN TAMOYILLARI

Sharobidddinova Aziza Anvarjon qizi
Qo‘qon universiteti xorijiy til va adabiyoti yo‘nalishi
2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295342

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlari tushunchasi,uning jamiyatdagi ahamiyati,shakllanish tarixi va zamonaviy hayotda amalga oshirilayotgan tamoyillar haqida so'z boradi.
Kalit so'zlar: inson huquqlari, tenglik, ozodlik, umumjahon deklaratsiya.

Аннотация: В статье рассматриваются понятие прав человека, его значение в обществе, история его формирования и принципы реализации в современной жизни.
Ключевые слова: права человека, равенство, свобода, всеобщая декларация.

Annotation: This article discusses the concept of human rights, its importance in society, the history of its formation and the principles of its implementation in modern life.
Keywords: human rights, equality, freedom, universal declaration.

Inson huquqlari irqi, dini, milliy-ijtimoiy kelib chiqish,qayerda tug'ilishi va boshqa har qanday holatidan qat'i nazar, barcha insonlarga xos bo'lgan huquqlardir. Ularning me'yorlari odamlarni qadr-qimmat, erkinlik, tenglik, adolat va tinchlik bilan yashashga imkon beradi.

Inson huquqlari, yashash joyimiz, tashqi ko'rinishimiz, fikrimiz yoki ishonganimizdan qat'i nazar, har bir insonning ajralmas qiymatini tan oladi. Ular qadr-qimmat, tenglik va o'zaro hurmat tamoyillariga asoslangan bo'lib, madaniyatlar, dinlar va falsafalar bo'ylab taqsimlanadi. Ushbu huquqlar barcha shaxslar bilan odilona muomala qilish va kundalik hayotimizda chinakam tanlov qilish qobiliyatiga ega bo'lishdir. Inson huquqlarini hurmat qilish uchun har bir inson o'z hissasini qo'shishi va o‘zlariga adolat bilan muomalada bo‘lishni his qilinishini talab qiluvchi kuchli jamoalarning asosidir.

1948 yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi barcha odamlarga taalluqli bo'lgan asosiy huquq va erkinliklarni belgilab berdi. Ikkinchi Jahon Urushidan keyin tuzilgan ushbu

hujjat inson huquqlari bo'yicha ko'plab qonunga muvofiq tuzilgan xalqaro qonunlarni ilhomlantirgan asos hujjatiga aylandi.

Inson huquqlari shakllanish tarixi

Dastlab, odamlar faqat oila kabi bir guruhga a'zo bo'lishlari sababli o'z huquqlariga ega edilar. Miloddan avvalgi 539 yilda Buyuk Kir Bobil shahrini zabt etgach, umuman kutilmagan bir ish qildi - uyiga qaytish uchun barcha qullarni ozod qildi. Bundan tashqari, u odamlarga o'z dinlarini tanlashlari kerakligini e'lon qildi. Uning bayonotlarini o'z ichiga olgan loydan yasalgan Cyrus Cylinder - bu tarixdagi birinchi inson huquqlari deklaratsiyasi tuzildi. Inson huquqlari g'oyasi tezda Hindiston, Gretsiya va oxir-oqibat Rimga tarqaldi. O'shandan beri eng muhim yutuqlarga quyidagilar kiradi:

1215 yil: Magna Carta - odamlarga yangi huquqlar berdi va qirolni qonunga bo'ysundirdi.

1628 yil: Huquq to'g'risidagi ariza - odamlarning huquqlarini bayon qildi.

1776: Qo'shma Shtatlarning Mustaqillik Deklaratsiyasi - yashash, erkinlik va baxtga intilish huquqini e'lon qildi.

1789 yil: Inson va fuqaroning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya - Fransiyaning hujjati bo'lib, barcha fuqarolar qonun bo'yicha tengdir.

1948 yil: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi - hamma huquqlarga ega bo'lgan 30 ta huquqni sanab o'tgan birinchi hujjat. Birlashgan Millatlar Inson huquqlari tashkiloti tomonidan qabul qilingan 7 ta asosiy barcha davlatlar amal qilishi kerak bo‘lgan poydevor tamoyillar mavjud. Ular quyidagilar:

I. Barcha insonlar erkin va tengdirlar. Ular aql va vijdon bilan ta'minlangan va bir-biriga nisbatan birodarlik ruhida harakat qilishlari kerak.

II. Kamsitishlarga yo'l qo'yilmaslik.Har bir inson irqi, rangi, jinsi, tili, dini,milliy yoki ijtimoiy-siyosiy kelib chiqishi, mulki, tug'ilganligi yoki boshqa holatlarda barcha huquq va erkinliklarga ega bo'lishi shart.

III. Hayot huquqi. Har bir inson yashash, erkinlik va xavfsizlik huquqiga ega.

IV. Qullikka o'rin yo'q.Hech kim qullikda yoki xizmatkorlikda saqlanmasligi shart; qullik va qul savdosini amalga oshirish barcha shakllarda taqiqlangan.

V. Qiynoq va g'ayriinsoniy munosabatlarga yo'l qo'yilmaydi. Hech kim qiynoqqa solinishi yoki shafqatsiz-g'ayriinsoniy va qadr-qimmatni kamsitadigan jazolarga duchor etilishi mumkin emas.

VI. Qonundan foydalanish huquqi.Har bir inson hamma joyda qonun oldida shaxs sifatida tan olinishga haqlidir.

VII. Qonun oldida barcha tengdir. Har bir inson qonun oldida teng va hech qanday kamsitishlarsiz qonunning teng himoyasi huquqiga egadir.

Inson huquqlari umuminsoniy, bo'linmas va bir-biriga bog'liq deb ta'riflanadi. Inson huquqlari kuni har yili 10 dekabrda bo'lib o'tadi, bu kun 1948 yilda BMT Bosh

assambleyasi tomonidan 217 A (III) rezolyutsiyasi bilan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi e'lon qilingan kundir. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan so'ng amaldagi xalqaro huquqiy asosda ishlab chiqilgan inson huquqlari va boshqa hujjatlar bo'yicha qator xalqaro shartnomalar imzolandi. Yevropa Ittifoqining inson huquqlari borasida faoliyati.

Yevropa Ittifoqi demokratiya va inson huquqlarini himoya qilishga sodiq bo'lib, Umumiy tashqi va xavfsizlik siyosati (CFSP) tizimini kamsitadigan juda katta siyosat ishlab chiqdi. 2012- yil, iyun oyida Yevropa Ittifoqi Kengashi Yevropa siyosatining samaradorligi va izchilligini oshirishga qaratilgan tamoyillar, maqsadlar va ustuvorliklarni belgilab bergan Yevropa Ittifoqining Inson huquqlari va demokratiya bo'yicha umumiy harakatlar rejasi (2015-2020) asosida strategik asoslarni qabul qildi. Yuqorida aytib o'tilganlar bilan birgalikda,Yevropa Ittifoqining inson huquqlari bo'yicha siyosatining samaradorligi va ko'rinishini oshirish maqsadida 2012 yil iyul oyida Inson huquqlari bo'yicha maxsus vakil- yuridik shaxs tayinlandi. Iqtisodiy o'sishni kuchaytirish uchun ko'proq mintaqaviy hamkorlikka e'tiborini qaratayotgan Markaziy Osiyo mamlakatlari rahbarlari inson huquqlari chora-tadbirlarini umumjahon ko'rsatkichlari orasida yuqori marralarga erishish uchun astoydil harakat qilishmoqda.

So'nggi yillarda Markaziy Osiyoning rahbarlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev infratuzilma va ta'limni yaxshilash va mintaqa iqtisodiyotini modernizatsiya qilish zarurligiga e'tibor qaratgan,qonun ustuvorligi va inson huquqlari asosida qurilgan kelajakka sodiqligini amalga oshirilayotgan o'zgarishlari borasida ko'rsatib berishdi.

Xususan, 2018-yilda davlatimiz rahnamosi transchegaraviy hamkorlikni yanada kengaytirishga tashabbus ko'rsatib, ichki inson huquqlari ahvolini yaxshilash borasida e'tiborga molik qadamlar tashladi. Jumladan, 2019-yil, sentyabr oyida sharoiti o'ta o'g'ir deb hisoblangan Qoraqalpog'iston o'lkasida joylashgan Jasliq qamoqxonasining faoliyatini butunlay to'xtatishga bag'ishlangan shartnoma davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan imzolandi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarlik vaqtida ham bir qator Sobiq Sho‘ro davridagi noto‘g’ri qarashlar- inson huquqlariga tamomila zid bo‘lgan bir necha qarorlarni bekor qilishga erishildi. Masalan, 1959-yilda Sovet Ittifoqi tomonidan qabul qilingan o‘lim jazosi, 2005-yilga kelib, 2-avgustda ushbu qaror Islom Karimov tomonidan bekor qilindi. Yuqorida ta’rif etilgan bir qator islohotlar yurtimiz ravnaqini yanada yuksaklarga olib chiqish uchun yana bir tamal toshi vazifasini bajardi.

Foydalanilgaan adabiyotlar:

1. Xalqaro Amnistiya (2004). Xalqaro Amnistiya hisoboti. Xalqaro Amnistiya. ISBN 0-86210-354-1 ISBN 1-887204-40-7

2. O‘zMe. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
3. Inson huquqlari haqida hisobot 2020 – O‘zbekiston. Uz.usembassy .gov
4. Ziyo.uz.com

BUGUNGI ADABIY JARAYONDA SALOMAT VAFONING O‘RNI

Rajabboyeva Lobar
Xorazm viloyati Xona tumanidagi
19-son ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295276

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi adabiy jarayonda adiba Salomat Vafo ijodiga to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: antologiya, erotik yozuvchi, ramz, proza, janr.

Bugungi nasrimizda S.Vafoning o‘ziga xos o‘rni, o‘z aytar so‘zi bor. Adiba asarlarining aksariyatida ayol ruhiy kechinmalari, ko‘ngil jilvalariga e’tibor kuchli, qalbida bir dunyo orzu tilaklari, intilish niyatlari bo‘lgan har biri o‘ziga xos qahramonlar tasvirlanganligi jihatidan ular
o‘zaro mushtaraklik va alohidalik kasb etadi. Salomat Vafo insoniy xarakterlarning fojiasini ko‘rsatishga ko‘proq ahamiyat qaratadi.

“Farida” (1984), “O‘zini izlayotgan ayol” (1989), “Ko‘ngil farishtasi” (1995), “Tilsim saltanati” (2005), “Ovoraning ko‘rgan kechirganlari” (2008) kabi asarlari nashr etilgan.

Sevinch Cho‘kumning “Odam” hikoyasini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. “O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti tomonidan 2009-yili chop etilgan “XX asr o‘zbek hikoyasi antologiyasi”da o‘tgan asrning eng yaxshi hikoyalari jamlangan. Antologiyani Bahodir Karimov va Habib Abdiyev nashrga tayyorlagan. Antologiyaga yozuvchining “Elat” hikoyasi ham kiritilgan.

Uning 2004-yilda nashr qilingan “Tilsim saltanati” romani O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi qarshiligiga uchrasa-da, “Yilning eng yaxshi romani” deb tan olingan va rus tiliga ham tarjima qilingan....

“Izm”lardan “Hirsizm”ga yohud adabiyotdagi axloqsizliklar” nomli maqola muallifi Dilfuza Komilova yozuvchini “ayollikning dilbar dunyosiga putur” yetkazishda ayblaydi.[1] Muallif, shuningdek, “Poyezd” hikoyasidagi giyohvandlar orasida yuz beradigan o‘zaro suhbatni o‘zbekchilikka qilingan haqorat deya talqin qilgan. Salomat Vafo mazkur tanqidiy maqolada qo‘llanilgan iboralardan norozi bo‘lib, ma’naviy zarar da’vosi bilan Toshkentda mahkamaga shikoyat ham qilgan.

Sh.Avazova S.Vafo bilan qilgan “Men erotik yozuvchi emasman. Men eng millatparvar yozuvchiman” nomli suhbatida yozuvchiga o‘zbek adabiyotidagi “Ilk erotik yozuvchi” degan “unvon”ning berilganini, bir asarda yoritilgan ochiq sahnalarni san’atga yo‘ygani mamlakatimizda Ma’naviyatga asoslangan jamiyatning rivojlanishida qanchalik muhim degan savolga adiba: “Men yaratgan asarlar ichida

“Ustyurt”, “Nomsiz kema”, “Ertakka aylangan kun”, “Arg‘imchoq”, “Muqaddas manzil” kabi juda-juda ko‘p hikoyalarim borki, men ularda millatning, O‘zbekning dardini, Sovet mamlakatlari bo‘lingandan keyin chegaralarning har yog‘ida qolib sochilib ketgan, juda sho‘rish bir qismatlarga ega bo‘lgan, onasining o‘ligiga yetib borib uni ko‘ma olmagan millatning armonlarini yozgan odamman. Hatto o‘sha tomonlari bilan ham meni ko‘pincha, ayol kishiga xos bo‘lmagan qarashlarim bilan, ustozim Odil Yoqubov rus yozuvchilarga qiyoslagandi. “Salomatning prozasida ruslarning shafqatsiz bir prozasi bor”, - deb aytgandilar. “Tilsim saltanati”da ham simvollar bilan hikoya qilganman, undagi voqealar eradan oldingi to‘rtinchi, uchinchi asrda bo‘lib o‘tgan. Shunga ham e‘tiroz bildirishgan.[2]

Q.Yo‘ldoshev o‘zining “Yoniq so‘z” kitobiga kirgan “Kichik janrdagi katta izlanishlar” maqolasida 2001-yilning eng esda qoladigan hikoyalari Salomat Vafoning “Unutilgan ayol”, “Elat” asarlari ekanligini aytadi:

“Salomat Vafo o‘z asarlarida so‘zni avaylab, puflab ishlatmaydi. Kuydiruvchi so‘zni ham, muzlatuvchi so‘zni ham o‘rni kelsa, ayamay qo‘llayveradi. Shuning uchun ham uning qalamidan chiqqan timsollar bir qadar sovuqroq, bir muncha yoqimsizroq bo‘ladi. Va shu jihati bilan... kishining esida uzoq saqlanib qoladi. Saralanmagan og‘riqli so‘zlar esdan chiqmaydigan obraz yaratishga xizmat qiladi. Salomat hikoyalariga odamning ham chang-chungini qoqib, g‘ijimlarini tekislab kiritmaydi. Badiiy tasvirda irganch kimsani imkon qadar irganchligicha ko‘rsatishga harakat qiladi. Bunga “Elat” hikoyasi misol bo‘la oladi. S. Vafo o‘zbek hikoyachiligini yangi tur mozaika-hikoya bilan boyitdi. Adabiyotimizda ilk bor bir umumiy ruh atrofiga birlashgan sakkiz alohida asardan iborat bitta “Elat” hikoyasi paydo bo‘ldi. Ushbu hikoya-mozaika tasvir uslubi, til xususiyatlari, inson ko‘ngli va amaliga yondashuv tarzi bilano‘zga hikoyalardan ajralib turadi. So‘zning zalvorini yaxshi bilgan adiba uni qichab ot haydagan chavandozday shitob bilan ishlatadi. alomatning hikoyalari favqulodda xususiyatlarga ega odamlar haqida yoki oddiy kishilarning ko‘zga tashlanmaydigan favqulodda jihatlari to‘g‘risida bo‘ladi. Qizig‘i shundaki, hatto bu hikoya qahramonlarining oddiy, el qatori ekanliklari ham favqulodda darajada bo‘ladi. Tiyrak va bezovta nigohli muallif har qanday inson ko‘nglining nozik tovlanishlarini ilg‘ay va tasvirlay oladi”.[3, B.131-137.]

Salomat Vafoning asarlariga nazar tashlaganimizda ayollar tabiatidagi fazilat va illatlarni teran tasvirlashga, ularning surati-yu siyratini o‘ziga xos tarzda ochishga uringan. Salomat Vafo hikoyalarida inson va uning tabiati, ko‘ngli xususida so‘z boradi. Uning nosirlik nigohi ko‘ngil olamini anglash orqali o‘zlikni, umuman, insonni uning imkoniyatlarini ko‘rish, idrok etishga yo‘nalganligidir. “Farishta” hikoyasi ham mehrga tashna ayol haqidadir. Ota mehriga tashna, onasining ajrashib ketganiga qarshi alam tuyib o‘sgan Malika yolg‘izlik azoblarida qiynalib yashayotgan,bor umidini farzandining ertasiga tikkan ona qalbini daf’atan tushunib

yetmaydi. Husnu malohatiga ishonib, o‘ziga bino qo‘y-gan bu qiz hayotini yolg‘on va aldov asosiga qurmoqchi bo‘lib qattiq yanglishadi. Nomusning o‘limi, orzularning toptalishi, odamlararo begonalik tuyg‘usi uni fahsh girdobiga tashlaydi. Malika vujud va ruh kurashida xiyonat ko‘chasiga kirib tuyg‘ulari toptaladi. “Qora beva” hikoyasida tasvirlangan uy bekasi kayfiyat odami. U bir ***paytlardagi nurli hayotidan***, nozik tuyg‘ular og‘ushidagi kunlaridan qolgan shirin xotiralar sharpasi ta’qibidan qutula olmay, dilgirlikda yashaydi.

Hikoyada hayot, xayol, tush, xotira qorishiqligi kuzatiladi. Adiba bevaning sezimlaridagi, o‘ylaridagi tovlanishlarni aks ettirishga intiladi. Inson xayoloti va kechinmalarini tasvir obyektiga aylantirishga urinadi. O‘ychil inson tafakkuri va hissiyoti manzaralarini chizadi.[4] S.Vafo odamlararo munosabatni jamiki murakkabliklari bilan aks ettirishga urinadi, inson zotiga sirli xilqat sifatida yondoshib, uning taqdiridagi izohlash mushkul bo‘lgan chigalliklarni tushunishga urinadi. Uning qahramonlari ko‘pincha o‘ylovchi, fikrlovchi, ma’nan baland, nozik tuyg‘ular egasi bo‘lgan insonlar. Adiba kitobxon didining yuksakligi, sezimlarining ingichkaligi, so‘z zalvorini his qilish salohiyatiga ishonadi. Kechinma va tuyg‘ularni moddiylashtirish, har bir so‘zni joyida qo‘llash, holatlarni manzaralantirish, ramz va ishoralar tilida so‘zlash, chigal o‘ylar-u mubham iztiroblar, beadoq ishtibohlar haqidagi samimiy tasvirlar ana shu ishonchdan oziqlanadi. S.Vafo nasrining falsafiy mohiyati teran, insonparvarlik mazmuni chuqurdir. Adibaning hayotiy illatlar barham topishiga umidi kuchli. Shu boisdan ham noroziligini keskin qutbiy munosabatda ifodalashga intiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Komilova. Adabiyotdagi axloqsizliklar haqida ikki maqola. Xurshid Davron kutubxonasi.
2. “Men erotik yozuvchi emasman. Men eng millatparvar yozuvchiman”. BBC news.
3. Q.Yo‘ldoshev. Yoniq so‘z. – Tosh., Yangi asr avlodi, 2006. – B.131-139.
4. B.Qosimov. Ko‘ngil tovlanishlari (S.Vafo nasri) www.ziyonet.uz

ODAM ORGANIZMIDAGI TO‘QIMALAR HAMDA ULARNING FUNKSIYALARI

Farog‘at Umbarova Luqmonovna
Chiroqchi tuman 35-umumta’lim maktabi
biologiya fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295278

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson organizmidagi asosiy to‘qimalar va ular bajarayotgan funksiyalar haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: Klassifikatsiya, kubsimon, silindrsimon, chegaralovchi to‘qima.

Keyingi yillarda to‘qimalar zamonaviy mikroskoplar va yangi tadqiqot usullari yordamida har tomonlama o‘rganilishiga qaramay, shu vaqtgacha ularni aniq mujassamlashtiradigan yagona klassifikatsiya tuzilgan emas. Binobarin, to‘qimalar tuzilishi, vazifasiga qarab bir necha guruhga bo‘linadi. Har qaysi to‘qima hujayralari o‘ziga xos morfologik tuzilishiga ega bo‘lib, organizmning turli qismida joylashgan va turlicha vazifalarni bajarishga moslashgan. Shunday to‘qimalar borki, o‘zi bir xil bo‘lishiga qaramay, organizmning hamma qismida uchraydi va har xil morfologik tuzilishga ega bo‘ladi va turlicha fiziologik vazifani bajaradi. Masalan, epiteliy to‘qimasi organizmning juda ko‘p qismida uchraydi va har qaysi vazifasiga ko‘ra boshqasidan farq qiladi. Chunonchi, yassi epiteliy, u asosan ichki organlarning tashqi muhit bilan bog‘lanmagan bo‘shliq yo‘llarini bog‘lab turadi va charvi, o‘pkaning plevra pardasi va yurak xaltachasi yuzasini qoplovchi vazifasi bilan birga trofik va himoya vazifalarini ham o‘taydi. Kubsimon va silindrsimon epiteliy hujayralari buyrak kanalchalari devorida va tashqi sekresiya bezlarining kichik va katta diametrdagi chiqaruv kanalchalari devorida hamda qalqonsimon bez va ovqat hazm qilish sistemasining devorlarida uchrab, o‘ziga xos maxsus fiziologik vazifalarni bajaradi.

Organizmda uchraydigan boshqa xil to‘qimalar ham shunga o‘xshash keng tarqalgan. Ularning hujayra elementlari va oraliq moddalari ham o‘ziga xos fiziologik xususiyatlarga ega. Aytilganlardan ko‘rinib turibdiki, to‘qimalar har xil, ularning vazifasi ham har xil. Shuni hisobga olgan olimlar ularning yagona klassifikatsiyasini tuzishga ko‘p marta urinib ko‘rdilar. Masalan, to‘qimalarning mikroskopik tuzilishi va rivojlanishi asosida birinchi klassifikatsiya tuzish XIX asrda Yevropada boshlandi. I.Leydig 1853-yili “Reptiliya va baliqlar anatomiyasi bilan gistologiyasi haqida ma’lumotlar” nomli asarida birinchi marta to‘qimalarning morfologik tuzilishi va fiziologik xususiyatlarga asoslangan klassifikatsiyani taqdim etdi. Albatta, bu klassifikasiya ayrim kamchiliklardan xoli emas edi. Lekin shunga qaramay,

gistologiya fanini o‘rganishda u ancha qulayliklar yaratdi. I.Leydig bilan A.Kellinger to‘qimalar klassifikasiyani yana ham mukammal o‘rganib, takomillashtirib to‘qimalarni 4 guruhga bo‘ladilar. Bular 1) epiteley, 2) biriktiruvchi to‘qima va qon, 3) muskul, 4) nerv to‘qimasi. Bu klassifikasiyada to‘qimalarning morfologik tuzilishi va fiziologik xususiyatlari nazarga olingani uchungina “To‘qimalarning morfofunksional klassifikasiyasi” deb nom berilgan. Hozirgi vaqtda ham ko‘pgina gistologlar shu klassifikatsiyadan foydalanib kelmoqdalar. Keyingi yillarda to‘qimalarni har tomonlama chuqur o‘rganishda bir necha xil klassifikasiyalar taqdim etiladi. Gistologlardan akad. A.A.Zavarzin organizmning evolyusion rivojlanish davridagi hayot faoliyatini nazarda tutib, funksional prineipga asoslangan klassifikasiya tuzdi. Bunda u to‘qimalarni bir-biridan quyidagicha farq qiladi.

1.Chegaralovchi to‘qima – epiteliy to‘qimasi nazarda tutiladi.

2.Ichki muhit to‘qimalari – moddalar almashinuvida ishtirok etadigan, tayanch vazifasini bajaradigan to‘qimalar

3.Muskul to‘qimalar – organizmning ichki va tashqi organlari harakatini taminlovchi to‘qima.

4.Nerv to‘qimasi – tashqi va ichki taasurotga javob berish xususiyatiga ega to‘qima.

N.G.Xlopin o‘zining genetik klassifikasiyasini tuzganda esa to‘qimalarning filogenez va ontogenez davrlaridagi rivojlanishini asos qilib oladi. Bunda har bir to‘qima rivojlanish davrida muayyan bir vazifani bajarish uchun shakllanib, o‘zgarib boradi va butun organizm bilan bir butun holda muayyan fiziologik vazifani o‘taydi. Binobarin, genetik evolyusion jarayonida belgilar shunday ajrala boshlaydiki, ajdodlardan qolib ketgan organizmlar guruhlari o‘rtasida morfologik va funksional farq paydo bo‘ldi, deb takidlaydi. Hozirgi vaqtda asosan morfofunktsional klassifikatsiyadan foydalaniladi. Bu klassifkatsiyaga muvofiq, organizm 5 guruhga bo‘linib o‘rganiladi.

1.Epiteliy to‘qimasi o‘ziga xos morfologik tuzilishga ega bo‘lib, hujayralari zich, ya`ni qatlam-qatlam bo‘lib joylashgan. Bu to‘qimalar orqali organizm bilan tashi muhit o‘rtasida moddalar almashinuvi sodir bo‘ladi. Bundan tashqari, himoya qilish, so‘rash, sekresiya qilish xususiyatiga ega bo‘lgan epiteliy ham bor.

2.Qon va limfa bular suyuq holda bo‘lishiga qaramay, to‘qimalarga qo‘shib o‘rganiladi. Chunki ular tarkibida jihatidan suyuq hujayralararo moddadan va undan erkin suzib yuruvchi to‘qima hujayralaridan moddalar almashinuvida o‘ziga xos muhim vazifani bajaradi.

3.Biriktiruvchi to‘qima bunga siyrak bitiruvchi to‘qima, tog‘ay va suyak to‘qimalar kiradi. Biriktiruvchi to‘qimalarning asosiy morfologik o‘xshashligi, ular to‘qima hujayralarida va tolali hujayralararo moddadan tashkil topgan.

4.Muskul to‘qimasi organizmda morfologik tuzilishi va joylashgan o‘rniga ko‘ra ikki xil, ya’ni silliq va ko‘ndalang yo‘lli muskul to‘qimalari uchraydi. Silliq muskul to‘qimasi tolachalardan tarkib topgan.

5.Nerv to‘qimasi nerv hujayralari asosan neyronlar bilan neyrogliyadan tashkil topgan. Neyronlarning vazifasi tashqi va ichki ta`sirini qabul qilib, uni bir neyrondan ikkinchi neyronga o‘tkazishdan iborat. Nerv to‘qimasi organizmning embrional rivojlanishi davrida embrionning ektoderma hujayralaridan ajratib chiqadi va rivojlanadi.

To‘qimalar kelib chiqishi, tuzilishi va bajaradigan funksiyasiga ko‘ra bir-biriga o‘xshash bo‘lgan hujayralar hamda hujayra oralig‘i moddasi to‘qimalarni hosil qiladi. Organizmda epiteley, biriktiruvchi, muskul, nerv to‘qimalari mavjud Epiteliy to‘qimasi organizmi himoya qilish, organizm bilan muhit o‘rtasida moddalar almashinuvini ta’minlaydi. Biriktiruvchi to‘qimalar tayanch oziqlantirish, himoya funksiyasini bajaradi. Muskul to‘qimasi qo‘zg‘alish va qisqarish xususiyatiga ega bo‘lib, ichki organlar harakatini yuzaga keltiradi. Nerv to‘qimasining asosiy xususiyati qo‘zg‘aluvchanlik va o‘tkazuvchanlikdan iborat. Organizmda har xil to‘qimalar o‘zaro birikib organlarni hosil qiladi. Organ odam organizmining bir qismi bo‘lib, muayyan shakl, tuzilishga ega hamda ma’lum bir funksiyani bajarishga moslashgan. Organizmdagi barcha organlar faoliyati nerv sistemasi va qon orqali boshqarilib turiladi. Organizmda kelib chiqishi va bajaradigan funksiyasi bilan o‘xshash bo‘lgan organlardan organlar sistemasi tarkib topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2000-2005-yillar, 342-bet.

ҚАДИМГИ ХОРАЗМДАГИ ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ

Атажанов Мухиддин Илҳомович
УрДУ тарих кафедраси тадқиқодчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295282

Аннотация: Мақолада қадимги Хоразм ҳудудидаги шаҳарсозлик маданиятининг ёзма манбалар ва археологик тадқиқотлар жараёнида ўрганилиш босқичлари ёритилган. Шаҳарсозлик маданияти тарихини ўрганилиши икки даврга бўлиб берилган. Бунда биринчи давр 1938 йилдан 1991 йилгача бўлган давр, иккинчи давр 1991 йилдан то бугунги кунгача бўлган даврга бўлиб таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Қадимги Хоразм, археология, қалъа, Авесто, Оқчахон қалъа, Хумбузтепа.

ИСТОРИЯ ИЗУЧЕНИЯ ГОРОДСКОЙ КУЛЬТУРЫ ДРЕВНЕГО ХОРЕЗМА

Аннотация: В статье описаны этапы изучения городской культуры древнего Хорезма на основе письменных источников и археологических исследований. Изучение истории городской культуры были разделены на два периода. Был проанализирован первый период с 1938 по 1991 год, а второй период с 1991 года по настоящее время.

Ключевые слова: Древний Хорезм, археология, крепость, Авеста, Акчахан кала, Хумбузтепа.

THE HISTORY OF THE STUDY OF URBAN CULTURE OF ANCIENT KHOREZM

Annotation: The article describes the stages of studying the urban culture of ancient Khorezm based on written sources and archaeological researches. The study of the history of urban culture was divided into two periods. The first period (from 1938 to 1991) was analyzed, and the second period from 1991 to the present.

Key words: Ancient Khorezm, archeology, fortress, Avesta, Akchakhan kala, Khumbuztepa.

Бугунги кунда қадимги давр тарихини чуқур ва манбаларга таянган ҳолда ҳар томонлама ўрганиш долзарб масалалардан бирига айланган. Айниқса,

шаҳарсозлик маданияти тарихининг объектив ёритилиши давлатнинг илк асосларини аниқлаш имконини беради. 1997 йил 20 октябрда Хива шаҳрининг 2500 йиллик юбилейининг халқаро миқёсда кенг нишонланиши ҳам Ўзбекистоннинг қадимий шаҳарларга бой эканлигини ўзида акс эттиради.

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгач, қадимий тарихни объектив тиклашга ҳаракат бошланди. Биринчи навбатда давлатчиликнинг шаклланиш жараёнлари таҳлилига эътибор қаратилган бўлса, иккинчи навбатда илк шаҳарларнинг шаклланиши ва ривожланиши жараёнлари олимларнинг диққат этиборида бўлди.

Шаҳарсозлик маданияти тарихи ҳам ёзма ҳам археологик тадқиқот натижаларининг таҳлили асосида ўрганила бошланган. Ўлкамиз тарихи бўйича энг қадимий ёзма манба “Авесто” да энг қадимги шаҳар “Квадрат Вара” ҳақида ёзиб қолдирилган[10]. Бу тўртбурчак шаклда қурилган шаҳар ҳақида турли ғоялар илгари сурилган бўлса-да, уни қурган ҳукмдор Йиманинг фаолияти зардуштийлар анъаналарида Хоразм билан боғлайдилар. Бу масала ҳам ўз навбатида тадқиқот қилиниши зарур бўлган масалалардан бири ҳисобланади. Унинг локализацияси масаласининг ҳал қилиниши тарихнинг кўплаб мунозарали масалаларига ойдинлик киритиши мумкин.

Шаҳарларнинг ёзма манбалардаги баёни асосан, ўрта асрлардаги яшаган муаллифларнинг асарларида учрайди. Жумладан, Истахрий, Ибн Ҳавкал, ал-Муқаддасий, Ёқут, Рашидиддин ва бошқаларнинг асарларида ўрта аср шаҳарларга таъриф берилган. Лекин қадимги давр шаҳарлари тўғрисида ёзма манбаларда маълумотлар учрамайди. Улар асосан халқ орасида сақланиб қолган ривоят ва афсоналарда сақланиб қолган. Бу афсона ва ривоятларни аксариат ҳолларда археологлар қадимий қалъаларни ўрганиш жараёнида таҳлил қилганлар. Бу Ғ.Ходжаниязовнинг “Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари” асарида келтирган[11]. Унда мил.авв. III-IV асрларга оид Бароқтом, Анқақалъа, Қирққизқалъа, Аёзқалъа 1, Катта Гулдурсин, Девкесган, Говур қалъа, Чилпиқ, Пил қалъа, Кўҳнауаз, Кат шаҳарлари ҳақида маълутотлар берилган. Бу қалъалар ҳақидаги афсоналар қадимги Хоразм қалъалари ҳақида баён қилинган бошқа асарларда ҳам учрайди[12].

Хива шаҳрининг ташкил топиши ҳақида ҳам халқ орасида афсоналар сақланиб қолган. Унинг қурилган вақтини Нух пайғамбар билан боғлашади[13]. Шаҳарлар ҳақида сақланиб қолган бундай афсоналар шаҳарларнинг қадимий илдизларга эга эканлигини асослаш учун хизмат қилади.

---

[10] Рапопорт Ю.А., Незарик Е.Е., Левина Л.М. В низовьях Окса и Яксарта. Образцы древнего Приаралья. – Москва: Индирик, 2000. – С. 25.

[11] Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O`zbekiston, 2007. –Б.13-22.

[12] Алламбергенов М. Қадимий мудофаа қўрғонлари. – Тошкент, 2007. 32-б.

[13] Джаббаров И. Древный Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – М.: ИЭАРАН, 2014. – С.174-175.

Қадимий шаҳарларнинг тарихи асосан, археологик тадқиқот ишлари натижасида аниқланади. Қадимги Хоразм шаҳарларини археологик жиҳатдан ўрганилиш тарихини 2 йирик даврга бўлиш мумкин:

1. 1938 йилдан 1991 йилгача бўлган давр ҳисобланади. Бу даврда қадимги Хоразм ҳудудидаги тадқиқот ишларини Хоразм археологик – этнографик экспедиция аъзолари томонидан олиб борилган. Бу даврда С.П.Толстов, Я.Ғ.Ғуломов, М.Г.Воробъева, Б.В.Андрианов, О.А.Вишневская, И.Жобборов ва бошқа бир қатор археологлар тадқиқот ишларини олиб борганлар.

2. 1991 йилдан бугунги кунгача бўлган давр бўлиб, бу Ўзбекистон мустақиллиги даври билан боғлиқ. Бу даврда ЎзР ФА Қорақалпоқистон бўлими Тарих, археология ва этнография институти, Хоразм Маъмун академияси, Австриянинг Сидней университети, Россиянинг Археология институти ва Шарқ халқлари музей ҳамкорликда тадқиқот ишларини олиб борганлар. Бу даврда В.Н.Ягодин, М.Мамбетуллаев, Ғ.Ходжаниязов, С.Б.Болелов, С.Р.Баратов, В.Г.Беттс, Қ.Собиров, А.Раззоқов, М.С.Абдуллаев, Б.П.Саъдуллаев ва бошқалар қадимги давр шаҳарлар тарихини ўрганишда муҳим ҳиссасини қўшганлар.

Биринчи босқичда С.П.Толстов бошчилигида ташкил қилинган Хоразм археологик – этнографик экспедиция аъзолари томонидан олиб борилган археологик тадқиқот ишлари ҳисобланади. Бу даврда қадимги Хоразм худудидаги қалъалар илк бор илмий асосда ўрганила бошланган. Бу экспедиция ўз фаолияти давомида кўплаб илмий асарлар нашр қилган. Экспедиция аъзоларининг томонидан нашр қилинган энг муҳим илмий нашрлар:

1. Хоразм археологик-этнографик экспедициясининг илмий ишлари (Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции) илмий тўпламлари 1952 йилдан 1991 йилгача 16 томи нашр қилинган[14].

2. Хоразм экспедициясининг материаллари (Материалы Хорезмской экспедиции) илмий тўплами бўлиб, у 1959 йилдан 1975 йилгача 10 нашри эълон қилинган[15].

Бу даврда архаик даврга оид Кўзалиқир[16], Хумбузтепа[17], Хазорасп[18] қалъаларида кенг миқёсда илмий тадқиқот ишлари олиб борилади. Антик даврга оид шаҳарлар тарихи, қурилиш услуби, моддий топилмалари

[14] http://kronk.spb.ru/library/mhe.htm
[15] http://kronk.spb.ru/library/trhaee.htm
[16] Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.; Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма. // ВДИ. 1997. № 2.
[17] Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент. 1984.
[18] Воробьева М.Г., Лапиров – Скобло М.С., Незарик Е.Е., Археологические работы в Хазораспе в 1958 – 1960 гг. // МХЭ. – Москва: Наука, 1963. Вып.6. – С. 157 – 201.

ўрганилган[19]. Катта Гулдурсун, Пил қалъа, Қалъажиқ, Олмаотишган, Аёзқалъа I-III, Думан қалъа, Жилдиқ қалъа, Қўйқирилганқалъа, Тупроққалъа, Қўрғошинқалъа, Бозорқалъа, Жонбосқалъа, Қизилқалъа, Анқақалъа, Катта ва кичик Қирққизқалъа, Қўзиқирилган, Капарас, Елхарас қалъа каби кўплаб антик даврга оид қалъаларда текширув ишлари олиб борилган. Уларнинг хариталари ишланган. Бу даврда қадимги Хоразмнинг тарихининг ривожланиш жараёнлари илк марта илмий асосда баён қилинган.

Ўзбекистон мустақиллигини қўлга киритгач, Хоразм археологик-этнографик экспедицияси аъзолари ўзларининг фаолиятларини Россия Фанлар Академиясининг Этнология ва Антропология институти доирасида давом қилдирганлар. Қадимги Хоразм қалъа-шаҳарлари тарихини ўрганишни янада юқори даражада давом қилдирганлар. Бу асосан, турли табиий фанларнинг ютуқларини ва илғор технологияларни археологик тадқиқот ишларига жорий этиш билан боғлиқ эди.

Қадимги қалъаларни ўрганишда ЎзР ФА Қорақалпоқистон бўлими Тарих, археология ва этнография институти олимлари XX асрнинг иккинчи ярмидан ҳудуддаги қалъаларни ўрганишда муҳим ютуқларга эришганлар. Тўққалъа, Миздахкон, Катта Айбуйирқалъа, Девкесган, Бутентовқалъа 1,2, Қўрғонқалъа, Қалъажиқ, Чилпиқ каби қадимги даврга оид бир қатор ёдгорликларда стационар тадқиқот ишларини олиб борганлар. Улар томонидан Хоразм вилоятининг археологик харитаси тузилди. М.Мамбетуллаев Ойбуйирқалъа ёдгорлигини ўрганиш орқали Марказий Осиё бўйича энг қадимий ёзувни аниқлаган[20]. Хива шаҳрида олиб борган тадқиқот ишлари натижасида унинг 2500 йиллик тарихга эга эканлигини асослаб берган[21].

Ўзбекистон мустақилликни қўлга киритгач, институтнинг етакчи олимлари томонидан қадимги Хоразм ҳудудида археологик тадқиқот ишлари янада кенг кўламда давом эттирилди. Жанубий Хоразмнинг антик даврга оид ёдгорликлари тадқиқ қилинди[22]. Қадимги давр қалъаларининг фортификацияси, мудофаа тизимлари ўрганилди[23]. Хорасмийларнинг жанубдан миграцияси

[19] Воробьева М.Г. Дингильже: Усадьба I тысячелетия до н.э. в древном Хорезме. // МХЭ. Вып. 9. – Москва: Наука, 1973. – 220 с; Городище Топрак кала. Раскопки 1965 – 1975 гг. / Отв.ред. Е.Е.Незарик, Ю.А.Рапопорт. – Москва: Наука, 1981. – 150 с; Кой – Крылган – кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в. н.э. – Москва: Наука, 1967. – 348 с. ва бқ.

[20] Мамбетуллаев М.М., Ходжаниязов Г. Раскопки городища Айбуйир кала. // АО. 1977. Москва: 1978.

[21] Мамбетуллаев М., Р.Абдиримов Основные этапы развития города Хивы. // Общественные науки в Узбекистане. 1997. №7-8. -С.3-9.

[22] Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – IV в. н.э.). Автореф. на соис.уч.ст.докт. ист.наук. – Тошкент. 1994.

[23] Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O`zbekiston, 2007; Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009; Ходжаниязов Г. Фортификация городища Акшахан – кала. // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд: МИЦАИ, 2013. – С. 109 – 128.

борасида янги қарашлар илгари сурилди[24]. Жанубий Хоразм ҳудудидан мил.авв. VIII–V асрларга оид кўчманчи чорвадорлар маданияти –Мешекли ва Уч ўчоқ ёдгорликлари топилди ва у ерда стационар тадқиқот ишлари олиб борилди[25]. Ёдгорликлар сакларнинг, яъни автохтон чорвадор қабилаларнинг макони эканлиги асосланган.

Тарих, археология ва этнография институти археолог олимлари В.Н.Ягодин, Ғ.Ходжаниязовлар 1995 йилдан Ташхирмон воҳасида олиб борилган археологик тадқиқот ишлари натижасида қадимги Хоразмнинг йирик марказий шаҳари – Оқчахон қалъа ёдгорлиги аниқланди. Кейинги йилларда бу ёдгорликда Австралиянинг Сидней университети олимлар билан тадқиқот ишларини давом эттирганлар. Оқшахонқалъа ибодатхонасидан қадимги Хоразмнинг мил.авв. IV асрга оид хоразмшоҳларнинг портретлари, зардуштий худоларининг олти метрлик деворий суратлари ва табиати тасвирланган рангли деворий суратлар топилган.

Хумбузтепа ёдгорлиги XX асрнинг 70 йиллари охирларида М.Мамбетуллаев, XX асрнинг 90-йиллари ва XXI асрнинг бошларида С.Р.Болелов, XXI асрнинг 10- йилларида С.Р.Баратов ва Б.П.Саъдуллаевлар томонидан ўрганилган. Ёдгорлик мил.авв.VII асрнинг охири – мил.авв.VI асрнинг биринчи ярмида вужудга келганлигини ва унинг қадимги Хоразмнинг кулолчилик маркази бўлганлиги асосланган. С.Б.Болелов Хумбузтепанинг учта ривожланиш даврини аниқлаган[26]. С.Р.Баратов ёдгорликнинг энг пастки маданий қатламини очган.

1995 йилда “Қорақалпоғистон–Австралия” халқаро археологик экспедицияси Қадимги Хоразмнинг марказий шаҳри Оқшахонқалъа ҳамкорликдаги тадқиқот ишларини бошлаганлар. Ёдгорлик мил.авв. IV асрда бунёд этилган[27]. Оқчахон қалъада олиб борилган тадқиқотлар натижасида унинг икки қисмдан иборат бўлганлиги, мустаҳкам мудофаа тизими мавжудлиги аниқланди. Бу ёдгорликдан мил.авв. II-I асрларга оид деворий суратлар топилди. Бу Ўзбекистон ҳудуди бўйича топилган энг қадимги деворий сурат бўлган. Унда Хоразм ҳукмдорлари, ўсимликлар, қушлар ва зардуштийлик худоларининг тасвирлари акс этган эди.

---

[24] Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016. – С. 13 – 49; Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007. – Б. 22 – 34.

[25] Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4 – сон. – Самарканд, 2014. – С. 30 – 40.

[26] Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс. до н.э.). / Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд – Ташкент: МИЦАИ, 2013. – С. 5 – 19.

[27] Ходжаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акшахан кале. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар- 2000 йил. 1-сон. –Самарқанд. 2001. – С.175-181.

Қадимги Хоразмнинг шаҳарларини археологик жиҳатдан ўрганиш бугунги кунда кенг миқёсда давом этмоқда. 2019 йилда Россиянинг Шарқ Давлат музейи, Россия ФА Археология институти билан ҳамкорлик асосида Қорақалпоғистон–Россия Жанубий Орололди комплекс археологик экспедицияси ташкил қилинди. Ҳамкорлик давомида Устютда кўчманчи чорвадорларнинг Гунжели қўрғонлари ва Катта Қирққизқалъа ёдгорликларда тадқиқот ишлари олиб бордилар[28].

Қадимги Хоразмда шаҳарсозлик маданияти Ахамонийлар империяси ҳукмронлигидан олдин вужудга келган. Ахамонийлар қадимги Хоразмда ўзининг ҳукмронлигини ўрнатган бўлса-да, жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишига таъсир кўрсатмаганлар. Қадимги Хоразм ҳудудидан ахамонийлар услуби бунёд этилган Қалъалиқир қалъасигина аниқланган. Мил.авв.V асрнинг охири – IV асрнинг бошларида ўз мустақил тараққиёт йўлини бошлаган қадимги Хоразм давлатида шаҳарсозлик маданиятини кенг ривож топган.

Фойланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алламбергенов М. Қадимий мудофаа қўрғонлари. – Тошкент, 2007. 32-б.
2. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма. // Ўзбекистон тарихи. № 4. 2007. – Б. 22 – 34; Хорезм в истории государственности Узбекистана.
3. Баратов С.Р. Новые археологические материалы к истории древнего Хорезма. // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 4 – сон. – Самарканд, 2014. – С. 30 – 40.
4. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqua. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016. – С. 13 – 49.
5. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс. до н.э.). / Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд – Ташкент: МИЦАИ, 2013. – С. 5 – 19.
6. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма. // ВДИ. 1997. № 2.

[28] Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С. Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-Кызе // Восток (Oriens). 2019. № 6. С. 52–70.

7. Воробьева М.Г., Лапиров – Скобло М.С., Незарик Е.Е., Археологические работы в Хазораспе в 1958 – 1960 гг. // МХЭ. – Москва: Наука, 1963. Вып.6. – С. 157 – 201.

8. Воробьева М.Г. Дингильже: Усадьба I тысячелетия до н.э. в древнем Хорезме. // МХЭ. Вып. 9. – Москва: Наука, 1973. – 220 с.

9. Городище Топрак кала. Раскопки 1965 – 1975 гг. / Отв.ред. Е.Е.Незарик, Ю.А.Рапопорт. – Москва: Наука, 1981. – 150 с.

10. Джаббаров И. Древный Хорезм – страна высокой культуры и уникальной духовности (Этно-исторические очерки). – М.: ИЭАРАН, 2014. 304 с.

11. Мамбетуллаев М.М., Ходжаниязов Г. Раскопки городища Айбуйир кала. // АО. 1977. Москва: 1978.

12. Мамбетуллаев М. Хумбузтепе – керамический центр южного Хорезма. // Археология Приаралья. Вып. II. – Ташкент. 1984.

13. Мамбетуллаев М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения в IV в. до н.э. – IV в. н.э.). Автореф. на соис.уч.ст.докт. ист.наук. – Тошкент. 1994.

14. Мамбетуллаев М., Р.Абдиримов Основные этапы развития города Хивы. // Общественные науки в Узбекистане. 1997. №7-8. -С.3-9.

15. Собиров Қ. Хоразмнинг қишлоқ ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009.

16. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.

17. оджаниязов Г.Х., Ягодин В.Н., Хелмс С.У., Макларен Б.П. Раскопки на Акшахан кале. //Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар- 2000 йил. 1-сон. – Самарқанд. 2001. – С.175-181.

18. Ходжаниязов Ғ. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2007.

19. Ходжаниязов Г. Фортификация городища Акшахан – кала. // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд: МИЦАИ, 2013. – С. 109 – 128.

20. Китов Е.П., Болелов С.Б., Балахванцев А.С. Возвращение в Древний Хорезм: исследования совместной российско-каракалпакской экспедиции на Устюрте и Большом Кырк-Кызе // Восток (Oriens). 2019. № 6. С. 52–70.

21. Кой – Крылган – кала – памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н.э. – IV в. н.э. – Москва: Наука, 1967. – 348 с.

22. http://kronk.spb.ru/library/mhe.htm

23. http://kronk.spb.ru/library/trhaee.htm

САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ ЧАСТИ РЕЧИ

Кабулова Наргиза Адилбековна
учитель русского языка школы номер 8 город
Ургенч Хорезмской области
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295291

Аннотация. В данной статье рассказывается о самостоятельных частях речи.

Ключевые слова: части речи, имя существительное, имя прилагательное, местоимение, глагол, наречие.

Слова русского языка делят на самостоятельные и служебные части речи в соответствии с их грамматическими и синтактическими признаками.

Части речи — это лексико-грамматические классы слов, обладающие одним общим значением, сходными морфологическими и синтаксическими признаками. Например, некоторые слова имеют общее значение предметности (небо, красота). Другие слова объединяет способность обозначать признак, качество или принадлежность (синий, добрый, дедушкин). Многочисленная группа слов обозначает действие или состояние (увлечь, почувствовать) и т. д.

Самостоятельные части речи — это слова, которые являются членами предложения и имеют лексическое значение. Они называют предметы, признаки предметов, действия, количества или указывают на них. К самостоятельным частям речи относятся: существительные, прилагательные, числительные, местоимения, глаголы и наречия.

Имя существительное - часть речи, которая обозначает предмет и отвечает на вопросы кто? что? Предметом в грамматике называется всё то, о чем можно спросить **кто это? что это?** По значению имена существительные делятся на собственные и нарицательные, одушевленные и неодушевленные. Имена существительные относятся к мужскому, женскому или среднему роду. Имена существительные по родам не изменяются. Имена существительные изменяются по падежам и по числам.

Начальная форма имени существительного - именительный падеж единственного числа. В предложении имена существительные чаще всего бывают подлежащим и дополнением, а так же несогласованным определением, приложением, обстоятельством и именной частью составного сказуемого.

Имя прилагательное — часть речи, которая обозначает признак предмета и отвечает на вопросы какой? какая? какое? чей? Под признаком в грамматике

принято понимать свойства, принадлежность, количества и тд., характеризующие предметы. По значению и форме различают разряды прилагательных: **качественные, относительные и притяжательные.** Имена прилагательные завися от существительных, согласуются с ними, т.е. ставятся в том же падеже, числе, роде, что и существительные, к которым они относятся. Начальная форма имен прилагательных — именительный падеж в единственном числе мужского рода. Имена прилагательные бывают в **полной** и в **краткой** форме (только качественные). В предложении прилагательные в полной форме, как правило, бывают согласованными определениями, иногда являются именной частью составного сказуемого. Прилагательные в краткой форме употребляются только как сказуемые. Качественные прилагательные имеют сравнительную и превосходную степень

Имя числительное — часть речи, которая обозначает количество предметов, число, а также порядок предметов при счете. По значению и грамматическим признакам имена числительные делятся на количественные и порядковые. **Количественные** числительные обозначают количество или число и отвечают на вопрос сколько? **Порядковые** числительные обозначают порядок предметов при счете и отвечают на вопросы какой? какая? какое? какие? Количество могут обозначать и другие часть речи. Числительные можно записать словами и цифрами, а другие части речи — только словами: три лошади — тройка лошадей. Имена числительные изменяются по падежам. Начальная форма числительного — именительный падеж. В предложении имена числительные бывают подлежащим, сказуемым, определением, обстоятельством времени. Имя числительное, обозначающее количество, в сочетании с существительными является одним членом предложения.

Местоимение — часть речи, которая указывает на предметы, признаки и количества, но не называет и.т. Начальная форма местоимений — именительный падеж единственного числа. В предложении местоимения употребляются в роли подлежащего, определения, дополнения, реже — обстоятельства, также местоимение может употребляться в роли сказуемого.

По своему значению и грамматическим признакам местоимения делятся на несколько разрядов:

- **личные** (я, ты, он, она)
- **возвратное** (себя)
- **вопросительные** (кто, что, какой)
- **относительные** (кто, какой, чем, который)
- **неопределенные** (некто, нечто, некоторый)
- **отрицательные** (никто, ничто, сколько-то)
- **притяжательные** (мой, твой, наш, свой)

- **указательные** (тот, этот, такой, таков, столько)
- **определительные** (весь, всякий, другой)

Глагол — часть речи, которая обозначает действие или состояние предмета и отвечает на вопросы что делать? что сделать? Глаголы бывают несовершенного и совершенного вида. Глаголы делятся на переходные и непереходные. Глаголы изменяются по наклонениям. Глагол имеет начальную форму, которая называется неопределенной формой глагола (или инфинитивом). Она не показывает ни времени, ни числа, ни лица, ни рода. Глаголы в предложении являются сказуемыми. Неопределенная форма глагола может входить в составное сказуемое, может быть подлежащим, дополнением, определением, обстоятельством.

Наречие — часть речи, которая обозначает признак действия, признак предмета и другого признака. Наречие могут относиться к глаголу, к его особым формам - причастию и деепричастию, а также к имени существительному, имени прилагательному и другому наречию. Наречие обозначает признак действия, если присоединяется к глаголу и деепричастию. Наречие обозначает признак предмета, если присоединяется к имени существительному. Наречие обозначает признак другого признака, если присоединяется к прилагательному, причастию и другому наречию. Наречие не изменяется, т.е. не склоняется и не спрягается. В предложении наречия чаще всего бывают обстоятельствами. Некоторые наречия могут быть сказуемыми.

Литературы:

1. Милославский, И.Г. Современный русский язык. Культура речи и грамматика: учебное пособие для академического бакалавриата / И.Г. Милославский. — 2-е изд., испр. и доп. — Москва: Издательство Юрайт, 2018.
2. www. reallanguageclub.grammatika russkogoyazyka
3. www. ритаколесник. rf

HISSIY TOLIQISH SINDROMI VA UNING OMILLARINI NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI

Samatova Sanobar Nazarovna
Respublika o‘rta tibbiyot va farmaseftika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali o‘quv uslubiy bo‘lim uslubchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295295

Annotatsiya: Inson idrok etish, xotirlash, xayol surish va fikrlash jarayonida faqat voqelikni bilib qolmay, balki hayotdagi u yoki bu narsalarga munosabat bildiradi, unda ularga nisbatan ijobiy yoki salbiy his-tuyg‘u uygonadi.

Mamnun bo‘lish, suyunish, g‘azablanish kabilar his-tuyg‘ularning kurinishlaridir. His-tuyg‘ular kishining o‘z hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashg‘ul bo‘layotganiga nisbatan o‘zicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuyg‘ular o‘zining kechishiga ko‘ra o‘zgarib turadigan psixik jarayondir, umuman olganda inson omili bu-inson hayoti va inson psixikasidir, Ushbu maqolada muhim ahamiyat kasb etuvchi tomoni insonni psixologik,ijtimoiy va tibbiyot tomonidan o‘rganish, uning ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir.

Tayanch so‘z, iboralar: His-tuyg‘ular, hissiy toliqish sindromi, psixik jarayon, tibbiyot, ehtiyoj, stress, emotsiya.

Insonni o‘rganish va uning his-tuyg‘ularni boshdan kechirishning turli shakllari-emotsiya, affekt, kayfiyat, kuchli hayajonlanish (stress), ehtiros ko‘rinishlariga ega bo‘ladi. His-tuyg‘ular shaxsning emotsional sohasini tashkil etadi.

Kishida his-tuyg‘ular uning extiyojlari qondirilishi jarayoni qanday kechayotganligi belgisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Barcha kasalliklar psixik jarayonlarda o‘z aksini topadi, emotsional holatlar, his-tuyg‘ularning kechishi ham miya faoliyatining natijasini tashkil qiladi. Emotsiyaning paydo bo‘lishi tashqi olamda ro‘y beradigan o‘zgarishlardan boshlanadi. Bu o‘zgarishlar kishi hayoti va faoliyatining jonlanishiga yoki pasayishiga, bir xil ehtiyojlarning paydo bo‘lishiga yoki yo‘qolishiga, kishi organizmi ichida yuz beradigan jarayonlardagi o‘zgarishlarga olib boradi. His-tuyg‘ular kechishiga oid fiziologik jarayonlar ham murakkab shartsiz va shartli reflekslar bilan bog‘liqdir.

Inson organizmidagi fizologik o‘zgarishlar “Hissiyot” (“emotsiya”)va “his-tuyg‘u” degan so‘zlar ko‘pincha sinonimlar sifatida qo‘llaniladi. Torroq ma’noda olganda, bu qandaydir biroz doimiyroq his-tuyg‘ularning bevosita va vaqtincha boshdan kechirilishdan iboratdir. “Emotsiya” so‘zi ruhiy hayajonlanish, ruhiy

xarakterlanish degan ma’noni beradi va o‘z o‘rnida har bitta biologik jarayonlar insonni organizmidagi o‘zgarishlar emotsiya bilan bog‘liqdir.

Emotsiyalar stenik va astenik turlarga bo‘linadi. Stenik hislar kishining g‘ayratlantirsa, astenik hislar esa uning faoliyatini susaytirib yuboradi.

Kishini tez chulg‘ab oladigan va shiddat bilan o‘tib ketadigan his-tuyg‘u affekt (hissiy portlash) deb aytiladi. Bu paytda kishi ong bilan ishlay olmaydi, o‘zini boshqara olmaydi, nazorat keskin susayib ketadi, iroda o‘ziga buysunmaydi.

Kayfiyatlar uncha kuchli bo‘lmagan, lekin uzoq vaqt davom etadigan barkaror xisdir. Kayfiyat shodu-xurramlik yoki kayguli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonli yoki mayuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik kabilar tarzida kechadi.

Stress – kuchli xissiy zurikishdan iborat jarayon. Hissiy zurikish xavfxatar tugilgan, kishi xafa bulgan, uyalgan, taxlika ostida kolgan vaziyatlarda ruy beradi.

Ehtiroslar deb kishi xatti-xarakatlari yunalishini belgilaydigan, barkaror, chukur va kuchli xislarga aytiladi. Masalan, rassomlikka, musikaga extiros, bedana urishtirish kabilarga extiros.

His-tuyg‘ular xayvonlarga ham xos. Lekin insonning his-tuyg‘ulari uz mazmuni va kechishiga ko‘ra hayvonnikidan tubdan farq kiladi. Masalan, jirkanish, faxrlanish, xasad qilish, shodu-xurramlik, zerikish, hurmat qilish, burchni xis etish kabilar faqat insonga xos bo‘ladi.

Intellektual aqliy his-tuyg‘ularga bilishga qiziqish, ajablanish, shubhalanish, taajjublanish, ishonch kabi hislar kiradi. Bularning barchasi ijobiy harakterga ega bo‘lib kishini bilishga, o‘rganishga, ishtiyoq bilan ishlashga undaydi.

Estetik his-tuyg‘ularga bizning go‘zal, chiroyli, yoqimli narsalardan zavqlanishimiz, shodlanishimiz, huzur qilishimiz, rohatlanishimiz kabilar kiradi. Bu hislarning manbai go‘zal tabiat, san’at, adabiyot, chiroyli turmush kabilar bo‘lishi mumkin.

Intellektual, ma’naviy, estetik tuyg‘ularni faoliyat va muomala jarayonida boshdan kechiramiz. Sotsial voqelikka nisbatan butun xissiy munosabatlar boyligini ifodalagani uchun ularni yuksak his-tuyg‘ular deb ham aytamiz.

Insonni hissiyot yoki tuyg‘usi - emotsiya shaxs ruhiy hayotining shunday ko‘rinmas tomoniki, bunda tashqi ta’sirotning harakteri va shaxsning unga bo‘lgan munosabatlari ifodalanadi. Ba’zi predmetlar, voqealar, xarakatlar shaxsni quvontiradi, huzur bag‘ishlaydi, xursand qiladi. Ba’zi predmetlar esa shaxsni xafa qiladi, qaxr-g‘azabini qo‘zg‘aydi, behuzur qiladi. Tashqi ta’sirotning harakteriga (ijobiy yoki salbiyligiga) qarab shaxs unga nisbatan o‘zining munosabatini bildiradi. Tashqi ta’sirotning yoqimli tomonlari shaxsda ijobiy munosabatlarni vujudga keltiradi. Maza kilish, qoyil qilish, huzur-halovat, sevinch, quvonch, xursandchilik kabi holatlar ijobiy munosabatning ko‘rinishlaridir. Tashqi ta’sirotning noxush, yoqimsiz tomonlari shaxsda salbiy munosabatlarni paydo qiladi g‘azablanish, ranjish,

xafalik, qo‘rqish, behuzur bo‘lish kabilar salbiy munosabatning ko‘rinishidir.Inson o‘zining kundalik faoliyatida turli-tuman hissiy xolatlarni boshdan kechiradi. Agar u xavf ostida bo‘lsa, qo‘rquvni his qiladi, muvaffaqiyatga erishsa, zavqlanadi, intilish va xarakatlari to‘g‘ri, unumli ro‘yobga chiqsa, quvonadi, ruhi ko‘tariladi. Demak, shaxsda turli his-tuyg‘ularning vujudga kelish manbai uning ehtiyojlari, natijalari va istaklaridir. Inson qanchalik ruhiy tetiklik bo‘lsa tibbiy yordamga ehtiyoji kam bo‘ladi.

Toliqish – organizmning aloxida fiziologik holati bo‘lib, uzoq vaqt yoki zo‘r berib ishlash natijasida paydo bo‘ladi va ish qobiliyatining pasayishi bilan ifodalanadi. Ob’ektiv jihatidan yomonlashuvida va miqdoriy kamayishida yuzaga chiqadi. Sub’ektiv jihatidan toliqish odamning charchoq xis qilishi bilan ifodalanadi. U qator fiziologik (diqqat funktsiyasining èmonlashuvi, mushak chidamining pasayishi, ish bajarish bilan bog‘liq protsesslar koordinatsiyasining buzilishi) va bioximiyaviy (qonda qand miqdorining pasayishi, sut kislota darajasining oshishi va boshqalar) ko‘rsatkichlar bo‘yicha aniqlanadi.

Tibbiyotda toliqishning tabiatini tushuntirib beradigan qator nazariyalar mavjud. Biroq tadqiqotlar bu nazariyaning asossiz ekanini ko‘rsatdi, chunki toliqish energetik resurslar (glikogen) tugamasdan oldin ham yuz berishi mumkin.

Boshqa nazariya tarafdorlari (Veyxard va boshqalar) toliqishni organizmda “toliqish zaharlari” hosil bo‘lishi bilan tushuntirganlar. Bu nazariya ham noto‘g‘ri bo‘lib chiqdi, chunki intoksikatsiya hodisalari toliqmagan mushak ekstrakti yuborilgan hayvonlarda ham paydo bo‘lgan. I.M.Sechenov birinchi marta toliqishning his qilish manbai markaziy nerv sistemasidagina bo‘ladi, degan g‘oyani baèn qildi. I.P.Pavlov toliqishning asosiy sababi markaziy nerv tizimining funktsional holatining o‘zgarishida – bosh miya po‘stlog‘ida deb hisobladi. Ishlash natijasida bosh miya po‘stlog‘ida tarqalgan tormozlanish protsessi vujudga keladi, bu po‘stloq hujayralarini holsizlanishidan saqlab turadi. Bu nazariya shuningdek shu qobiliyatiga odamning emotsional xolati ta’sirini ham tushuntiradi (ruxlantiradigan so‘z, musiqadan keyin, ishga qiziqish bo‘lganda va shu kabilarda toliqishning bartaraf bo‘lishi). Toliqish, aftidan, butun organizm funktsional holatining o‘zgarishi bilan izohlanib, bunda markaziy nerv tizimidagi o‘zgarishlarning roli yetakchi hisoblanadi. O‘ta toliqish uchun bosh og‘rig‘i, uyqusizlik, gunohkor bo‘lmasligi, arzimas narsalarda achchiqlanish, xotiraning susayiishi, organizm odamning pasayib ketishi xos. SHu munosabat bilan bizning mamlakatimizda ish kuni va ish haftasini qisqartirib borish bo‘yicha olib borilaètgan tadbirkorning ahamiyati nihoyatda katta. Ish davrlari bilan ular o‘rtasidagi tanaffuslarni navbatlashning oqilona sistemasi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosamiz shundan iboratki, insonni hayotdagi har bitta kuchi emotsiyalanishu kuchli stressga tushushi va kuchli quvonch belgilari shuni ko‘rsatadiki, ilmiy asoslar biologik o‘zgarishlarga olib keladi.

Maxsus adabiyotlar.

1. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: OPI, 2003.
2. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.
4. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish / Monografiya. – T.: Fan, 2004.
5. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchi-larining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. – T.: “Fan va texnologiya” nashrièti, 2013.

NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATINING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Xamrayeva Zulayxo Egamovna
Respublika o‘rta tibbiyot va farmaseftika xodimlar malakasini oshirish va ixtisoslashtirish markazi Jizzax filialida kata o‘qituvchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295316

Annotatsiya: Pedagog nutqining madaniyligi – uning bilim darajasi, aql-idrokining ko‘lami, fikrlashdagi yetukligi bilan bir qatorda - ona tilining boyligidan foydalana bilishiga ham bog‘liq.

Til – har bir pedagogning kuroli, fikrning bevosita voqelikka chiqishidir. Donolar ta’kidlaganlaridek, inson akd-zakovati, tafakkuri va ongining eng boy yutuqlari, teran bilimlar, keng miqyosli ilm-fanlar, otashin his-tuyg‘ular nutqda ochiq-oydin, jarangdor va jozibador ifodalanmasa, ko‘pchilikka noma’lum bo‘lib qolaveradi. Binobarin, pedagogning, notiqning vazifasi bayon etiladigan fikrlarni tinglovchilar bevosita qabul qilib olishiga erishishdan iborat. Bu esa notiqning o‘z fikrini qanday shaklda ifoda qilishiga bog‘liqligi muhim sanaladi.

Tayanch so‘z, iboralar: Nutq madaniyati, til, so‘z, nutq, his-tuyg‘u, badiiy tasvir, fikr, aql-zakovat, tafakkur.

Respublika o‘rta tibbiyot va farmaseftika xodimlar malakasini oshirishva ixtisoslashtirish markazida faoliyat olib boradigan pedagog-o‘qituvchilarning tili tinglovchilarning his-tuyg‘ularini uyg‘otadigan, ularni qiziqtiradigan, diqqat-e’tiborini nutq mavzuiga jalb etadigan bo‘lishi lozim. Mavzuni tushunarli va ishonarli qilib bayon etish pedagog muvaffaqiyatining garovidir.

Til – moddiy va ma’naviy ishlab chiqariganing samarasi; uzluksiz sa’y-harakat, imo-ishora, bahslashuv va muloqot oqibatida vujudga kelgan ma’naviy boylikning billur qotishmasidir. Til - har qanday millatning qalbi.

Pedagogning nutq madaniyatini egallashida ona tilidan keyingi asosiy o‘rinni badiiy adabiyot egallaydi. Uni muttasil va muntazam o‘qib borish notiqning so‘z boyligini oshirishiga, tasvirli ifodalarni, badiiy iboralarni ko‘proq egallab olishiga, xalq orasida keng tarqalgan adabiy til boyliklarini terib, o‘zlashtirib olishiga katta yordam beradi. Badiiy adabiyot notiqni maishiy turmush, ijtimoiy hayot bilan o‘zi bilganidan ko‘ra chuqurroq tanishtiradi, fikrlash miqyosini yanada kengaytiradi, madaniy saviyasini oshiradi, mantiqiy tafakkur salohiyatini boyitadi.

Har qanday sohada faoliyat yuritsada badiiy adabiyotni muntazam o‘qib boradigan xalq oldida tez-tez so‘zga chiqib turuvchi pedagog, rahbar o‘z nutqida badiiy tasvirlardan o‘rinli foydalanadi, hayotdaga ayrim voqealarni, shaxslarni badiiy

adabiyot qahramonlari bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo‘ladi, natijada uning nutqi jonli, hayotiy, ta’sirli bo‘ladi.

Pedagogning so‘z boyligi katta va xilma-xil bo‘lsa, uning nutqi jozibali hamda ko‘rkam bo‘ladi. Buning uchun o‘z mutaxassisligi sohasidagi barcha asosiy tushuncha, atama va kategoriyalarni puxta bilishi, o‘z o‘rnida, ya’ni aralashtirmasdan, almashtirmasdan qo‘llay olishi kerak. Shu bilan birga, u ilmiy, siyosiy adabiyotni, jumladan yurtboshimiz asarlarini, badiiy adabiyotni diqqat bilan, sinchiklab, muttasil o‘qib bormog‘i lozim.

Tibbiyotda faoliyat olib borayotgan pedagoglarimizning so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, e’tibori, nufuzi shunchalik baland bo‘ladi, tinglovchining ongiga ta’siri kuchli bo‘ladi, nafaqat tibbiy yordamga borganda misli ko‘rilmagan so‘z sehri har bittasini o‘rniga qo‘yib so‘zlar rang-baranglik bilan ifoda etish bu mahoratdir.

Pedagogaing asosiy quroli – so‘z. U qayralgan, binobarin, o‘tkir, ko‘p qirrali bo‘lishi, vaqt o‘tishi bilan o‘tmaslashib bormasligi lozim. Buning uchun pedagog badiiy adabiyotni, izohli lug‘atlarni, qomuslarni ko‘p o‘qishi, mutolaa qilishi, notanish so‘zlarni yon daftariga izoxlab yozib olishi, vaqti-vaqti bilan takrorlab turishini tavsiya etamiz.

Biroq pedagog so‘z, atama (termin), hikmatli so‘z, mshsol, ideomatik (aniq tarjima qilib bo‘lmaydigan) iboralarni nafaqat bilishi, balki ularni mohirlik bilan o‘z o‘rnida ishlata olishi, jonli, qiziqarli, ravon, tushunarli, zeriktirmaydigan qilib so‘zlay olishi ham zarur. Shundagina uning va’zi, ma’ruzasi badhazm bo‘lmaydi, talabalarni o‘ziga zanjirband qilib oladi, shunda ular vaqt o‘tganini ham, charchaganlarini ham bilmay qoladilar.

Pedagog nimani gapirishnigina emas, balki qanday gapirishni ham bilishi kerak. Mohir pedagog nutq madaniyatini targ‘ib etuvchi, bunga qiziquvchilarga murabbiylik, ustozlik qiluvchi kishi hamdir. Nutq madaniyati nazariyotchilaridan biri aytganidek, o‘z ona tilini o‘rganish, undan mohirona foydalanish - ulug‘ ish; agar kishi tilni aniq-ravshan bilib olmasa, insoniyat tafakkurining eng buyuk yutuqlari, eng chuqur bilimlar va g‘oyat otashin his-tuyg‘ular unga noma’lum bo‘lib qolaveradi; binobarin, so‘z fikrni ifodalash qurolidir.

Pedagog so‘zlayotganda o‘z-o‘zidan mamnun bo‘lib, tinglovchilarni mudroq bostiradig‘an va ko‘nglini yoqimli xomxayollarga chulg‘aydigan dabdabali so‘zlarni ishlatishi kerak emas; aksincha, talabalar qalbida fuqarolik tuyg‘usini, jasoratini, milliy istikdoldan faxrlanish hislarini muttasil jo‘sh urdiradigan, fidokorlikka, faollikka da’vat etadigan ta’sirchan iboralarni, qalblarni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadigan ilhombaxsh so‘zlarni tanlashi kerak.

Ma’ruza o‘qiyotganda ortiqcha so‘zlarni, kirish gaplarni, pisandnamo iboralarni bildiradigan jumlalarni aslo ishlatmaslikni tavsiya etamiz. Ular sirasiga ba’zi o‘qituvchilar hadeb takrorlab, ishlataveradigan: o‘rtoqlar, bilasizmi, ko‘ribsizki, men

sizga aytsam, sirasini aytganda, dedi, demak, kabi so‘zlar kiradi. Yana ba’zi pedagoglar ammo-lekin, va yana butkul, shuni utstirish kerakki, shuni ta’kidlamots lozimki, nimsning nimasi, anu, manu kabi o‘rinsiz, bema’ni so‘z va iboralarni ishlatadilar. Pedagog bularga aslo yo‘l qo‘ymasligа lozim; aks holda nutqning "suvi ko‘p-u, tuzi oz" bo‘ladi, tinglovchilarning jig‘iga tegadi, fikrini chalg‘itadi, zeriktiradi, vaqtini oladi, notiqning obro‘ini tushiradi; ba’zi tinglovchilar, nutqni tinglash o‘rniga unda ishlatilgan "xashaki" so‘zlarni sanab o‘tiradilar. Bu so‘zlarni hadeb takrorlayverish nutqning sifatiga juda salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Har bir pedagog so‘zlaganda falsafiy madaniyat talablariga doim rioya qilishni tavsiya etamiz. Bu madaniyatning talabiga binoan, yozishda, so‘zlashda tushuncha, kategoriya, atama va termin; tsonun, va printsip; teorema, aksioma, gipoteza kabilarni faqat o‘z o‘rnida, almashtirmasdan, ayniylashtirshsdan ishlatish shart.

Nutq madaniyatida, notiqdik san’atida so‘z tanlash juda muhim. So‘zning qudrati, ta’siri, aks ta’siri, oqibatiyu samarasi hakdda hikmatli so‘zlar o‘zbek adabiyotida mo‘l-ko‘ldir. Quyidaga hikmatlar, oz bo‘lsa-da, shundan dalolat beradi: So‘zdan kuchliroq qurol yo‘q; so‘z inson (binobarin, notiq) qudratining qo‘mondonidir; so‘z – hayotning o‘tkir quroli; so‘z notiqning zanglamas, doim keskir qurolidir. O‘z o‘rnida, vaqtida astoydil aytilgan oddiy so‘z ham aksariyat hollarda yengalmas kuchga aylanadi; bunday so‘z notiqning o‘zini qiziqtirib, goho qizishtirib, faollashtirib yuborishi, tinglovchilarni nafisligi bilan mahliyo qilishi mumkin.

So‘zlarni sinchkovlik bilan tanlab, ulardan mohirona foydalanib ifodalangan har bir fikr, g‘oya yoki ta’limot ta’sir miqyosi tugamaydigan kuchdir; uning kuchi nihoyasiz. So‘z - goho xatarli qurol, chunki so‘z yarasidan ko‘ra tig‘ jarohatini davolash oson. So‘z sehridan kuchlirok sehr yo‘q; jonli, ya’ni hayotiy, jarangdor, ta’sirli, jozibali so‘z mo‘’jizalar yaratishga qodir.

So‘z tanlashda sheva, lahjalarda ishlatiladigan, o‘zbek adabiy tili leksikoniga sig‘maydigan aravaq (quloqdan yiring oqishi), sippanmoq (sirpanmoq), tebramoq (tebranmoq), uylamoq, (uylantirmoq), tagoyi (tog‘a), emranmoq (so‘limoq), shimirmoq (simirmoq), shipirmoq (supirmoq), yumurtqa (tuxum) singari so‘zlarni ishlatmaslikni tavsiya etamiz.

Pedagoglar, oliy maktab rahbarlari uchun ibratli hikmat-lardan yana biri shundaki, biror so‘z aytishdan avval uning ortidan "keladigan" oqibatini o‘ylash zarur. Yaxshi o‘ylanmay, oqibatini oldindan chamalamay, ixtiyoriy yoki beixtiyor aytib yuboriladigan so‘z haqiqatga xilof bo‘lishi, muayyan bir kishining izzat-nafsini yerga urishi, qalbini jarohatlashi mumkin.

Pedagogning zo‘rma-zo‘raki, sun’iy tarzda so‘z ishlatishi aksariyat hollarda nutqni buzadi. Eng o‘rinli so‘zlar o‘z-o‘zidan quyilib keladigan, oldindan saralab, chamalab qo‘yilgan so‘zlardir; ularni nutq jarayonining o‘zi aytib turgandek bo‘ladi.

Mohir pedagog tinglovchilarning nutq madaniyatini shaxsiy namunasi bilan ham tarbiyalaydi. Masalan, u tinglovchi, talaba, aspirantlarda o‘z fikrini aniq ifodalash, har bir so‘z va jumlani ishlatishga mas’uliyat bilan yondashish; o‘zbek tilining g‘oyat boy xazinasidaga so‘z javohirlaridan ustalik bilan foydapanish malakasini sayqal toptira oladi; ibratomuz so‘zlari, yoqimli iboralari, namunali tashbihlarga boy jumlalari, jarangdor talaffuzi bilan tinglovchilarda ko‘nikma, mahorat hosil etadi.

Til boyliga – tafakkur boyligining, til qashshoqligi - fikr qashshokligining ifodasi ekanligini quyidagi mulohazalar tasdiklaydi: agar pedagogning nutqi lanj, sust, poyma-poy, no‘noq, mujmai, qovushmagan bo‘lsa, demak, uning fikrlash qobiliyati ham shuqdaydir. Har bir notiq o‘z nutqida aniqlik, ravshanlik, jozibadorlikka erishmog‘i zarur; bu esa voizdan so‘zlashda qisqapik, lo‘ndapik, ixchamlikni tapab etadi. Tildagi aniq-ravshanlik - tiniq fikrning tashqi ifodasi, chunki shunday fikrgina ravshan so‘zlashni ta’minlaydi. So‘zlashdagi noaniklik, shubhasiz, fikrdagi noanikdikning belgisvdir.

Qaysi pedagog aniq-ravshan fikr qilsa, uni xuddi shunday bayon etadi. Tilning, ma’noning anikdigi, o‘tkirligiga intilish notiqdik san’atini egallash uchun kurashishdir; bu kurash qaichalik keskin, o‘tkir, amiq yo‘lga solingan bo‘lsa, nutq shu qadar samarali bo‘ladi. So‘zga jo bo‘lmaydigan hech bir mazmun yo‘q. Pedagogning nutqidaga so‘zlar - fikrlarining ifodasidir, shu bois bu so‘zlar ifoda etilayotgan fikrga muvofiq bo‘lmasa, so‘z ham mujmal, mavhum bo‘ladi. Mohir notiqdagina fikr ravshanligi ifoda anikdiga bilan hamohang bo‘ladi.

Pedagoglarga tavsiyamiz shuki, ular nimani gapirish har doim ham zarur bo‘lavermasligini va qanday gapirish doimo lozimligini unutmasinlar. Eng qimmatli g‘oya, fikr, dastur ham, agar mahoratsiz ifodalansa, o‘zining qiymatini yo‘qotadi; mabodo takrorlanaversa, tinglovchini diqqinafas qiladi. Demak, fikrning anikdigi va ravshanligi ifodaning ham shunday bo‘lishini ta’minlaydi.

Pedagog tilining go‘zalligi, birinchi navbatda, uning aniqliga va mazmundorligidadir. Oddiygina qilib, ravshan bayon etish mumkin bo‘lmagan hech bir fikr, g‘oya yoki ta’limot yo‘q. Binobarin, aniqlik nutqning asosiy fazilatidir. Pedagogning tili, so‘zi qanchalik oddiy bo‘lsa, shunchalik ravshan bo‘ladi; so‘z qanchalik o‘z o‘rnida ishlatilsa, nutqni shunchalik kuchli, jozibali va ishonchli qiladi.

Pedagog fikrining chuvalanmasligа, aksincha, tinglovchilar huzurida erkin parvoz qilishi uchun gapda qisqalik lozim, chunki fikr ortiqcha, "nishxo‘rt" so‘zlar uyumida chalkashadi. Pedagog qanchalik mohirona so‘zlamasin, keragidan ortnq, ya’ni mavzuga tegishli bo‘lmagan gaplarni ayta boshlasa, pirovardida nutq mantig‘ini yo‘qotadi, tinglovchilar miyig‘ida kula boshlaydilar.

Xullas, nutkdagi aniqlik qisqalik bilan uyg‘unlashganda ta’sirchan, xotirada saklanuvchan bo‘ladi.

Xulosa shuki, talaffuz tilning yuragi (qalban), u tilga birgina his-tuyg‘u emas,

balki ishonch, joziba ham baxsh etadi. Nutqda so‘zlarning aniq-ravshan, ohangdor va jarangdor talaffuz etilishi lektsiyani chinakamiga go‘zal, ohanrabo, dilnavoz, orombaxsh, ibratomuz qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qo‘ng‘irov R., Begmatov E., Tojiev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari. T.: 1992.
2. Tojiev Yo., Xusanova N., Tojimatov H., Yo‘ldosheva O. O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyot asoslari. T., 1994.
3. Saidov U. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. T., “Akademiya” 2007.

ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Mirzaqandova Sohibjamol Xolmo‘min qizi
Navoiy davlat pedagogika institute talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295324

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limda innavatsion texnologiyalar haqida tushunchalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogik texnologiya, yordamchi ta’lim vositalari, ta’lim berishning texnik vositalar.

Ta’lim yangi bosqichga ko‘tarilmoqda, o‘quvchilar fikr darajasi kengaymoqda, axborot olish osonlashmoqda, bunday o‘sish jarayonida o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanmaslik darsning samaradorligini pasaytirib yuboradi. Bunday hollarda o‘qituvchi o‘z kasbiga puxta yondashgan holda darslarni tashkil etsa bir umr hurmat-e’tiborda bo‘ladi. Bugungi kunda axborot ko‘lami juda kengayib ketdi. Agar o‘qituvchi o‘z ustida ishlamasa avvalgi o‘rgangan bilimlari yetarli bo‘lmay qoldi. Dars mavzulari kundalik hayotdagi keskin voqealar bilan bog‘lab o‘tilsa, turli innovatsion texnologiyalardan foydalanilsa dars esda qolishiga erishilishi mumkin. O‘qituvchi o‘quvchilarga innovatsion usullardan foydalanib, fanlararo bog‘lagan holda ekologik-gigiyenik bilimlar bilan darsni to‘ldirishi zarur.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o‘qituvchi va o‘quvchio‘quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiya tushuniladi. O‘qitish jarayonida maqsad bo‘yicha kafolatlangan natijaga erishishida qo‘llaniladigan har bir ta’lim texnologiyasi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olishi, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olishi, o‘quv jarayonida o‘quvchio‘quvchilar mustaqil fikrlay olishlari, ijodiy ishlay olishlari, izlanishlari, tahlil eta olishlari, o‘zlari xulosa chiqara olishlari, o‘zlariga, guruhga, guruh ularga baho bera olishi, o‘qituvchi ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o‘quv fanining o‘ziga xos texnologiyasi bo‘lib, ya’ni o‘quv jarayonidagi pedagogik texnologiya -bu yakka tartibdagi jarayon bo‘lib, u o‘quvchi ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir.

Ta’lim vositalari - o‘quv materialini ko‘rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o‘qitishni samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi. Ta’lim berishning texnik vositalari -o‘quv materialini ko‘rgazmali namoyish etishga, uni

tizimli yetkazib berishga yordam beradi, o‘quvchilarga o‘quv materialini tushunishlariga va eslab qolishlariga imkon beradi.Bunday vositalarga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin: diaproektor, grafoproektor, doska-bloknot, doska-stend,

Yordamchi ta’lim vositalari - grafiklar, chizmalar, na’munalar, tarqatma materiallar va boshqalar. O‘quv-uslubiy materiallar - o‘quv materiallar, o‘zlashtirilgan o‘quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular o‘quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradi (ish varaqasi, eslatma, nazorat varaqasi, matnlar). O‘quvchilarni o‘quv bilish faoliyatlarini jadallashtirishga yordam beruvchi har xil turdagi ta’lim vositalarini tanlash va ulardan foydalanish quyidagilarga bog‘liq:

1. Maqsadni belgilash;
2. Asosiy bilim manbaiga;
3. Ta’lim usuliga;
4. O‘quv materialining yangiligi va murakkabligiga;
5. O‘quvchilarni o‘quv imkoniyatlariga.

Innovatsion texnologiya- (innovatsiya inglizcha “innovate”- yangilik kiritish, yangilik, texnologiya esa yunoncha ”texnos”- san’at, mahoratva “logos”- fan) ta’lim-tarbiya shakllari, metodlari va usullariga yangicha yondashish deganidir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatiga yangilik, o‘zgarishlar kiritishdir.

Mavzuni o‘rganishning taxminiy bosqichlari quyidagilardan iborat deb bilamiz:

1. Mavzu va uning rejasi beriladi;
2. O‘quv faoliyati natijalari eslatiladi;
3. Mavzuni uning ahamiyatga qisqa to‘xtalinadi;
4. Mavzuni tushuntirish ketma- ketligi texnologik loyiha asosida o‘qituvchi maqsadiga mos kelishi lozim;
5. O‘quvchilar diqqatini jalb etib, mavzu savollari haqida muammoli vaziyatlar hosilqilish;
6. Tushuntirish jarayonida o‘quv adabiyotlari yoki tarqatma materal bilan ishlashga ahamiyat beriladi;
7. O‘quvchining tarqatma materal yoki o‘quv adabiyotlardan asosiy tushunchalarni o‘qish va yozishni tashkil etishga imkoniyat yaratish;
8. Mavzuni o‘rganish darajasini tekshirish, o‘quvchilarga og‘zaki savollar berib borish orqali (masalan, analitik geometriya tushunchasining mohiyati nima?);
9. O‘quvchilar javoblariga izoh berish yoki to‘ldirish, to‘g‘ri javoblarni rag‘batlantirish;

Maktab ta’limining bugungi vazifasi, o‘qituvchilarning yangi innovatsion axborot texnologiyalari orqali dars davomida samarali foydalanib, o‘quvchilarga ma’lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berish hisoblanadi. Shuning uchun

ham dars davomida o‘qituvchi o‘quvchilarning matematika fanini tushunarli, aniq qilib o‘rganib borishi uchun ham, darslarni yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish va o‘rgatish maqsadga muvofiqdir. Xulosa qilib aytganda aniq fanlarning o‘qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagi o‘quv mashg‘lotlariga: ya’ni ma’ruza, amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo‘llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta’lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o‘quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo‘lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S. Alixonov.”Matematika o‘qitish metodikasi”. cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi.Toshkent-2011.

2. Matematika fanini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar moduli bo‘yicha o‘quvuslubiy majmua.Termiz – 2020.

3. Umumiy o‘rta ta’limning matematika fanidan davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi.Toshkent-2017.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “MULOQOT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI

O‘g‘iljon Karimbergan qizi Egamberganova
Xorazm viloyati Yangibozor tumani 17-son umumiy
o‘rta ta’lim maktabi Boshlang‘ich ta'lim o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295328

Annotatsiya: Mazlur maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarni yanada rivojlantirish hamda buning uchun yoshlarning bilim darajasini oshirish, ularni yurtimizning ertangi kunining ishonchli shaxslari sifatida taribiyalashda pedagoglar tomonidan ta’lim tarbiyani tog‘ri tashkl etish, yoshlarni samarali bilim olishlarini ta’minlash maqsadida maktabdagi darslarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar orqali tashkil etish, o‘quvchilarning dunyoqarashini o‘stirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikrlar bildiriladi.

Kalit so‘zlar: axborot kommunikatsion texnologiyalar, “Muloqot texnologiya”.

Jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilgo‘r pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta’lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish ta’lim muassasalari va pedagoglar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Ta’limning samaradorligini oshirish uchun olib borilayotgan ishlarni, shartli ravishda, ikkiga bo‘lish mumkin: birinchisi, ta’limning (o‘qitishning) faol metodlarini qo‘llash, ikkinchisi, zamonaviy axborot vositalaridan foydalanish. Albatta, bu ikkala yo‘nalishda taklif qilinayotgan o‘qitish usullari va vositalari uzoq yillar davomida qo‘llanilib kelgan an’anaviy usullarni butunlay yaroqsiz ekanligiga ishora emas.

Ta’lim metodi o‘z-o‘zicha faol yoki passiv bo‘la olmaydi. Keyingi yillarda faol metodlar deb ataluvchi metodlar o‘quvchi va talabalarning bilish jarayonlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri faollashtirishga yo‘naltirilgandir. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash yaxshi natijalar berishi ko‘pgina psixolog – pedagog hamda metodistlar tomonidan isbotlangandir. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir o‘qituvchi o‘z kasbiy tayyorgarligini, maxoratini kuchaytirish imkoniyatiga ega. Shu bois men ham darslarimda axborot komunikatsion texnologiyalarni joriy etaman va har doim yaxshi natijalarga erishaman.

Ta’lim oluvchilarning ongliligi va faolligini oshirish uchun darsni shunday tashkil etish nazarda tutiladiki, bunda o‘quvchilar ilmiy bilimlarni amalda qo‘llab, ongli va faol egallab oladigan, ijodiy tashabbuskorligi va o‘quv faoliyatida mustaqilligi, tafakkuri, nutqi rivojlanadigan bo‘lsin. Bugungi kunda o‘qitishning keng qo‘llanadigan - o‘qituvchi tomonidan dars mavzusi maruza shaklida tushuntirish metodi orqali o‘quvchilar darsni 50 -60% o‘zlashtira oladi, agar darsni turli mutimediya va boshqa zamonaviy texnologiyalar asosida ko‘rsatib tushuntirilsa o‘zlashtirish darajasi 70 – 80% ga yetishi mumkin.

Pedagoglar tomonidan darsning samarsini yanada oshirish maqsadida, dars jarayonida o‘quvchining yanada faolligini oshirish orqali darsning o‘zlashtirish darajasini 90% gacha oshirish yo‘llari o‘ylab topildi. Ya’ni, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchi darsga qiziqadi, hamda darsning diqqat bilan tinglaydi, zamonaviy texnologialar asosida tashkil etilgan darsni kuzatadi, dars yaknida esa o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan o‘yin texnologiasi yordamida o‘quvchilar o‘zlarining biliblarini yanada chuqurroq o‘zlashtirishlari imkoni bo‘ladi. Bu yangi metodlarni ayniqsa, boshlang‘ich sinflarda qo‘llash maqsadga muvofiqdir. Sababi, boshlang‘ich sing o‘qituvchiining asosi vazifasi o‘quvchilarini darsga qiziqtirishdan iborat bo‘ladi. Hozirda pedagoglar tomonidan keng qo‘llanib kelayotgan metod “Muloqot texnologiya” sidir. Ushbu “Muloqot texnologiya” o‘quvchilarning dars jarayonida mustaqil fikrlashga, o‘z fikrlarini erkin bayon etishga hamda ularda bahslashish madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, odatda, bunday mashg‘ulot o‘quvchilarni kichik guruhlarga ajratilgan holda o‘tkaziladi.

Ushbu metod boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yanada samarali bilim olishlarini ta’minlabgina qolmay, ularning o‘z fikrlarini bayon eta olish, muloqot jarayonida nutqining chiroyli bo‘lishini, baxs – munozaraga erkin kirisha olish imkonini paydo qiladi “Muloqot texnologiya”si metodining maqsadi shundan iboratki, tanlangan mavzu, muammo asosida talabalarning fikrlarini hamda ushbu mavzuga bo‘lgan munosabatlarini aniqlash, mustaqil holda umumiy bir fikrga kelishlariga va to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga yoram berish, erkin holda bahslashishlariga sharoit yaratish, muloqotga kirish va muloqot qila olishga o‘rgatish. Metodni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi faqtgina yo‘nalish beradi, baxs- munozara mavzusi haqida tushunchalarni beradi, so‘ngra, o‘quvchilarning fikrlarni tinglaydi.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki zamonaviy ta’limning asl maqsadi ham aynan shu. Ya’ni, dars jarayonida o‘quvchilarning faolligini oshirish va o‘z fikriga ega bo‘lgan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mamarajab Tojiyev, Bo‘ri Ziyamuxamedov, Mavjuda O‘ralova “Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat fanining o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash” «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012.

2. N.X. Avliyakulov, N.N. Musaeva “Pedagogik texnologiya” «Tafakkur Bo‘stoni» Toshkent- 2012.

3. Karima Qosimova|, Safo Matchonov,Xolida G ‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva,Sharoljon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi” Toshkent«NOSIR» nashriyoti2009

4. S.Matchonov, A. Shojalilov, X. G‘ulomova, Sh. Sariyev, Z.D olimov. O‘qish kitobi (4-sinf uchun darslik). — T.: „Yangiyul polygraph service”, 2007.

TURKISTONDA JADID DIDAKTIKASINING PAYDO BO'LISHI VA ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM MUHITIDA TUTGAN O'RNI

Oydin Abduraximovna Akramova
Toshkent viloyati Bo‘stonliq tuman
2-son IDUM Ona tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295338

Annotatsiya: Turkiston o'lkasida jadid ma'rifatparlari tomonidan yangi usul maktablarining ochilishi, hamda bu maktablarda o'qitilishga mo'ljallangan darsliklarining yaratilishi jadid didaktikasining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bu maqolada jadid didaktikasining paydo bo'lishi va Abdulla Avloniyning jadid didaktikasiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi.

Tayanch tushunchalar: jadid, didaktika, darslik, ta'lim, tabiiy fanlar, usuli jadid, maktab, o'quvchi.

Jadidchilikning asl mohiyati maorifni tubdan isloh qilish uchun qaratilgan harakat hisoblanadi. Ma'lumki "jadid" so'zi "yangi", "yangilik" degan ma'nolarni anglatadi. Insoniyat tarixida jamiyatga kirib kelgan yangiliklar doimiy to'siqlar, qarshiliklarga uchraganligi sir emas. Jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ta'limda bo'ladigan jamiki o'zgarishlar xalq tomonidan osonlikcha qabul qilinmagan. Albatta, bu to'siqlar har qanday ma'rifatparvarning hayotini hatarga qo'yib, turli to'siqlardan qo'rqmay olg'a intilishida, o'zida kuch topib yo'lida davom etishida kuchli sabr va matonat talab etgan. Insonning ham jisman, ham ma'nan yuksalish davri qiyinchiliklarda toblanib, komillik sari yetaklagani bor haqiqatdir.

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasiga kirib kelgan jadidchilik harakati namoyondalari tomonidan ta'lim va tarbiya tizimining tubdan o'zgartirilishi millat ijtimoiy hayotining yaxshilanishiga ham turtki bo'ldi. Sababi, xalq ancha savodli va ma'rifatli bo'la boshladi. Turkistonga ilk jadid maktablarining ochilishi asli qrim-tatar millatiga mansub Ismoilbek G'aspirali va uning faoliyati bilan bog'liq. Ismoilbek G'aspirali ma'lum bir tartib-qoidalar asosida yangi usul maktablarining tashkil etilishini tavsiya etadi:

- *sinfda (maktabda) bolalar soni o'ttiztadan oshmashgi;*
- *bolalar faqat ikki daf a — yoz va qish boshlaridagina maktabga qabul qilinishi;*
- *har bir muallimda ko'pi bilan 3-4 sinf bo'lishi;*
- *agar maktab uch sinfdan iborat bo'lsa, darslar ketma-ket muayyan uyg'unlikda qo'yilmog'i;*

❖ *7-9 yoshdagi bola uzluksiz 7-8 soat o'qiy olmaydi. Uning uchun 5 soat kifoya.*

❖ *har darsdan so'ng 10 daqiqa tanaffus; Juma va bayram kunlari dam olinishi;*

❖ *o'n oy o'qishdan so'ng yozning issiq kunlarida ta’til bo'lishi;*

❖ *dars o'quvchini zeriktirmasligi va boshqalarga e’tibor qaratilgan edi.*

G'aspirali "usuli jadid" bilan o'qitishning qoidalarini qo'yidagicha tushuntiradi:

➢ butun alifboni birdan o'rgatish og'ir;

➢ ibtido (boshda) uch, besh harf o'rgatib borish osondir;

➢ birinchi darsdan shogirdlari yozishni boshlamasliklari darkor;

➢ darslar muayyan soatlarga, qismlarga ajratilib o'rgatilishi lozim;

➢ o'quvchi bir darsni o'zlashtirmaguncha ikkinchisiga o'tilmasligi kerak;

➢ harflar bilan tanishtirganda, ular haqida kengroq ma’lumot berilgani ma’qul;

➢ bolalarni har olti oyda imtihon qilish;

➢ yil oxirida sinfdan sinfga o'tkazish,

o'zlashtirmaganlarni sinfda qoldirish ko'zda tutiladi. Darslar har xil va har biri yarim soatdan bir soatgacha boiishi mumkin. Darslar orasida tanaffuslar bo'lmog'i kerak.

Bu qoidalar orqali Ismoilbek G'aspirali shu davrgacha bo'lgan pedagogik fikrlarni to'liq tahlil qilib, maktab tartib-qoidalariga kiritganligi ma'lum. Uning didaktikasidan ko'zlangan maqsad, avvalo, o'quvchining ta'lim olishi uchun uning fiziologik, psixologik jihatlari ham e'tiborga olinishi ko'zda tutilgan edi. Shu maqsadda ta'lim tamoyillari to'g'ri va reja asosida tanlangan edi. G'aspiralining jadid usulidagi maktab tartib-qoidalari Turkiston ma'rifatparvarlari tomonidan o'rganib chiqildi va amaliyotda joriy etildi. Jadid usulidagi maktablarning vujudga kelishi bilan ta'limda dunyoviy fanlarning ham kiritilishi yuzaga keldi. An'anaviy ta'lim berish usullarida o'zgartirishlar kiritildi. Asosan, tabiiy fanlarning kiritilishi, hamda ona tili va adabiyot fanlarining o'qitilish usullarining rivojlantirilishi bunga misol bo'la oladi. Jadid pedagoglari o'z darsliklarini yangicha yondashuv asosida yaratib, o'z darslarida undan foydalandilar. Jumladan, jadid ma'rifatparlarining yetakchi vakillaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy "usuli jadid" maktablari uchun bir qancha darsliklar yozdi. "Muxtasari tarixi islom", ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madxali jo'g'rofiya umroniy" ("Aholi jo'g'rofiyasiga kirish"), "Muxtasari jo'g'rofi rusiy" ("Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi"), "Amaliyoti islom" kabi kitoblari yangi usul maktablarida qo'llanildi.

Jadid pedagoglarining aksariyati darslik yaratish va maktab ochish ishini amalga oshirdilar. Fitratning "O'quv", "Ona tili", "Imlo masalalari", "O'zbek tilining sarfi",

"O'zbek tilining nahvi", "Adabiyot qoidalari" kabi darsliklari, Saidrasul Saidazizovning "Ustodi avval", Munavvar qori Abdurashidxonovning "Adibi avval", "Adibi soniy", Ali Asqar ibn Bayramali Kalininning "Ta’limus soniy" kabi darslik va qo'llanmalari jadid maktablarida darslik sifatida foydalanildi. Is’hoqxon Ibratning "Lug'ati sittati al-sina" nomli lug'at kitobi shu davrda nashrdan chiqdi. Mazkur lug'at jadid pedagoglar tomonidan ochilgan maktablarda rus tilini o'rganishda birdan-bir darslik-qollanma sifatida foydalanib kelindi. Tilshunoslik sohasida Is’hoqxon Ibrat ancha mukammal "Jome’ul-xutut" ("Yozuvlar majmuasi") nomli asarni yaratdi. Bu asarda muallif yozuvlarning tarixiy taraqqiyotni yoritib berishga harakat qildi. Xat-savod chiqarishga bag'ishlangan "San’ati Ibrat qalami Mirrajab Bandiy" risolasi, "Ilmi Ibrat" nomli she’rlar to'plami kabi ma’rifatparvarlik ruhi bilan yug'rilgan risola va kitoblari nashr etildi. Bunday darsliklarning ta'lim maydonida yuzaga kelishi yangi davr didaktikasining yuksalishiga zamin yaratdi.

Jadid pedagoglaridan Munavvarqori Abdurashidxonov darslarda, asosan, ko'rgazmali qurollardan foydalanishni yo'lga qo'ydi. Mahmudxo'ja Behbudiy, hamda Abdurauf Fitrat yozma va og'zaki nutq o'stirish usullarini qo'llaganligini, Abdulla Avloniy dars jarayonida ifodali o'qish turlari va texnik vositalardan foydalanganligini ko'rish mumkin. Jadid pedagogikasining yorqin vakili Abdulla Avloniyning didaktik faoliyatida ta'limning takomillashuv jarayoni kuzatildi. Abdulla Avloniy bolaga ta'lim berish bilan birga tarbiya masalasiga ham alohida yondashuv zarurligini ta'kidlaydi.Ta'lim va tarbiyani bir vaqtda amalga oshirish kerakligini aytadi. Bunda oila tarbiyasining o'rni beqiyos ekanligini hayotiy misollar orqali o'rganib, tahlil qilib beradi. Abdulla Avloniy xalqning quyi qatlami vakillarini ham o'qitish kerakligini, ularning ilm olishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish maqsadida bu sohada tashkiliy ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, Avloniy jamiyatning ziyoli vakillari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jaev, Toshpo'latbek Norbo'tabekov, Karim Norbekovlar bilan hamkorlikda "Jamiyati xayriya"ni tashkil etadi. Bu jamiyat Turkiston o'lkasida ochilgan birinchi rasmiy jamiyat hisoblanadi. "Jamiyati xayriya" tashkiloti haqida o'sha davr nashrlarida, jumladan, "Vaqt" gazetasida, keyinroq esa "Sadoyi Turkiston" gazetalarida xabarlar bosilib chiqdi.

Bu jamiyatning asosiy maqsadi kambag'al oilalar farzandlarini bepul o'qitish va ularni o'quv qurollari bilan ta'minlash, yangi ochilayotgan maktablar uchun yangi darsliklar yaratish va maktablarni yangi darsliklar bilan ta'minlash, yosh avlod ichidan eng iqtidorlilarni tanlab olib, ularni chet eldagi nufuzli ta'lim dargohlarida o'qish uchun jo'natish, yoshlarga stipendiyalar ajratish masalalariga yo'naltirilagan. Bu tashkilot qoshida "Turkiston kutubxonasi" shirkati ham tashkil etiladi. Bu shirkatning asosiy maqsadi yangi darsliklar nashr etish, chet eldan yangi nashrdagi darsliklarni sotib olish va Turkiston maktablariga arzon narxlarda tarqatish masalalari bilan shug'ullanishdan iborat edi. Turkiston o'lkasida yaratilgan deyarli barcha

darsliklar "Turkiston kutubxonasi" muassisligida bosmadan chiqarilgan. Mazkur darsliklarning oxirgi betida muallifi, narxi va qayerdan sotib olish mumkinligi haqida to'liq ma'lumot berib borilgan. "Jamiyati xayriya" tashkiloti o'lkadagi barcha ziyoli, ma'rifatli boy qatlam vakillarini o'z oldiga birlashtirgan. Ular orqali moddiy ta'minot amalga oshirilgan.

Abdulla Avloniy "usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud Milliy she’rlar" hamda "Birinchi muallim", "Turkiy Guhston yoxud Axloq", "Ikkinchi muallim", "Maktab gulistoni" kabi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratdi. 1904-yilda Avloniy Toshkentning Mirobod tumanida yangi usuldagi maktab ochdi. Maktabning o'quv jihozlarini o'zgartirdi, o'z qo'li bilan doska partalar yasadi. Maktabga qabul qilingan bolalarning asosiy qismi kambag'al oila vakillari edi. Bu maktabning dovrug'i butun Toshkentga tarqaldi. Abdulla Avloniyning ilk o'quvchilaridan biri, Toshkent davlat universitetida uzoq yillar faoliyat yuritgan taniqli pedagog, marhum Yusuf Tohiriy o'zining 1966-yil 10-noyabrda "Toshkent oqshomi" gazetasida "Dono murabbiy" deb nomlangan maqolani chop ettirdi. Bu maqolada muallif ustozi Abdulla Avloniyning Mirobod tumanida tashkil etgan maktabi haqidaga shunday deb yozadi:

"Shaharning qarama-qarshi chekkasida, temiryo'l ishchilari istiqomat qiladigan Mirobodda yangi tipdagi maktab ochilganligi haqida eshitib qoldik. Tez orada bu maktabning fazilatlari haqidagi shov-shuvlar, uning muallimi Avloniyning dovrug'i butun shaharga tarqaldi. Hammaning tilida: "Miroboddagi maktab 6 oyda o'qish-yozishni o'rgatarmish, jo'g'rofiya, hisob, tabiatni o'rganish degan darslar o'qitilarmish",- degan gap yurardi. Bizga juda sirli tuyulgan bu maktabni va uning donishmand muallimini ko'rishga oshiqardik. Nihoyat, bir kuni uch-to'rttamiz borishga jazm qildik. Maktab pastakkina, nimqorong'u bo'lib, masjid yo'lagiga joylashgan edi. Xonaning tepasida yorug'lik uchun qoldirilgan tuynukdan qish va bahorda qor bilan yomg'ir ham tushib turardi. Lekin xonada o'quvchilar va domlaning shogirdlari ko'p edi. Xayolimizda domlaning allaqanday bir sirli tomoni bor edi. Bizni qotmagina, kichik jussali, qorachadan kelgan, istarasi issiq, cho'qqi soqol bir kishi kutib oldi. Bu nomi tilga tushgan Avloniy edi. O'qishga qabul qilindik. Ko'p o'tmay ko'z oldimizda yangi bir dunyo ochilganiga to'la ishonch hosil qildik. Bolalarimizning oldi bir necha yildan beri maktabga qatnab yurgan bo'lsalar ham mirobodliklar oldida uyalib qoldik. Ular o'qish-yozishda, hisob masalalarini hal etishda, tabiat hodisalaridan xabarlari bilan hammamizni lol qoldirishdi. Ayni zamonda bizning eski maktabimiz bo'shab, Miroboddagi Abdulla Avloniy maktabi bizdan borgan bolalar bilan liq to'ldi. Shu tariqa, bu maktab tobora shuhrat topib bordi".

Bu maqoladan ko'rinib turibdiki, Avloniy maktabida o'quvchilar yangi usulda o'qitilgan, ularning bilim olishlari kuzatuv asosida bosqichma-bosqich amalga

oshirilgan. Avloniyning naqadar mahoratli, zukko pedagog bo'lganligi, maktabning sharoiti esa muallimning dars berish jarayoniga ta'sir o'tkaza olmaganligiga guvoh bo'lamiz. Zero, jamiyat taraqqiyotining asosi ta'lim bilan bog'liq masaladir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. - Toshkent, "Ma'naviyat", 2002.

2. Ulug'bek Dolimov."Milliy uyg'onish pedagogikasi" «Noshir» Тошкент – 2012.

3. R. Mavlonova, N. Vohidova, N. Raxmonqulova. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" darslik. Toshkent -2010.

UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI TARBIYALASH VA YOSHLAR MILLIY O‘ZLIGIDAN BEGONALASHUVIGA QARSHI “MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI» G‘OYASINING O‘RNI

Nigora Xolmuxammatovna Zokirova
Toshkent to‘qimachilik va engil sanoat instituti assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295370

Annotatsiya: Maqolada Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» g‘oyasining o‘rni ilmiy jihatdan asoslangan.Bugun dunyoga yangi O‘zbekiston nomi bilan balqiyotgan uchinchi Renessans g‘oyasining jozibasi shundaki, u o‘z atrofiga davlatni ham, jamiyatni ham, butun xalqni ham birlashtira oladi. Bu g‘oyaning milliy g‘oya o‘laroq keng quloch yozishi esa, nazarimizda, barchamizning uning mazmunini chuqurroq anglashimizga, teranroq mushohada yuritishimizga bog‘liq. SHu asnoda davlatimiz rahbarining «Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz.

Kalit so‘zlar: Uchinchi Renessans, yoshlar, tarbiya, milliy o‘zlikni anglash, milliy tiklanish, milliy yuksalish, fan, ta’lim, oila, mahalla.

Аннотация: В статье научно обоснована роль идеи «От национального возрождения к национальному подъему» в воспитании молодежи Третьего Возрождения и против отчуждения молодежи от своей национальной идентичности. По нашему мнению, широкое признание этой идеи в качестве национальной идеи зависит от нашего более глубокого понимания и наблюдения за ее содержанием. В этом контексте глава нашего государства сказал: «Мы ставим вопрос о Третьем Возрождении как стратегическую задачу и поднимаем его на уровень национальной идеи.

Ключевые слова: Третье Возрождение, молодежь, образование, осознание национального самосознания, национальное возрождение, национальный подъем, наука, воспитание, семья, соседство.

Abstract: The article scientifically substantiates the role of the idea "From the national revival to the national rise" in the education of the youth of the Third Renaissance and against the alienation of youth from their national identity. In our opinion, the widespread acceptance of this idea as a national idea depends on our deeper understanding and observation of its content. In this context, the head of our state said: “We raise the issue of the Third Renaissance as a strategic task and raise it to the level of a national idea.

Keywords: Third Renaissance, youth, education, awareness of national identity, national revival, national uplift, science, education, family, neighborhood.

Musulmon Uyg‘onish davrida ayniqsa arab dunyosida ta’lim, fan, adabiyot, san’at va madaniyat rivojlandi. Bag‘dod, Qohira, Damashq, Buxoro, G‘azna, Samarqand, Xorazm, Isfahon, Nishopur, Balx, Kordova, Tabriz kabi shaharlar jahonning yirik ta’lim va madaniyat markazlariga aylandi. Dunyodagi birinchi universitet musulmon davlatida ochilgan. Bu 859 yilda Marokash malikasi Fotima al-Fixri tomonidan Fezda ochilgan birinchi universitetdir. Bungacha IX asrning 20-yillarida Bag‘dodda “Bayt al-hikma” islom akademiyasi tashkil etilgan. Olimlarning ta’kidlashicha, xalifa Al-Ma’mun ochgan ushbu “Donishmandlar uyi”ga O‘rta Osiyo va Erondan ko‘plab olimlar kelib ishlashgan. Uyg‘onish davrida ta’lim va ilm-fan mayoqlari bo‘lgan bu shaharlarda Evropa, Osiyo, Afrikaning ko‘plab davlatlaridan olimlar to‘planishgan. Umuman olganda, G‘arbiy Evropada Uyg‘onish davrining tug‘ilishi va shakllanishiga musulmon Uyg‘onish davri alohida ta’sir ko‘rsatdi.

Evropada Uyg‘onish davrida insoniyatning xalqaro munosabatlari sezilarli darajada rivojlandi. Bu buyuk geografik kashfiyotlar davri edi. 1492-yilda Kristofer Kolumbning Amerikaga tashrifi, 1498-yili Vasko da Gamaning Hindistonga tashrifi, 1522-yilda Fernan Magellanning dunyo bo‘ylab mashhur ekspeditsiyasi kabi misollar Uyg‘onish davri insoniyatga nima berganligini yaqqol tushuntirib bera oladi, deb hisoblaymiz. Ulardan tashqari Uyg‘onish davri vakillaridan Dante, Galiley, Kopernik, Bruno, Monten, Rotterdam, Makiavelli, Kampanella, SHekspir kabi insoniyat ongi va umumiy bilimiga katta hissa qo‘shgan shaxslarni tilga oladigan bo‘lsak. Servantes, Mikelanjelo, Leonardo da Vinchi, keyin bu davr sivilizatsiyasi tarixida ahamiyati aniq bo‘ladi.

Musulmon Uyg‘onish davrida va undan keyingi G‘arb Uyg‘onish davrida inson, insoniylik, odob-axloq, fikr, xatti-harakat, his-tuyg‘ular birinchi o‘ringa chiqqan bo‘lsa, qozoqlar kabi mustamlakalashgan xalqning uyg‘onishida millat va inson chambarchas uzviylikda ko‘rindi. Bu barcha mustamlakalashgan Osiyo, Evropa va Amerika xalqlariga xos xususiyatdir. Masalan, 19-asr oxiridan 20-asr boshlarigacha Hindistondagi Bengal Uyg‘onish davrini eslatib o‘tishimiz mumkin. Uning asosiy figurasi R. Tagor edi. Bolgariyada 18—19-asrlar oxiridagi bunday uyg‘onish “bolgar milliy uyg‘onish davri” deb ataldi. Bunday misollarni ko‘p keltirish mumkin. Umuman olganda, bunday xalqlarda Uyg‘onish davri milliy-ozodlik harakati bilan kechayotganini tushunish qiyin emas. 20-asr boshidagi Uyg‘onish davrini “O‘zbek xalqi milliy uyg‘onish davri” deb atash to‘g‘ri bo‘ladi. CHunki, jadid ma’rifatparvarlari davrida butun bir xalqni savxodini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Jadidchilik harakatining avvalgi barcha harakatlardan asosiy farqi, kerak bo‘lsa, hatto afzalligi ham uning fikriy-madaniy va intellektual-siyosiy harakat ekanligidadir. Ochig‘i, bu jadidchilik harakati 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida zamonaviy bilim olgan o‘zbek ziyolilari qarashlariga asoslangan siyosiy kurashdir. O‘zining tarixiy missiyasiga xos bo‘lgan jadidchilik harakati davri, bizningcha, bir

qancha uyg‘onish davri arboblarini vujudga keltirdi. «Bugungi kunda butun xalqimizning qalbidan chuqur joy olgan, umummilliy harakatga aylanib borayotgan „YAngi O‘zbekiston“ g‘oyasi zamirida ana shunday ulug‘ ajdodlarimiz, umuman olganda, milliy tariximizda Birinchi va Ikkinchi uyg‘onish davrlariga asos solgan alloma bobolarimizning orzu-intilishlari va armonlari ham mujassam, desak, adashmagan bo‘lamiz» [1], — dedi davlat rahbari SHavkat Mirziyoev.

Uyg‘onish davri odami kim va uning xususiyatlari qanday, degan savolni bersak, quyidagicha javob bergan bo‘lardik. “Uyg‘onish davri shaxsi” deganda inson va xalqning insonparvarlik xarakterini aks ettirgan va uni keng targ‘ib qilgan, insonparvarlik g‘oyalarini o‘z ijodi va kurashining tayanchiga aylantirgan, tarix va madaniyat, san’at, ta’lim sohalarida ulkan burilish yasagan shaxs tushuniladi. Biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limi, oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo‘lg‘usi Renessansning to‘rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz [2].

Milliy ilm-fanning tug‘ilishi va shakllanishi o‘sha xalq uchun doimo o‘ziga xos hodisadir. Bu odamlarning ulg‘ayib, tafakkuri yangi sifat bosqichiga ko‘tarilganini yaqqol ko‘rsatadigan misoldir. Bilimli, ilmli xalq o‘z bilimi evaziga dunyodagi narsa va hodisalarning sir va sirlarini anglay boshlaydi, hayoti engillashadi, yangi hunar va kasblarni egallaydi. U buni hayotida yaratishni boshlaydi. Ayni shu ma’noda “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari» g‘oyasini Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi kurashdagi ahamiyati beqiyos hisoblanadi. O‘zbekistonda uchinchi uyg‘onish davri boshlandi. O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: «Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda» [3], - degan so‘zi yangradi.

Renessans, ya’ni Uyg‘onish faqat Evropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib o‘rgangan olimlarning ishlari shuni ko‘rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr avval (IX-XII acrlar) ulkan madaniy ko‘tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg‘or insonparvarlik g‘oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida “Musulmon Renessansi” (A.Mets) yoki “SHarq Uyg‘onishi” (N.I.Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. SHarq Uyg‘onish davri ham ulug‘ allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni etishtirdi. SHarqdagi Birinchi Uyg‘onish davrida yurtimizdan Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad al-Farg‘oniy, Mahmud Qoshg‘ariy va YUsuf Xos Hojiblar etishib chiqqan bo‘lsalar, Ikkinchi

Uyg‘onish davrida esa, xususan, temuriylar xonadoni hukm surgan bosqichda Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur kabi daho ijodkorlar o‘lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo‘nalishga asos soldi [4].

Mustaqillik bilan bog‘liq bo‘lgan globallashuv jarayoni sharoitida Uchinchi Renessans yoshlarini tarbiyalash va yoshlar milliy o‘zligidan begonalashuviga qarshi kurashish jarayoni Yangi O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi bilan hamohang kechayotganini hisobga olgan ma’qul. Bu tarixiy ong asosida rivojlangan maishiy madaniyatdagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liq edi. Bir qarashda tarixiy ong madaniyatning bir qismidek tuyulishi mumkin. Zero, madaniy jarayon insonning uzluksiz tarixiy jarayondagi rolini yaqqol his etishiga imkon beradi. Biroq, tarixiy ong va madaniyat bir-biriga yaqin bo‘lsa-da, tarixiy ong madaniy meros bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa ham, bular turli xil ijtimoiy-falsafiy tushunchalar ekanligini hisobga olish kerak. Har holda, madaniyat jamiyatning o‘ziga xos tarixiy ongidir. Aksincha, madaniyatdagi hodisalar jamiyat hayotida tarixiy voqeaga aylanadi. Shunga asoslanib, o‘sha jamiyatga xos bo‘lgan o‘z-o‘zini anglash va ong shakllana boshlaydi. Demak, bu erda millatning o‘z-o‘zini anglashi tarixiy ongning muhim tarkibiy qismidir. Binobarin, madaniyat xalqning tarixiy taqdiriga beqiyos ta’sir ko‘rsatadi. Chunki xalq xotirasi, mentaliteti madaniyatda saqlanib qoladi va bu jamiyatning tarixiy ongini chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Boshqa tomondan, tarixiy ongsiz meros madaniyatni anglash qiyinligi sir emas. SHunday qilib, tarixiy ong va madaniyatning integratsiyalashuvi xalqning milliy ongida namoyon bo‘ladi. Milliy ong tarixiy ongning belgilovchi qismiga aylanadi. SHuning uchun madaniyat tarixiy ongning bir shakli ekanligini inkor eta olmaymiz. Buzilgan aql o‘ziga xos madaniyatni yaratadi.

Maktabdagi bezorilik, qo‘rqitish va qiynoqqa solish bu holatlarning asosiy sabablari bo‘lmoqda. Ajablanarli tomoni, o‘z joniga qasd qilayotganlarning 70 foizi sog‘lom bo‘lib, ularning aksariyati qishloqlarda yashagan [5]. Demak, qanchadan-qancha ota-onalar qora libosga burkanib, farzandlarini yo‘qotib, ming-minglab yuraklar ezilib ketgan. Bugun ota-onalar farzandlari maktabga borsa, uylariga eson-omon qaytib kelishadimi, degan savol tug‘iladi. Ishda bo‘lganlarida, o‘g‘li kechki payt ularni kutib olishidan xavotirda edilar. Ertaga kim bevaqt o‘lim eshigini taqillatadi, kim yig‘laydi?! Bu falokat qaerdan keldi? Tashqi ko‘rinishi butun, ichi tutunli bolalar qaerdan keladi? Nega bolalar beshikdan chiqolmasa, bunchalik hafsalasi pir bo‘ladi? Farzandlari uchun o‘tga ham, suvga ham borishga tayyor bo‘lgan ota-onaning ko‘z yoshlari nega qurimaydi? Mutaxassislar bu haqda nima deydi? Ularning bir qismi o‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishiga ijtimoiy sharoit, oilaviy va ijtimoiy tarbiyaning etarli darajada berilmaganligi, zo‘ravonlik,

diniy oqimlar faoliyati, giyohvandlik sabab bo‘layotganini ta’kidlamoqda. O‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishi, birinchi navbatda, televizordagi mushtlashuvlar va qonli filmlar, shuningdek hammani daromadidan mahrum qilib, boyligini oshirishga urinayotgan ota-onalarning ish bilan bandligi aybdor, deganlar ham bor. Jamiyatdagi o‘zgarishlar, turli qiyinchiliklar bolalar psixologiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. O‘z joniga qasd qilish - bu tushunmovchilik va begonalashuv muammosi hisoblanadi. Ilmiy ish doirasida o‘tkazilgan “Bolalarning o‘z joniga qasd qilishi» bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotda bolaning og‘ir ijtimoiy-psixologik ahvoli, millatlararo munosabatlar, oilaviy hayotdagi noqulaylik, qo‘llab-quvvatlanmasligi kabi omillar bunga asosiy sabab sifatida ko‘rsatilganligi ham bejiz emas.

Dunyoning axborotlashuvi, insonning tabiatdan begonalashishi, O‘z joniga qasd qilish holatlarining ko‘payishiga asosan yoshlar o‘rtasida turli xil kompyuter o‘yinlari sabab bo‘ldi. O‘smirlar ko‘pincha tanqidni qabul qilmagani va qiyinchiliklarga toqat qilmagani uchun o‘z joniga qasd qiladi. Bundan tashqari, giyohvandlar va ichkilikbozlar o‘z joniga qasd qilish ehtimoli ko‘proq. YOshlar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish holatlari ko‘payib borayotgani mamlakatimizda yoshlarga oid siyosat pastligidan dalolat beradi. SHifokorlar o‘z joniga qasd qilish fikrini kasallikning bir turi deb aytishsa, psixologlar depressiyaning namoyon bo‘lishini aytishadi.

2021 yilda 148 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchisi va 314 nafar o‘rta maktab o‘quvchisi ruhiy kasallik, jumladan, ruhiy tushkunlik, yomon o‘qish va ota-onalari bilan munosabatlardagi kelishmovchilikni bahona qilib, o‘z joniga qasd qilgan [6]. Yoshlarning yangi imkoniyatlardan foydalana olishi bevosita ularga bog‘liqligi aniq. Biroq, davlat va jamiyatning ulushi bor. YOshlar etarlicha axborot ta’minoti va barcha shart-sharoit yaratilsa, o‘z mustaqil ta’limini samarali amalga oshirishi mumkin. Va agar biz ularning 32 media-ta’lim xabardorligiga erishmoqchi bo‘lsak, ular nafaqat media-kontentni iste’mol qilishlari, balki uni tanqidiy baholashni o‘rganishlari va media ma’lumotlarining ijodiy foydalanuvchilariga aylanishlari kerak. Va buning uchun unga tegishli media ta’limini berish kerak va buni maktab yoshidan boshlagan ma’qul. Bolalar axborot olish, media-kontentni ishlab chiqarish va ularni almashish uchun yangi texnologiyalardan samarali foydalanishlari kerak. Eng muhimi, tajovuzkor yoki xavfli xarakterdagi media-kontentni to‘g‘ri tanlash, tan olish va ba’zi hollarda tanqidiy baholay olishdir. Masalan, Buyuk Britaniyada media-ta’lim sohasidagi pedagogik strategiyaga ko‘ra, o‘qituvchilar birinchi navbatda shaxs shaxsini, ijodiy va kommunikativ qobiliyatlarini, shuningdek, ommaviy axborot vositalarini tanqidiy fikrlash, tushunish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. ommaviy axborot vositalari orqali matnlar. U asosiy fanlar bilan birgalikda, shuningdek, mustaqil ravishda yoshlar markazlarida o‘qitilishi mumkin [7].

Dunyoda ham milliy, ham umuminsoniy boshlang‘ichlar azaldan mavjud bo‘lgan. Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab butun dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan va bir-biridan bexabar inson jamoalari, odatda, deyarli bir xil qonunlar ostida yashab, faoliyat yuritgan. Insonlar o‘z ehtiyojlari va tabiatiga ko‘ra ham umuminsoniy, ham shaxsiy mavjudot bo‘lganidek, xalqlar ham shundaydir. Milliylik va insoniylik sintezi taraqqiyotga to‘siq emas, balki obektiv qonuniyatdir. Darhaqiqat, bugungi kunda dunyoda ro‘y berayotgan ko‘plab voqea va vaziyatlarni etnik, fuqarolik va milliy o‘ziga xoslik, milliy ong, millatlarning tiklanishi, ommaviy etnik-siyosiy safarbarlik, etnik-siyosiy ziddiyatlar, ziddiyatlar kabi omillarni hisobga olmasdan turib tushunib bo‘lmaydi. Umuman olganda, olimlarning fikricha, millatlararo munosabatlarga bevosita va bilvosita ta’sir etuvchi omillarga ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik, siyosiy, geosiyosiy, ishsizlik, inson huquqlarini himoya qilish, etnik guruhlarning haqiqiy holati, alohida xalqlar ichidagi tinchlik, madaniyat va urf-odatlar darajasi kiradi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib xulosa sifatida aytadigan bo‘lsak, milliy o‘zlikni anglash masalasi ma’naviy yangilanish jarayonining o‘zagi hisoblanadi. Chunki siyosiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va madaniyatning holati milliy va fuqarolik o‘ziga xosligiga erishishga bog‘liq bo‘ladi. Ya’ni, globallashuv davrida, shiddat bilan o‘zgarib borayotgan dunyoda har bir xalq o‘ziga xosligini yo‘qotmasdan, balki o‘zi duch kelayotgan xavf-xatarlarni to‘g‘ri engib o‘tish, omon qolish uchun uni yanada mustahkamlashi kerak. Faqat “xilma-xillikdagi birlik” siyosiy formulasi asosida biz tinchlik, totuvlik, totuvlik va barqarorlikni saqlaymiz, kelajakka katta ishonch bilan qaraymiz, strategik rejalar tuzamiz va ularni amalga oshiramiz, raqobatbardosh O‘zbekiston davlatini shakllantiramiz.

Adabiyotlar:

1. https://www.gazeta.uz/uz/2021/08/17/renaissance/#!.
2. https://xs.uz/uzkr/59537.
3. https://xs.uz/uzkr/post/ozbekistonda-yangi-ujgonish-uchinchi-renessans.
4. https://yuz.uz/news/uchinchi-uygonish-davri-sarchashmalariga-bir-nazar.
5. https://zamin.uz/jamiyat/43361-usmirlar-nega-uz-joniga-qasd-qiladi.html.
6. https://uza.uz/uz/posts/covid-19-pandemiyasi-davrida-yapon-ayollari-orasida-oz-zhoniga-qasd-qilish-darazhasi-oshdi_355413?q=%2Fposts%2Fcovid-19-pandemiyasi-davrida-yapon-ayollari-orasida-oz-zhoniga-qasd-qilish-darazhasi-oshdi_355413.
7. Belinskaya E., Jichkina A. Sovremennыe issledovaniya virtualnoy kommunikatsii: problemы, gipotezы, rezultatы. – M.: YUNITI-DANA, 2004.

TA’LIMNING “BILISH”GA OID MODELI - SHAXSNI UYG‘UN RIVOJLANTIRISH

Faxriddin Joniyev
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat” kafedrasi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
https://doi.org/10.5281/zenodo.7295375

Annotatsiya: Maqolada ta’limning “Bilish” modeliga oid shaxs uyg‘unligini rivojlantirish muammosi ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Ta’lim sifati muammosi talabalarning kasbiy kuch-imkoniyatlarini dolzarblashtirish masalasi bilan mustahkam bog‘liq. Ayni paytda “kasbiy kuch-imkoniyat” tushunchasining mohiyatini aniqlash talab etilishi asoslab berildi.
Kalit so‘zlar: ta’lim, bilish, model, shaxs, shaxs uyg‘unligi, imkoniyat.
Аннотация: В статье научно проанализирована проблема развития гармонии личности, связанная с моделью обучения «Знание». Проблема качества образования тесно связана с вопросом обновления профессиональных возможностей обучающихся. При этом обосновывается необходимость определения сущности понятия «профессиональные силы и возможности».
Ключевые слова: образование, познание, модель, личность, соответствие личности, возможность.
Abstract: The article scientifically analyzes the problem of the development of personal harmony associated with the learning model «Knowledge». The problem of the quality of education is closely related to the issue of updating the professional capabilities of students. At the same time, the necessity of defining the essence of the concept of «professional forces and opportunities» is substantiated.
Keywords: education, cognition, model, personality, personality conformity, opportunity.

“Kuch-imkoniyat” tushunchasining o‘zi etarli darajada keng qo‘llaniladi va ehtimol shu bois ko‘pgina lug‘atlarda uning aniq, ravshan izohi beriladi. Masalan, pedagogika bo‘yicha lug‘at-ma’lumotnomada “kuch-imkoniyat” (potensial)ning (lotincha- potentia — kuch, qudrat) quyidagicha tushunchasi berilgan: mavjud vositalar majmui, biror-bir sohadagi imkoniyat, masalan, biror-bir mamlakatning harbiy qudrati, ya’ni uning urush olib borish uchun iqtisodiy, ma’naviy-siyosiy va harbiy resurslari [3].

Tushunchalar va atamalar lug‘atida esa boshqacha ta’rif beriladi. Unga ko‘ra kuch-imkoniyat — bu biror bir vazifani hal etish uchun harakatga keltirilishi, foydalanilishi mumkin bo‘lgan manbalar, imkoniyatlar, ma’lum bir sohada yakka

shaxs, tashkilot, davlat, jamiyatning imkoniyatlar majmuidir. SHuningdek, bunda mehnat, kadrlar, sanoat, harbiy, boshqaruv, ta’lim, intellektual, ilmiy-texnik va boshqa “kuch-imkoniyat”lari (salohiyat) farqlanadi [5].

Ko‘rinib turibdiki, mazkur izoh mohiyatan, oldingilarini takrorlaydi, lekin kuch-imkoniyatlar xilma-xilligini ko‘rsatib beradi. Kuch-imkoniyat (potensial) zahira sifatida hozirda, asl ma’nosida - kelajak sharoitida faollashtiriladi. Lekin har doim ham amalga oshirilmaydigan imkoniyatlar ham bo‘ladi.

Kasb-hunar - bu insonning jamiyatga xizmat qilishidagi asosiy vosita sanaladi. U jamiyatda ijodiy kuch-imkoniyatlarini moddiy ta’minot manbaini amalga oshirishning qudratli vositasidir. Ta’limning “bilish”ga oid modeli avvalo, tarbiyaga emas, o‘qishga yo‘naltirilgan. U qadriyatga oid fikrlashni emas, faqat ssientistik (bilishga taalluqli) fikrlashni, mas’uliyat tafakkurini emas, faqat amalga oshirish tafakkurini shakllantiradi. XX asr tarixining dramatik voqealari ishonchli tarzda shuni tasdiqlaydiki, fan o‘z-o‘zidan ijtimoiy taraqqiyot omili bo‘la olmaydi. Madaniyat etarli darajada bo‘lmasa fan taraqqiyoti, ahloqiy taraqqiyot insoniyatning o‘ziga xavf tug‘diruvchi ko‘plab muammolarni (ekologik, terrorchilik, jinoyatchilik va hokazo) keltirib chiqaradi.

Bunday vaziyatda maqsadni quyish, ta’limning qadriyatli asoslarini, uning darajasi, shakllari va vositalarini yangidan belgilashning majburiy zaruriyati yuzaga keldi. Ta’kidlash joizki, talabalarning shaxs sifatida yutuqqa erishish masalasi, kam o‘rganilgan muammolar sirasiga kiradi va bu boradagi fikr-mulohazalar ko‘plab bahsli, bir-biriga bevosita zid nuqtai nazarlarga duch keladi. Mazkur muammoning qo‘yilishi ham qator savollarni keltirib chiqaradiki, ularga qat’iy javob topish anchayin murakkabdir.

Talabalarning shaxsiy (yoki o‘qish va shaxsga oid) yutuqlari tuzilmasi qanaqa? Fikrimizcha, shaxs sifatida yutuqlar tuzilmasini aniqlashda shaxs tuzilmasi tushunchasidan qochish kerak, biroq shaxsning o‘zi, uning tuzilmasi falsafa, psixologiya, pedagogikaga oid adabiyotlarda turli mualliflar tomonidan turlicha ta’riflanadi.

Umuman, shaxs tuzilmasining har qanday jamiyat uchun maqbul bo‘ladigan, invariant (bir ma’noli) ta’rifi bo‘lishi mumkinmi? Mutaxassislar ta’kidlashicha, har bir davr uchun o‘ziga xos ijtimoiylashgan me’yorga ega, ya’ni turli jamiyat va jamiyat tizimlari uchun turlicha ijtimoiy omillar va ijtimoiylashtirish omillari bo‘ladi. Rivojlanayotgan shaxs esa bir xildagi qat’iy qonunlar va me’yorlarga toqat qila olmaydi [6].

Zamonaviy pedagogika fanida va amaliyotida o‘quvchilar hamda talabalar yutuqlari muammosiga asosiy ikkita yondoshuv mavjud. Birinchisi an’anaviy bo‘lib, o‘quvchilarning ball bilan baholanadigan bilim, malaka, o‘zlashtirish darajasining hajmi o‘sib borayotganligini yutuqlar sifatida talqin etadi. Bunday holatda

pedagogning diqqat markazida tom ma’noda o‘quv faoliyati bo‘lib qoladi. YUtuqlar tashxisi esa o‘qiganlik darajasini qayd etadi. O‘qiganlik darajasi bu o‘rinda tor didaktik ma’noda tushuniladi va o‘quv faoliyatining usullari hamda bilimni o‘zlashtirish darajasi tushuniladi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar va talabalarning muvaffaqiyatga erishish muammosiga nisbatan ikkinchi yondoshuv ularning shaxs sifatida rivojlanish dinamikasini hisobga olish zaruriyatini tan olishdan kelib chiqadi. Bunday holatda shaxsiyat o‘zlashtirmalari, ularning ta’lim jarayonidagi shaxsiy siljishlari, shaxs sifatidagi ta’limi shakllanishi talabalar yutuqlarining ko‘rsatkichlari sanaladi. Biz ikkinchi yondoshuv tarafdorimiz.

Shaxsni uyg‘un rivojlantirish maqsadlari ko‘tarib chiqilishiga qaramasdan o‘n yillar davomida bizdagi ta’lim tizimida o‘quvchilar yutuqlarini baholashga nisbatan birinchi - an’anaviy yondoshuv mavjud edi. Bunday holat quyidagi bir qator sabablardan kelib chiqqan:

- asosiy maqsadi ijrochi shaxsni, iborali qilib aytganda ijtimoiy tizimning “g‘ildirakchasi” va “vintchasi”ni shakllantirish bo‘lgan ta’limning markazlashgan-ijtimoiy xususiyati;

- yagona pedagogik jarayoni har birining o‘z maqsadi, vositasi, natijasi, faoliyat sub’ektlari bo‘lgan ikkita jarayonga — ta’lim hamda tarbiyaga sun’iy ravishda bo‘linganligi;

- o‘quvchilarning shaxsli o‘zlashtirishlarini baholashning munosib va ishonchli vositalari mavjud emasligi va hokazo.

Albatta, ta’lim sifati muammosining bunday modelida o‘quvchilar yutuqlari muammosi ajralib turmagan, faqat avvalo, pedagog faoliyati bilan bog‘liq ta’lim jarayonining samarasi, ta’siri ta’riflangan, xolos.

Bunday yondoshuv borasida SH.Qurbonov va E.Seytxalilov “ta’lim sifati” kategoriyasini ko‘rib chiqa turib shunday ta’kidlaydilar: “Ta’lim-natija sifati” — bu “shaxs madaniyati” kategoriyasi, ijtimoiy-fuqarolik etukligi, bilim, mahorat, ijodiy qobiliyat darajasi orqali qayd etiladigan shaxs sifatlaridir (1).

I.YA. Lerner, I.P. Subetto nuqtai nazaridan ta’lim sifati haqida shaxsning madaniyati, ijtimoiy tajribasini tavsiflovchi tuzilmasidagi yangi qirralar majmui hamda uyg‘unligiga ko‘ra xulosa chiqarish mumkin [8,9].

Omil (lotincha “factor” — qiluvchi, ishlab chiqaruvchi) — harakatlanuvchi kuch, biror-bir jarayon, hodisa sabablari; muhim jarayon, hodisadagi muhim shart-sharoitdir.

Talabalarning qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun yaratiladigan pedagogik shart-sharoitlar sifatni ko‘tarish omillari sanaladi. Qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirishning asosiy mezonlari va ko‘rsatkich darajalari 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

Talabalar shaxsiyatining qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirish mezonlari va daraja ko‘rsatkichlari.

Ko‘rsatkichlar	Qadriyat yo‘nalishlarining rivojlanishi darajasi		
	Yuqori	o‘rta	Past
Sabab ko‘rsatkichlar			
Talabaning bo‘lajak kasbiga qiziqishi. Mutaxassis sifatida shu kasb bo‘yicha ishlash istagi	Kasbiy faoliyatga qiziqish va uni anglash	Hamroh sabablar	Salbiy Sabablar
Kognitiv (bevosita) ko‘rsatkichlar			
Talabaning bilimlari: asosiy va ixtisoslik fanlari hamda uni o‘zlashtirish usullari bo‘yicha; shaxs, mustaqil o‘qish usullari, o‘zini o‘zi nazorat qilish, tashkil qilish va individuallikni anglash to‘g‘risida; mutaxassisning shaxsiy tavsifnomasi sifatida uning ijodi to‘g‘risida	bilim chuqur, tizimli, shaxs sifatida qabul qilingan, interiallashgan	Bilim chuqur, lekin tizimli emas; bilimga nisbatan shaxsiy munosabat yo‘q	O‘quv o‘zlashtirishning bevosita darajasi
Faoliyat ko‘rsatkichlari			
Amalga oshira olish qobiliyati: ta’lim faoliyati va hatti-harakati asoslarini reflekslashtirish; mustaqil ta’lim olish, o‘zini o‘zi nazorat qilish, ishni tashkillashtirish va o‘ziga xoslikni anglash	Mahorat ijodiy mazmunga ega	Mahorat reproduktiv mazmunga ega	Mahorat shakllanmagan
Qadriyat ko‘rsatkichlari			
Hayotga, tabiatga, jamiyatga muhabbat; o‘z ishiga muhabbat; kasbga va kasbiy faoliyatga muhabbat, undan yuqori	Qadriyat yo‘nalishlari shakllangan, «Dunyo», «Men», «Kelajak» obrazlari tasavvuri mavjud	Qadriyat munosabatlari ishlab chiqilgan	Qadriyat yo‘nalishlari shakllanmagan

natijalarga erishishga intilish; o‘z vazifalarini yaxshi hal etishga intilishda o‘z g‘ururini anglash tuyg‘usi			

Xulosa sifatida aytish jozki, yangi ta’lim paradigmasiga o‘tish sharoitida ta’lim nafaqat jamiyat va davlat ehtiyojlariga, shuningdek shaxsning ijtimoiy-madaniy moslashuvi va rivojlanishidagi imkoniyatlari hamda ehtiyojlariga ham mo‘ljallanishi lozimligini pedagogik hamjamiyat yaxshi tushunadi. Shuningdek, shaxs sifatida shakllanish jarayoni rivojlantirish, bilim, mahorat va ko‘nikmani o‘zlashtirishda oldinga individual siljishini kuzatish zaruriyati masalasi ham kelib chiqadi va uni oldini olish muhim vazifa hisoblanadi..

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. 20- 30 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – Toshkent: Sharq, 1997. 31- 63 b.
3. Межериков В.А. Введение в педагогическую деятельность: Учеб. пособие для студентов пед. учеб. заведений / М.Н. Ермоленко, В.А. Межериков. - Москва: Пед. об-во России, 2002.- 268 с.
4. Межериков В.А. Словарь-справочник по педагогике / В.А. Межериков. - Москва: ТЦ СФЕРА, 2005. - 448 с.
5. Попов В.Г. Молодежь в условиях трансформации общества / В.Г. Попов // Социологические исследования. - 1998. Вып. 5. - С. 74-75.
6. Иваненков С.П. Проблемы социализации современной молодежи / С.П. Иваненков. - Оренбург: Печатный дом «ДИМУР». 1999. - 68 с.
7. Лернер И.Я. Качество знаний учащихся. Какими они должны быть? / И. Я. Лернер. - Москва: Знание, 1978. - 48 с.
8. Лернер И.Я. Процесс обучения и его закономерности / И.Я. Лернер. - Москва: Знание, 1980. - 33 с.
9. Субетто А.И. Качество непрерывного образования в: состояние, тенденции, проблемы и перспективы (опыт мониторинга) / А.И. Субетто. - СПб.; - Москва: Исследоват. центр проблем качества подгот. специалистов, 2000. - 498 с.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	М.С.Амирова БОЛАЛАР ВА ЎСМИРЛАРДА TORCH ИНФЕКЦИЯЛАРИ ПЕРСИСТЕНЦИЯСИ БИЛАН БРОНХИАЛ АСТМА КАСАЛЛИГИНИНГ КЛИНИК КЕЧИШИ	4
2.	Malohatoy Mo‘minjonovna Karimova SHARQ MUTAFAKKIRLARI TA’LIMOTLARI VA ULARNING TARBIVIY AHAMIYATI	7
3.	Sh.Sh Matirzaev EKOLOGIK KOMPITENSIYA VA KOMMUNIKATIV KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH HAMDA EKOLOGIK TA’LIMNING DOLZARBLIGI	11
4.	Muxammadali Qahramon o‘g‘li Nabiyev O‘RTA ASRLARDA MADRASALAR FAOLIYATI VA ULARDA O‘QITILGAN FANLAR	17
5.	Lobar Rajabboyeva ZULFIYA QUROLBOY QIZI ASARLARIDA AYOLLAR RUHIY OLAMI TASVIRI	21
6.	Zarina Po‘latova HUQUQ FANINI O‘QITISHDA ILMIY ADABIYOTLARDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI	25
7.	NOTARIUSLAR FAOLIYATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISLOHOTLAR Dostonbek Rustamovich Naimov	28
8.	TASVIRIY SAN’AT FANIDA O‘YINLARNING AHAMIYATI Farida Shavkatulloyevna Zayniyeva	31
9.	“YADRO ENERGETIKASINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH Asror Ramazanov Anvar Narzulloyev	34
10.	COLEOPTERA ТУРКУМИ ВАКИЛЛАРИНИНГ БИОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ ВА КУРАШ ЧОРАЛАРИ Жаҳонгир Абдурахмонович Хайдаров Нозимжон Низомжон ўғли Розиқжонов Баҳром Акрамович Эшонқулов	38
11.	БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИНИНГ ИЖТИМОИЙ – МАДАНИЙ КОМПЕТЕНТЦИЯСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ТИЗИМИ Нуриддин Абдуллаевич Холмирзаев	47
12.	АКСИОЛОГИК ЁНДАШУВНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ДОЛЗАРБЛИГИ ВА ОММАЛАШТИРИШНИНГ ЗАРУРАТИ Ханифахон Урмонбек кизи Гуломкодирова	58
13.	КЎПРИК ҚАТНОВ ҚИСМИГА ҲИСОБИЙ КУЧЛАРНИНГ МУМКИН БЎЛГАН ҚИЙМАТЛАРИНИ ТАҚСИМЛАНИШИ Исмоил Абдуназар ўғли Менглиев	62
14.	ЗАМИНАҲОИ ТАЪРИХИЮ ИҶТИМОИИ ҲАМКОРИҲОИ ТОҶИКИСТОН ВА ЎЗБЕКИСТОН Сироҷиддин Самариддинзода Сардорбек Солиев	67
15.	BIOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE PLANT PANICUM MILIACEUM Maftuna Abdimuminova Alisher qizi	73
16.	INSON HUQUQLARI TUSHUNCHASI VA UNING AMALIYOTDA	78

	QO‘LLANILAYOTGAN TAMOYILLARI Sharobidddinova Aziza Anvarjon qizi	
17.	BUGUNGI ADABIY JARAYONDA SALOMAT VAFONING O‘RNI Rajabboyeva Lobar	82
18.	ODAM ORGANIZMIDAGI TO‘QIMALAR HAMDA ULARNING FUNKSIYALARI Farog‘at Umbarova Luqmonovna	85
19.	ҚАДИМГИ ХОРАЗМДАГИ ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИ ТАРИХИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ Атажанов Мухиддин Илҳомович	88
20.	САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ ЧАСТИ РЕЧИ Кабулова Наргиза Адилбековна	95
21.	HISSIY TOLIQISH SINDROMI VA UNING OMILLARINI NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI Samatova Sanobar Nazarovna	98
22.	NUTQ MADANIYATI VA NOTIQLIK SAN’ATINING O‘QITUVCHI FAOLIYATIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI Xamrayeva Zulayxo Egamovna	102
23.	ASTRONOMIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI Mirzaqandova Sohibjamol Xolmo‘min qizi	107
24.	BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA “MULOQOT” TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH AHAMIYATI O‘g‘iljon Karimbergan qizi Egamberganova	110
25.	TURKISTONDA JADID DIDAKTIKASINING PAYDO BO'LISHI VA ABDULLA AVLONIYNING TA'LIM MUHITIDA TUTGAN O'RNI Oydin Abduraximovna Akramova	113
26.	UCHINCHI RENESSANS YOSHLARINI TARBIYALASH VA YOSHLAR MILLIY O‘ZLIGIDAN BEGONALASHUVIGA QARSHI “MILLIY TIKLANISHDAN MILLIY YUKSALISH SARI» G‘OYASINING O‘RNI Nigora Xolmuxammatovna Zokirova	118
27.	TA’LIMNING “BILISH”GA OID MODELI - SHAXSNI UYG‘UN RIVOJLANTIRISH Faxriddin Joniyev	124

Eslatma! “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

Bosh muharrir

Abdumannonov Islomjon Ikromjon o‘g‘li

Mas’ul muharrir

Isroilov Ozodbek Saydullajon o‘g‘li

Nashrga tayyorlovchi

Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li

“Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, 2022-yil. 131 bet.
© Talqin va tadqiqotlar, 2022
© Mualliflar jamoasi, 2022